


ISSN 2181-0000
Doi Journal 10.26739/2181-0000

JOURNAL OF MAMUN SCIENCE



Volume 3, Issue 12 **2025**



ISSN 2181-0000
Doi Journal 10.26739/2181-0000



«MA'MUN SCIENCE» JURNALI

3 JILD, 12 SON

ЖУРНАЛ «MAMUN SCIENCE»
ТОМ 3, НОМЕР 12

JOURNAL OF «MAMUN SCIENCE»
VOLUME 3, ISSUE 12



ТОШКЕНТ-2025

«MA'MUN SCIENCE» JURNALI

ЖУРНАЛ «МА'МUN SCIENCE» | JOURNAL OF «MAMUN SCIENCE»
№12 (2025) DOI <http://dx.doi.org/10.26739/2181-0000-2025-12>

Бош мухаррир: | Главный редактор:
Chief Editor:

Urazbayeva Dilbar Abdullayevna
Psixologiya fanlari doktori (DSc), professor
Ma'mun Universiteti NTM

Бош мухаррир ўринбосари: | Заместитель
главного редактора: | Deputy Chief Editor:

Xudoynazarov Egambergan Madrahimovich
Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),
dotsent Ma'mun Universiteti NTM

TAHRIRIY MASLAHAT KENGASHI | EDITORIAL BOARD | РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ

FILOLOGIYA FANLARI (INGLIZ TILI)

Axmedov Oybek Saporboyevich

Filologiya fanlari doktori (DSc), professor
O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti

O'rozboyev Abdulla Durdibayevich

Filologiya fanlari doktori (DSc), professor
Ma'mun Universiteti NTM

Kalandarov Oybek Ruzimbayevich

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Ma'mun Universiteti NTM

Yakubov Muzaffar Kamildjanovich

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Ma'mun Universiteti NTM

Galiyeva Margarita Rafaellovna

Filologiya fanlari doktori (DSc), professor
O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti

Nasrullayeva Nafisa Zafarovna

Filologiya fanlari doktori (DSc), professor
Samarqand davlat chet tillari instituti

Cho'ponov Otanazar Otojonovich

Filologiya fanlari doktori (DSc)
Urganch davlat universiteti

Yakubova Matluba Tajibayevna

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Ma'mun Universiteti NTM

Samandarova Lola Sultanovna

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali

FILOLOGIYA FANLARI (RUS TILI)

Cho'ponov Otanazar Otojonovich

Filologiya fanlari doktori (DSc)
Urganch davlat universiteti

Ruzmetov Surojbek Allaberganovich

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Urganch davlat universiteti

FILOLOGIYA FANLARI (NEMIS)

Yakubova Matluba Tajibayevna

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Urganch davlat universiteti

FILOLOGIYA FANLARI (O'ZBEK TILI)

Matnazarov Javlanbek Kabulovich

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Ma'mun Universiteti NTM

TARIX FANLARI

Anatoliy Sagdullayevich Sagdullayev

Tarix fanlari doktori, professor; akademik

O'zbekiston Respublikasi Fanlar
akademiyasining haqiqiy a'zosi

Ashirov Adhamjon Azimbayevich

Tarix fanlari doktori, professor,
O'zbekiston Respublikasi

Fanlar akademiyasi Tarix instituti.

Goncharov Yuriy Mixaylovich

Tarix fanlari doktori, professor
Altay davlat universiteti Rossiya

Shaydurov Vladimir Nikolayevich

Tarix fanlari doktori, dotsent
Leningrad davlat universiteti Rossiya

Abdullayev Utkir Ismoilovich

Tarix fanlari doktori (DSc),
dotsent Urganch davlat universiteti

Matkarimova Sadoqat Maqsudovna

Tarix fanlari doktori (DSc), dotsent
Ma'mun Universiteti NTM

Abdullayev Timur Pulatovich

Tarix fanlari nomzodi, dotsent
Ma'mun Universiteti NTM

Abdalov Umidbek Matniyazovich

Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),
Dotsent Ma'mun Universiteti NTM

Jumaniyozova Mamlakat Tojiyevna

Tarix fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Urganch davlat universiteti

Xo'jamuratov Umarjon Rustamovich

Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Urganch pedagogika instituti

PSIXOLOGIYA FANLARI

Shoumarov G'ayrat Baxromovich

Psixologiya fanlari doktori, professor; akademik
O'zbekiston Respublikasi

Fanlar akademiyasining haqiqiy a'zosi

Kryukova Tatyana Leonidovna

Psixologiya fanlari doktori, professor
Kostroma davlat universiteti Belorusiya

Karpinskiy Konstantin Viktorovich

Psixologiya fanlari doktori, professor
Grodno davlat universiteti Belorusiya

IQTISODIYOT FANLARI

Ruzmetov Baxtiyar

Iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ma'mun Universiteti NTM

Sherov Alisher Bakberganovich

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa
doktori (PhD), professor

Ma'mun Universiteti NTM

Voronsova Yuliya Vladimirovna

Iqtisodiyot fanlari nomzodi

Moskva davlat boshqaruvi universiteti

Jabborov Umarbek Rustambekovich

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Ma'mun Universiteti NTM

Cho'ponov San'at Otanazarovich

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Ma'mun Universiteti NTM

Niyazmetov Islambek Masharipovich

Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Ma'mun Universiteti NTM

PEDAGOGIKA VA FALSAFA FANLARI

Sardor Sharifzoda O'razboy Tabib o'gli

Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa
doktori (PhD), dotsent

Ma'mun Universiteti NTM

Matnazarov Javlanbek Kabulovich

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Ma'mun Universiteti NTM

Adilov Zafar Yunusovich

Falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Ma'mun Universiteti NTM

Slepko Yuriy Nikolayevich

Psixologiya fanlari doktori, professor

Yaroslav davlat pedagogika universiteti

Xazova Svetlana Abduraxmanovna

Psixologiya fanlari doktori, dotsent Kostroma
davlat universiteti Belarusiya

Kalandarova Madina Baxadirovna

Psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Ma'mun Universiteti NTM

Nurullayeva Baxtigul Bobojonovna

Psixologiya fanlari nomzodi, dotsent Ma'mun

Universiteti NTM

TIBBIYOT FANLARI

Yuldashev Baxrom Sobirjanevich

Tibbiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Ma'mun Universiteti NTM

Abdullayev Ravshanbek Babajonovich

Tibbiyot fanlari doktori, professor

Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali

Esamuratov Aybek Ibragimovich

Tibbiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali

Samandarova Barno Sul-tonovna

Biologiya fanlari nomzodi, dotsent

Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali

Tajiyeva Zebo Baxodirovna

Tibbiyot fanlari falsafa doktori (PhD)

Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali

Nazarova Maloxat Berdiboyevna

Tibbiyot fanlari falsafa doktori (PhD)

Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali

Xudaynazarova Salomat Ruzibaevna

Tibbiyot fanlari nomzodi, dotsent

Toshkent pediatriya tibbiyot instituti

ILMIY JURNAL TEXNIK KOTIBI

Sultanov Samandar Maxmud o'g'li

Arxeolog (tadqiqotchi pedagog)

Ma'mun Universiteti NTM

Журнал включен в перечень ВАК национальных научных изданий, рекомендуемых для публикации основных научных результатов диссертаций по медицинским наукам постановлением № 01-08/3068/17 от 27 сентября 2024 г.

Page Maker | Верстка | Саифаловчи: Xurshid Mirzaxmedov

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz

ООО Тадqiqot город Ташкент,

улица Амира Темура пр.1, дом-2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz

Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz

Tadqiqot LLC the city of Tashkent,

Amir Temur Street pr.1, House 2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz

Phone: (+998-94) 404-0000

FILOLOGIYA

1. Хулкар Гаипова Қўзибаевна ИЖОДИЙ МЕТОД, УСЛУБ ВА ЖАНР МУНОСАБАТЛАРИ.....	7
2. Hulkar G‘aipova Qo‘zibayevna, Polvonnazirova Mahbuba Bekdurdi qizi BADIY TAFAKKUR TADRIJI VA USLUB KO‘RINISHLARI.....	11
3. Saidjanova Zebo Komilovna, Matyoqubova Gavhar BADIY ASAR TAHLILIDA TA‘LIMIY-DIDAKTIK O‘YIN METODLARIDAN FOYDALANISH.....	17
4. Ataxanova Venera Radjapovna DOSTONLAR BADIYATINING MUMTOZ EPOSDAGI AN‘ANALAR BILAN O‘ZARO ALOQASI.....	21
5. Radjapova Feruza Abdullaevna NATIONAL AND CULTURAL SYMBOLISM OF PROFESSION-RELATED CLOTHING TERMINOLOGY IN ENGLISH AND UZBEK.....	26
6. Ro‘zmetova Moxfuza Komuljanovna ISTIQLOL DAVRI SHE‘RIYATIDA MAHMUD TOIR IJODINING O‘RNI.....	29
7. Raufjon Mahmudov OGAHIY TARIXIY ASARLARIDA QUR‘ONiy LAFZLAR.....	34
8. Jumaniyozova Sohiba Shuxratovna NUTQ MADANIYATIDA DISKURS TUSHUNCHASINING NAZARIY ASOSLARI.....	39
9. Rasulov Normurod Atakulovich, Dr. Mohd Nazish Khan GRAMMATICAL AND LEXICAL MARKERS OF IRREALIS IN NON-RELATED LANGUAGES: THE CASE OF ENGLISH AND UZBEK.....	43
10. Raufjon Maxmudov, Yulduz Abdullayeva HARBIY TERMINLARNING SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISH BOSQICHLARI.....	48
11. Eshchanova Temur Saparmat o‘g‘li MUMTOZ MATNLAR MORFEMIKASINI RAQAMLI TAHLIL QILISH USULLARI (OGAHIY ASARLARI MISOLIDA).....	51

TARIX

1. Ro‘zmetova Roziyajon Baxram qizi XORAZM XALQ OG‘ZAKI IJODIDA AKS ETGAN BA‘ZI RAMZLAR TIZIMI VA ULARNING MA‘NAVIY ILDIZLARI.....	55
2. Yunusxo‘jayev Habibulla Zafar o‘g‘li G‘ARB OLIMLARI TADQIQOTLARI DAVLATCHILIK TARIXINING YORITLISHI.....	60
3. Yunusxo‘jayev Habibulla Zafar o‘g‘li IJTIMOIY HIMOYA TIZIMI TARIXI.....	64

IQTISOD

- 1. Ruzmetova Gulira’no Atabekovna, Sherov Alisher Bakberganovich**
MINTAQADA INSON KAPITALINI RIVOJLANISHINI KLASTERLI YONDASHUVLAR
ASOSIDA TAHLILI.....69
- 2. Butanova Dilnoza Rustamovna**
AGROTARMOQDA STATISTIK TAHLILNING NAZARIY ASOSLARI.....77

PSIXOLOGIYA VA PEDAGOGIKA

- 1. Ibodullaeva Iroda Nurulla qizi**
ZAMONAVIY MAKTABDA O’QITUVCHI VA O’QUVCHI O’ZARO
MUNOSABATLARINING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI.....82
- 2. Xudayberganov D.**
BOSHLANG’ICH SINIF O’QUVCHILARINING KOGNITIV KOMPETENTSIYASINI
RIVOJLANTIRISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH.....86

FILOLOGIYA

Хулкар Гаипова Қўзибаевна,
Урганч давлат университети
доценти, PhD.

Хулкар Гаипова Кузибаевна,
доцент Ургенчского государственного
университета, PhD.

Hulkar Gaipova Kuzibayevna,
Associate Professor at Urgench State
University, PhD.

**ИЖОДИЙ МЕТОД, УСЛУБ ВА ЖАНР МУНОСАБАТЛАРИ
ТВОРЧЕСКИЙ МЕТОД, СТИЛЬ И ЖАНРОВЫЕ ВЗАИМООТНОШЕНИЯ.
CREATIVE METHOD, STYLE, AND GENRE RELATIONSHIPS.**



<http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.00000000>

АННОТАЦИЯ

Мазкур мақолада ижодий метод, услуб ва жанр тушунчаларининг ўзаро боғлиқлиги илмий-назарий жиҳатдан таҳлил қилинади. Тадқиқотда реализм ижодий методининг бадиий асар тузилиши, жанр ва индивидуал услуб шаклланишидаги ўрни ёритилади. Шунингдек, метод, жанр ва услуб бирлиги бадиий асарнинг ғоявий-бадиий савиясини белгилаб берувчи муҳим омил сифатида асосланади.

Калит сўзлар: ижодий метод, услуб, жанр, реализм, бадиий асар, эстетик тафаккур, адабий жараён.

АННОТАЦИЯ

В статье с научно-теоретической точки зрения анализируется взаимосвязь понятий творческий метод, стиль и жанр. В исследовании раскрывается роль творческого метода реализма в формировании структуры художественного произведения, жанра и индивидуального стиля. Также обосновывается единство метода, жанра и стиля как важный фактор, определяющий идейно-художественный уровень произведения.

Ключевые слова: творческий метод, стиль, жанр, реализм, художественное произведение, эстетическое мышление, литературный процесс.

ABSTRACT

This article provides a scientific and theoretical analysis of the interrelation between the concepts of creative method, style, and genre. The study highlights the role of the creative method of realism in shaping the structure of a literary work, genre development, and the formation of

individual style. It also substantiates the unity of method, genre, and style as a key factor determining the ideological and artistic quality of a literary work.

Keywords: creative method, style, genre, realism, literary work, aesthetic thinking, literary process.

КИРИШ: Ҳозирги янгиланаётган давр ва инсон маънавияти бадиий ижоднинг айрим масалаларига ёндашувни янада чуқурлаштириш, бугунги жараён ва қатор назарий фикрларни янгича идрок этишни тақозо қилмоқда. Бу масалалар силсиласида ижодий метод, услуб ва жанр муносабатлари салмоқли ўрин тутди. Зеро, булардан ҳеч бири ўзаро алоқаларсиз тараққий эта олмайди. Бу тушунчалар бадиий ижоднинг ўзак масалаларидан бўлиб, уларнинг тарихий ва ижодий характери, давр ва эстетик тафаккурдаги эврилишларга боғлиқлиги муҳим илмий аҳамият касб этади.

АДАБИЁТЛАР ТАҲЛИЛИ ВА МЕТОДОЛОГИЯ: Дарҳақиқат, “услуб тушунчаси билан боғлиқ ҳолда услуб ва метод, услуб ва шакл, услуб ва жанр муносабатлари, шунингдек, услубий йўналишлар ва услублар муқоясаси (типологияси) каби хилма-хил муаммолар туғилганки, адабиётшунослик илмининг табиати ҳам, бадиий тақомили ривожини ҳам бу чалкашликларга аниқлик киритишни талаб қилади”.

Негаки индивидуал услуб қанчалик хусусий ва ранг-баранг бўлса ҳам бадиий ижод қонуниятлари, метод ва жанр тақомилида кечаётган ўзгариш ва етакчи хусусиятлар таъсиридан холи бўла олмайди. Шу боис, адиб услуби асарга ўзига хослик бахш этса, асар ўзи мансуб жанрни тақомиллаштиришга, жанр эса методни бойитишга хизмат қилади. Маълумки, метод тушунчаси моҳиятида ижодкорнинг воқеликка, нарса ва ҳодисаларга муайян эстетик муносабати акс этиб, тасвир ҳаққоний, ўз ҳолича (реализм), ёхуд кўтаринки руҳда хоҳиш, орзу ифодаси сифатида (романтизм) воқе бўлади. Булардан биринчисида объективлик, иккинчисида субъективлик устувор бўлгани ҳолда, реализм миллий адабиётимизнинг етакчи ижодий методи сифатида ҳаққонийлик ва бадиий тасвирийлик барча даврларда унинг асосий мезони бўлиб келмоқда. Ҳозирга келиб реализм имкониятлари, жанрлар тақомилидаги ўрни тобора кўпроқ намоён бўлмоқда. Буни анъанавий реализм аталмиш метод ва қисса жанри муносабатида ҳам яққол кўриш мумкин. Маънавий-эстетик эҳтиёж тақозосига кўра пайдо бўлиб, ўзгариб борувчи “метод анғланаётган воқеликка ижодий муносабатнинг умумий принципи, яъни воқеликни қайта яратиш принциpidир ва шунинг учун у ўзининг конкрет-индивидуал ижросидан ташқарида яшай олмайди. Дарҳақиқат, бундай “конкрет индивидуал ижро” жанр ва услуб муносабатида воқе бўлади.

Реализм ижодий методи учун умумий бу қонуният ҳар бир миллий адабиёт ва адабий жанрларда ўзига хос амал қилади. Бинобарин, метод, жанр ва услуб тушунчалари специфик хусусиятларга эга бўлиб, “методда энг аввало ёзувчининг бошқа, ўзига яқин ёзувчилар билан боғлайдиган умумий нарсалар кўзга ташланади, услубда эса уларни бир-биридан ажратиб турадиган томонлар: унинг шахсий тажрибаси, истеъдоди, нутқ оҳанги ва ҳақозолар кўзга ташланади”. Бу жараёнда ҳар бир ижодкорнинг шахсий майли, иқтидори, адабий тур ва жанрларда ўз салоҳиятини намоёиш эта билиш даражаси ойдинлашиб, асарнинг муайян методга мансублиги юзага келади. Асарнинг қиммати эса унинг ғоявий-бадиий савиясига қараб белгиланади. Машҳур адабиётшунос О.Шарафиддиновнинг бу хусусдаги фикри эътиборлидир: “Адабий асар чинакам асар намунаси бўлиши учун, реализмга мансуб бўладими, романтизм услубида ёзилган бўладими, ёки қандайдир бошқа модернистик услубга амал қилладими, барибир унинг марказида инсон турмоғи керак, китобхон инсоннинг тақдири, табиати, ҳаёти ҳақида муайян ахборот олиш билан бирга бу асардан эстетик завқ ҳам ола билсин”. Бу фикрларда ижодий методнинг қандай номланиши ёхуд қайси замон ва маконга мансублигидан қатъи назар у инсонни юксак мақсадлар йўлида батафсил, ҳаққоний ва таъсирчанлик (“эстетик завқ”) билан тасвирлаши зарурлигига урғу берилади.

МУҲОКАМА: Таъкидлаш керакки, ўтган асрнинг 90-йилларигача фанда социалистик реализм совет тузуми шароитидаги адабиётнинг ягона методи сифатида амал қилгани

этироф этилди ва кейинги даврда унинг инқирози ва ижод эркинлигининг қарор топиши адабий жараёнда янги ҳодиса эканлиги исботланди. Социалистик реализм методининг жанр ва услуб тизимида қолдирган асоратлари мустақиллик йилларида яратилган тадқиқотларда батафсил кўрсатилди. Бу жиҳатдан Ҳ.Болтабоевнинг “Наср ва услуб”, О. Шарафиддиновнинг “Ижодни англаш бахти”, У.Норматовнинг “Ижод сеҳри”, А.Расуловнинг “Танқид, таҳлил, баҳолаш”, “Бадиийлик-безавол янгилик” китоблари характерлидир. Уларда адабиёт сиёсат куролига айлантирилгани, санъаткор ижодий индивидуаллиги ва эрки бўғиб қўйилгани, бадиий услуб асосан яқранг бўлгани, ижтимоийлик асосий мезонга айлантирилгани, умуман адабий-бадиий тафаккур бир хил қолипларга солиб келгани ва бошқа салбий жиҳатлар конкрет фактлар, чуқур мулоҳазалар асосида кўрсатилди.

Лекин, яқка мафкура ва метод ҳукмронлиги даврида ҳам темир қобикларни ёриб, етук санъат намунаси бўлган, инсон ва ҳаётни ҳаққоний ёритган, чинакам реализм имкониятини намоиш этган асарлар, жумладан, қиссалар майдонга келди. Булар Ғ.Ғуломнинг “Шум бола”, “Ёдгор”, А.Қодирийнинг “Обид кетмон”, Ойбекнинг “Болалик”, А.Қаҳҳорнинг “Ўтмишдан эртақлар”, “Синчалак”, О.Ёкубовнинг “Муқаддас”, Ў.Ҳошимовнинг “Дунёнинг ишлари”, А.Мухторнинг “Чинор”, Ў.Умарбековнинг “Ёз ёмғири” қиссалари ва бошқалар. Гарчи ўтмиш Шарқ халқлари адабиётларида, жумладан ўзбек адабиётида реализм асосан тенденция ҳолида кўринса ҳам XX асрда туб моҳиятини сақлаб келганини, унинг бугунги киёфаси ана шу ижодий жараённинг давоми сифатида янги имкониятлар ҳисобига тобора такомиллашиб бораётганини алоҳида таъкидлаш жоиз.

Бунга қуйидаги омиллар имкон бермоқда.

1. Жамият ва инсон ҳаётидаги ижтимоий-иқтисодий ўзгаришлар туфайли янги адабий-бадиий тафаккур шаклланиши ва ижодкор дунёқарашида эврилишларга эҳтиёж туғилиши.

Шу сабабли реал воқелик, жамият тараққиётининг даражаси адабий жанрларда аввало реалистик тасвир тенденцияларини, ижодкорнинг эстетик қарашларида ҳаққонийлик тамойилини тақозо этмоқда.

2. Реализм такомиллида анъанавийликнинг ўрни. Бу иккала тушунча ўртасида диалектик муносабат мавжуд бўлиб, “мустаҳкам барқарор анъанасиз ҳеч қандай метод шаклланмаганидек, муайян ижодий методларсиз барқарор анъаналар ҳақида гап ҳам бўлиши мумкин эмас”. Бу анъаналар доираси бадиий образ, ижодий услуб, сюжет, жанрлар ва бошқа адабий асар компонентларини тобора кенгроқ қамраб олмақда. Уларнинг оғзаки ижод ёхуд мумтоз адабиётга мансуб айрим унсурлари реалистик талқинда ижодий ўзлаштирилган ҳолда қайта сайқалланмоқда.

3. Жаҳон, шу жумладан рус адабиётида реализмда тўпланган тажрибанинг таъсири, ўзаро адабий алоқаларнинг роли. Дарҳақиқат “ўзбек адабиётининг XX асрдаги тараққиёти Европа реализми сабоқларини ўрганиш совет шарқи адабиётининг тез ривожланиши учун катта аҳамияти борлигини кўрсатади.” Лекин бу таъсир Европа андозаларида эмас, балки ўзбек миллий адабий тафаккурига мос, уларга ижодий ёндашилган ҳолда қабул қилинди. Бу ижодийлик тасвир тамойилларида, янги жанр ва услубий шаклларга муносабатда ёрқин намоён бўлаётир. Бу жараён ҳозир ҳам давом этиб, замонавий услуб (модерн) ва наср жанрлари, жумладан қиссанинг ички типлари хилма хиллигида кўринмоқда.

Бинобарин, бугунги реализмнинг воқеликни янгича кашф этиш имкониятларининг замини XX аср адабий тажрибаси бўлиб, у узлуксиз бардавомийликда, жанр ва услублар тадрижида бойиб бораётир.

Зеро, ўзбек адабиётида роман, новелла, поэма (замонавий дoston), драма, баллада каби янги, эпик дoston, қисса (повесть) ҳикоя ва лирик шакллар каби анъанавий жанрлар ҳар бир метод таркибида ўзига хос ўринга эга. Уларни қўллаш ва умуминсоний ғояларни юксак бадиийлик асосида акс эттириш аввало ижодкор нуқтаи назари ва салоҳиятига боғлиқдир.

Чунки “автор позицияси маънавий-эстетик системаларнинг ижодда реаллашиши ҳаётий характер ва шароитнинг барча мураккабликлари, ўзаро чигал боғланишлари, зиддиятлари

орқали бадий акс эттириш имкониятларига алоқадор”. Ижодкорнинг воқеликни бадий идрок этиш ва реалистик тасвирлаши методни англашдан бошланади. Бунда санъаткор дунёқараш, образли фикрлаш тарзи, индивидуал истеъдоди муҳим роль ўйнайди. Бу ҳол методнинг реализм босқичидаги ўзбек адабиётига ҳам хос хусусиятдир. Бу ҳақда академик И. Султоннинг фикри характерли:

“Адабиётда реализм даври ҳаётга жуда яқин ҳикоя, повесть ва драма каби адабий жанрларнинг кенг ривож билан ҳам боғлиқдир”. Бу ўринда метод моҳиятига даҳлдор икки муҳим жиҳат таъкидланган.

Биринчиси, реализм адабиётнинг аввало насрий ва драматик жанрлар тақомилига алоқадорлиги бўлса иккинчиси, ўша жанрларнинг ҳаётга яқинлигининг эътирофидир.

“Ҳаётга яқинлик” иборасида реализмнинг воқеликни ўз ҳолича, ҳаққоний тасвирлаш хусусияти назарда тутилиб, қайд этилган жанрлар табиатидаги салмоқли кўлам, реал воқеа ва характерлар талқинидаги эпик баён устуворлиги эътиборга олинган.

НАТИЖА: Реализм моҳиятининг ҳаётийлиги, имкониятларининг беқиёслиги ва ижодкор бадий тафаккурининг кўламдор ифодаланишининг намоён бўлишида эпик жанрларнинг ўрни салмоқлидир. Бу ҳол айниқса воқеликни лирик ва драматик тур жанрларига нисбатан кенг миқёсда, турли образлар ва кескин конфликтлар контекстида акс эттирувчи эпик тур жанрлари – роман ва қиссаларда ёрқин кўринади. Шу сабабли реализм имкониятларининг янги қирралари анъанавий ва ноанъанавий тасвир тамойилларига турли услубий йўналиш ва индивидуал ёндашувларга кенг йўл очилгани каби ҳодисаларда зоҳир бўлмоқда. Лекин уларнинг барчаси учун бош типологик хусусият реализм талабларига амал қилингандир. Индивидуал услубдаги ўзига хосликлар эса реализмни бойитувчи компонентлардир. Ижодий методнинг намоён бўлишида жанрнинг тасвир имкониятлари ва ифода ранг-баранглиги таъсири айниқса сезиларлидир. Бу хусусият аввало жанр мансуб асарнинг тузилиши ва воқеликнинг қамров доираси ва даражасига боғлиқ ҳодисадир. Академик М.Храпченконинг қуйидаги фикри бу масалани янада ойдинлаштиради. “Адабий асар структурасига ҳар қил нуқтаи назардан ёндашиш мумкин. Гап конфликт хусусияти, характерларни тасвирлаш спецификаси ҳақида борар экан, биз ёзувчи ижодий методи қирраларидаги адабий асарнинг бошқа хусусиятлари каби унинг структурасида акс этган метод қирраларига тўқнаш келамиз. Асарнинг эстетик бир бутунлик сифатида шаклланиши, ташкил топиш усули аниқлашган пайтда унинг жанри характерланади. Конфликтнинг ифодавий ва тасвирий воситалар аспектида мукамаллашиши ҳақида сўзлаш эса бизни услуб сферасига томон бошлайди. Шундай қилиб, бадий асар тузилишида ижодий метод, жанр ва услубнинг бир-бири билан алоқаси намоён бўлади”. Юқоридаги фикрлардан англашиладики, бадий асар ҳақидаги қарашларда метод, жанр ва услуб учлиги ўртасидаги муносабат асосий ўрин тутаяди. Бу муносабатнинг характери ва қирралари асарнинг яхлит матни, композицион тузилиши таҳлилида намоён бўлади. Бу эса ҳар бир жанр ва ижодкор услубининг ижодий метод ифодасидаги мавқеини аниқлашда аввало жанр хусусиятларига эътибор устунлигини тақозо этади. Шу боис қиссанинг жанрий белгилари, тадрижий тақомили, янгилашиш жараёни каби хоссалари ҳисобга олиниши зарур.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Болтабоев Ҳ. Наср ва услуб.- Тошкент: Фан, 1992.
2. Краткая литературная энциклопедия. Т.4.-М. 1972.
3. Тимофеев Л.И. Основы теории литературы. М, Просвещение.1971.
4. Шарафиддинов О. Ижодни англаш бахти. Тошкент. Шарқ.2004.
5. Саримсоқов Б. Ўзбек фольклорининг ижодий методларини аниқлаш масаласи// Ўзбек тили ва адабиёти.1990 №.1.Б.50
6. Адабиёт назарияси,- Т.- II-Тошкент : Фан, 1979 .б.419
7. Ёқубов Ҳ . “ Қутлуғ қон” романида реализм ва автор позицияси хусусида // Ўзбек тили ва адабиёти . 1985 № 3 . Б .35

Hulkar G‘aipova Qo‘zibayevna,
Urganch davlat universiteti
dotsenti, PhD.

Polvonnazirova Mahbuba Bekdurdi qizi,
Filologiya va tillarni o‘qitish o‘zbek tili
ta‘lim yo‘nalishi 241-guruh talabasi

Хулкар Гаипова Қозибаевна,
доцент Ургенчского государственного
университета, PhD.


Полвонназирова Махбуба Бекдурди кызы,
студентка 241-й группы направления

«Филология и преподавание языков (узбекский язык)»

Hulkar G‘aipova Qo‘zibayeva,
Associate Professor of
Urgench State University, PhD

Polvonnazirova Mahbuba Bekdurdi qizi,
Student of Group 241, Department of Philology
and Language Teaching (Uzbek Language)

BADIY TAFAKKUR TADRIJI VA USLUB KO‘RINISHLARI
ЭВОЛЮЦИЯ ХУДОЖЕСТВЕННОГО МЫШЛЕНИЯ И ФОРМЫ СТИЛЯ
THE EVOLUTION OF ARTISTIC THINKING AND STYLISTIC FORMS

 <http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.00000000>

ANNOTATSIYA

Maqolada uslubiy yo‘nalishlarning adabiy jarayon silsilasidagi yetakchi xususiyatlari va adabiyotshunoslarimizning nasr takomiliga oid kuzatishlari hamda milliy adabiyotimizdagi modern yo‘nalishining takomili kabi masalalar yoritib berilgan.

Kalit so‘zlar: Adabiy-estetik tafakkur, milliy adabiyot, qissa, mavzu, uslub, sotsiologik g‘oya, realistik tahlil, ijtimoiylik, badiiylik, modern, avangard, davrlashtirish.

АННОТАЦИЯ

В статье освещаются ведущие особенности стилистических направлений в системе литературного процесса, наблюдения отечественных литературоведов о совершенствовании прозы, а также вопросы развития модернистского направления в национальной литературе.

Ключевые слова: литературно-эстетическое мышление, национальная литература, повесть, тема, стиль, социалистическая идея, реалистический анализ, социальность, художественность, модерн, авангард, периодизация.

ABSTRACT

The article examines the leading characteristics of stylistic trends within the sequence of the literary process, the observations of national literary scholars on the development of prose, as well as issues related to the advancement of modernist trends in national literature.

Keywords: literary and aesthetic thinking, national literature, novella, theme, style, socialist idea, realistic analysis, sociality, artistry, modernism, avant-garde, periodization.

KIRISH: Badiiy-estetik tafakkur inson faoliyatining muhim qismlaridan biri bo‘lib, odam va olamni, narsa va hodisalarni go‘zallik va ezgulik nuqtai nazardan anglash va badiiy kashf etishga qaratilgan. Uning zamini va takomil omillari real voqelik, san’atkor yashayotgan ijtimoiy-tarixiy davr va ma’naviy-adabiy an’analar badiiy uslub, poetik idrok xarakteri bilan bog‘liqdir. Zero, adabiy qarashlar jamiyat rivojidan ajralmagan hodisa sifatida o‘ziga xos xususiyatlarga ega. Bu xususiyatlar mohiyatida badiiy so‘z orqali insonni ulug‘lash, ma’naviyatini yuksaltirish va ezgulikka e’tiqod tuyg‘usini anglatish maqsadi yotadi. Barcha davrlar adabiy tafakkuri uchun mushtarak bo‘lgan bu umumbashariy g‘oya tarixiy taraqqiyot va madaniy sharoitlar taqozosiga ko‘ra turli shakl va darajada talqin kelib kelinmoqda.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METADOLOGIYA: Adabiy-estetik tafakkur ongli va subektiv qarash sifatida muayyan taraqqiyot davomida tobora takomillashib boruvchi jarayon mahsulidir. Binobarin, ijtimoiy-psixologik sharoit va turmush tarzi o‘zgarib, rivojlanib borar ekan, bu hol adabiy tafakkur xarakterini shu davrga muvofiqlashtirish, voqelik va insonni muayyan obraz va ifodalarda mavjud tarixiy muhitni estetik me‘yorlari asosida aks ettirish ehtiyojini tug‘diradi. Adabiy tafakkurning mahsuli - asarlarning ijtimoiy va estetik qimmatini badiiy ijodning san’atkor dunyoqarashi, uslubi, iste’dodiga dahldor o‘zak masalalari bilan bog‘liqdir. XX asr adabiyotida bu tushunchalar o‘rtasidagi mutanosiblik, dialektik birlik to‘la namoyon bo‘la olmadi. Milliy adabiyotimiz 50 yil davomida sotsrealizm metodi iskanjasida qolib kelsa ham, uning asosini nisbatan kam bo‘lsada chinakam san’at asarlari tashkil etishi bu fikrni dalillaydi.

Adabiy tajribalardan ma’lumki, ijtimoiylik va badiiylik asardagi bir jarayonning ikki qirrasini bo‘lib, har birining o‘z o‘rni va miqyosi bor. Bir-birini to‘ldirib, asarning yagona mazmunini ifodalashga xizmat qilishi tufayli ularning o‘zaro uyg‘unligi ijod qonuniyatlaridan biridir. Tabiiyki, unga davr ruhi, tarixiy sharoit xarakteri ham ta’sir ko‘rsatadi. Chunonchi, XX asr oxiri XXI asr boshidagi tarixiy burilish tufayli badiiy ijodda ijtimoiy ohang kuchayishi bejiz emasdi. Darhaqiqat, “nazariy tamoyillar hayot haqiqatiga duch kelganida biroz o‘zgarishi o‘zining estetik mohiyatida ijtimoiylikka qarab burilishi mumkin ekanini jadid adabiyoti tajribasi anglatib turibdi”. [1.:15]

Sho‘ro davri adabiy ongining markazida asosan ijtimoiy-siyosiy masalalar, zamon ruhini ulug‘lash, mavjud tuzumni ideallashtirish asosiy o‘rin tutdi, jamiyatni harakatlantiruvchi, vujudga keltiruvchi bunyodkor kuch - insonning shaxs sifatidagi botiniy olami, dardi, hissiyot va ko‘ngil dunyosi talqini esa keyingi planga tushib qoldi. Bunday holatlar 30-yillardan 80-yillargacha deyarlik barcha adiblarning asarlarida ko‘rinsa-da ular adabiyotning umumiy mohiyatini o‘zgartira olmadi. Shu bois ijtimoiy tahlil etakchi bo‘lgan asarlarning hammasini bir xil baholash, faqat manfiy jihatlarni ko‘rish biryoqlamalik bo‘lardi. Demak, insonni ijtimoiy jihatdan tahlil etish muayyan zaruriyat bo‘lsa ham mohiyat uning ijtimoiy faoliyati bilan birga murakkab shaxs sifatidagi botiniy qalb evrilishlarini uyg‘unlashtirib tasvirlashdadir. Cho‘lpon, Abdulla Qodiriy, Oybek, Abdulla Qahhor, Asqad Muxtor, Said Ahmad kabi yirik adiblar qalamiga mansub roman, qissa va hikoyalar bu jihatdan ibratlidir. Binobarin, “badiiy asar hamma vaqt ijtimoiy-estetik funktsiya o‘taydi va adabiyot irratsional niqobdagi ratsional ijod, undagi fikr esa ijtimoiy mazmunni kasb etadi”. [2.:54]

MUHOKAMA: Adabiy ijodning ijtimoiylikdan badiiyatga o‘tishi va o‘zaro uyg‘unlashuv yo‘li murakkab jarayon bo‘lib, unda birinchidan, joriy davr ma’naviy ehtiyojlari, ikkinchidan, ijodkorning badiiy iqtidori, voqelikka subektiv estetik munosabati hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Bu munosabatda san’atkorning mumtoz milliy adabiy badiiy an’analariga, mavjud jarayondagi etakchi izlanishlarga va jahon adabiy tajribalariga qarashlari aks etadi. Bu qarashlar silsilasida g‘oya va mavzu, metod va uslub, obraz, janr va badiiy til takomilidagi o‘zgarish va yangilanishlar asosiy o‘rin tutadi. Bu xususiyatlar ayniqsa tub ijtimoiy o‘zgarishlar ko‘p bo‘lgan XX asr va hozirgi davr adabiy tafakkurida yorqin ko‘rindi. Ma’lumki, XX asr va XXI asrning dastlabki yillari adabiy-estetik ongimizda butunlay yangicha tamoyil va tushunchalarni shakllantirdi va milliy adabiyot rivojida shularga monand muayyan bosqichlar yuzaga keldi. Adabiyotshunos Q.Yo‘ldoshev bu

davrni quyidagicha 3 bosqichga ajratadi: 1) O‘zbek jadid adabiyoti davri; 2) sho‘ro davri o‘zbek adabiyoti; 3) mustaqillik davri o‘zbek adabiyoti va bunga har bir davrga xos tub xususiyat-badiiy ijodning voqelikka estetik munosabatini asos qilib oladi. [3.:181-194] Adabiyotshunos N.Karimovning bu davrga oid tasnifi ham 3 bosqichdan iborat: 1) milliy uyg‘onish davri; 2) ijtimoiy silsilalar davri; 3) mustaqillik davri o‘zbek adabiyoti”. [4.:37-256]

Shuni alohida ta’kidlash kerakki, bu tasniflarda dastlabki ikki davr turlicha nomlansa ham ular tarixiy vaqt va adabiy tafakkurning etakchi xususiyatini belgilash jihatidan umumiylikka ega. Chunonchi, birinchi va ikkinchi bosqichlarda XX asr boshidan 90-yillargacha bo‘lgan davr qamrab olinib, ularning birinchisida millatning o‘zini anglash va uyg‘onish g‘oyasi tafakkurning bosh g‘oyasi edi, ikkinchisida badiiy ijod siyosat quroliga, yagona sotsializm ifodachisiga aylandi. Shunga muvofiq birinchi bosqich adabiy tafakkurning asriy an‘analar bilan birga yangi, zamonaviy ko‘rinishlari, turfa uslubiy shakliy yo‘nalishlari yonma-yon amal qilganligi bilan xarakterlanadi. Darhaqiqat, bu davr vakillari- jadidlar o‘zigacha bo‘lgan mumtoz adabiyotni chuqur o‘zlashtirish, jahon adabiyotidagi etakchi tendensiyalardan xabar topish natijasidagina madaniy hayotning barcha jabhalaridagi kabi badiyatda ham yangicha ehtiyojni his qilgan va bunga o‘zlarining butun ijodiy kuchlarini qaratgan edilar. [5.:155]

Ikkinchi bosqich ijodning asosan bir qolipda - sotsialistik g‘oyani yakrang usulda, bir metod doirasida ifodalash ustunligi bilan xarakterlanadi.

Uchinchi bosqich mustaqillik davri o‘zbek adabiyoti badiiy estetik tafakkur rivojidadagi sifat jihatdan yangi o‘ziga xos fenomen ekanligi adabiyotshunoslikda yakdillik bilan ta’kidlanmoqda. Darhaqiqat, bu davr adabiyoti milliy adabiyot taraqqiyotidagi shunchaki bir bosqich bo‘lmay, qator belgilarga egadir. Shu belgilardan biri uslub ko‘rinishlarining rang-barangligi bo‘lib, bugungi adabiyot qiyofasida ularning alohida o‘rni borligi shubhasizdir.

Hozirgi qissalarning avvalo g‘oya, mavzu, shakliy-uslubiy va individuallik jihatdan xilma xillik e’tiborni tortadi. Ular zamonaviy, tarixiy, ijtimoiy-siyosiy, oilaviy-maishiy, sarguzasht-detektiv, ishqiy mavzulardagi realistik, romantik, yumoristik va modernistik yo‘nalishdagi turli saviyada yaratilgan asarlar bo‘lib, bugungi qissachilikda kechayotgan yangilanishlarni mujassamlashtiradi.

Ma’lumki, uslubiy yo‘nalishlar adabiy jarayon silsilasidagi muhim hodisalardan biri sifatida badiiy tafakkurning muayyan davrlarga xos etakchi xususiyatlarini belgilashga imkon beradi. Bu xususiyatlar individual, betakror uslub va ohangga ega san’atkorlarning muayyan ijod tarziga mansubligini ko‘rsatadi, natijada har bir davrning asosiy uslubiy yo‘nalishlari vujudga keladi. Bugungi milliy adabiyotimizdagi yangilanayotgan uslubiy-shakliy yo‘nalishlar ibtidosi ham o‘tgan asrning ikkinchi yarmida yuzaga kela boshlagan yangicha tafakkur bilan bog‘liqdir. Bu jarayon ayniqsa, badiiy nasr va she’riyatda yorqin namoyon bo‘ldi. Adabiyotshunos U.Normatov 60-70 yillarda nasriy janrlarda yaratilgan asarlar tahlili asosida bu davrda ikkita uslubiy yo‘nalish - izchil realistik oqim va liro-romantik tendensiya mavjudligini qayd etadi. [6.:104] Adabiyotshunos S.Mamajonov esa shu davrdagi uslubiy yo‘nalishlarni o‘zbek adabiyoti kontekstida belgilab, ularni uchga ajratadi: 1) hayotni o‘z shaklida ko‘rsatish; 2) shartli ramziy uslubiy yo‘nalish; 3) liro-patetik uslubiy yo‘nalish;. [7.:6] Ko‘rinadiki, har ikkala guruhlashda ham realistik va liro -patetik uslubiy yo‘nalishlarning tilga olinishi tasodifiy emas: ularning birinchisiga xos haqqoniylik an’anaviy realizmning, ikkinchisiga xos ko‘tarinkilik esa romantizm unsurlarining ustuvorligiga ishoradir.

Bu uslubiy yo‘nalishlarning o‘zbek nasridagi namunalari 90-yillargacha jadal davom etdi. Lekin ularning har biri qo‘llanilish miqyosi va darajasiga ko‘ra turli mavqeda edi. Bu jarayonni teran kuzatgan adabiyotshunos H.Boltaboev uslublar tizimida realistik tahlilga intilishning kuchayib borayotganiga diqqat qaratib, quyidagi yo‘nalishlarni e’tirof etadi: 1) izchil tahliliy(analitik)yo‘nalish; 2) liro- romantik yo‘nalish; 3) shartli ramziy yo‘nalish. [8.:12-16] Muhimi shundaki, ustoz olimlar tasniflarida realistik yo‘nalish garchi izchil, “hayotni o‘z shaklida ko‘rsatish”, “izchil analitik” kabi turli sifatlashlar bilan atalsa ham uslublar silsilasida realistik yo‘nalish etakchi ekanligi birdamlik bilan qayd etilgan.

Milliy adabiyotimizning barcha janrlarida namoyon bo‘layotgan modernistik (zamonaviy) nomi bilan atalayotgan hodisadir. U tadqiqotlarda hozirgi mavjud uslubiy ko‘rinishlarga qo‘shilgan

yangi fenomen sifatida baholanmoqda. Jumladan, romanchilikdagi uslubiy yoʻnalishlarning quyidagi turlari mavjudligi taʼkidlanmoqda: a) izchil tahliliy; b) liro-romantik; v) shartli ramziy; g) modernistik” [10.:10]. Bu uslubiy koʻrinishlar hozirgi qissalarga ham xosdir. Koʻrinadiki, hozirgi adabiy jarayonda kechayotgan yangilanishlar miqyosida badiiy ijodning gʻoya, mavzu, obrazlar tizimi kabi umumiy komponentlari bilan birga ularni voqe qiluvchi ijodkor individualligi, xususan, tasvir va ifoda uslublari ham takomillashib, rang-baranglashmoqda. Zero, “istiqlol davri ijodda erkin fikr davri boʻlgani tufayli unda uslubiy rang-baranglik boʻlsa ham adabiyot mohiyati oʻzgarmasdir” [11.:10].

Bu oʻrinda koʻproq Gʻarbiga xos poetik ijod tarziga monandlik nazarda tutilmoqda. Ammo, muhimi shundaki, uslubiy yoʻnalishlarning keyingi yillar davomidagi tasniflarning barchasida realistik va modernistik yoʻnalishlarga koʻproq ahamiyat berilayotir. Bu, nazarimizda, bejiz emas. Ulardan birinchisi uzoq tarixga ega tafakkur anʼanalarining hayotiyiligini koʻrsatsa, ikkinchisi odam va olamni badiiy tadqiq etishning yangi tamoyillari Sharq milliy adabiyotida ham shakllanayotganligiga dalildir.

NATIJA: Rang-barang uslublarni badiiy ijoddagi qoʻllanish doirasi va nomlanishida ham turlicha qarashlar mavjud. Jumladan, mustaqillik davrigacha boʻlgan uslublarni anʼanaviy, undan keyingi, xususan, asosan Gʻarb estetikasi bilan bogʻliq uslublarni noanʼanaviy-modernistik yoxud zamonaviy deb atash keng tarqalgan. Bunda milliy zamin va yangicha badiiy yondoshuv tamoyillari asosiy mezon qilib olingan. Tabiiyki, bunday tasnif shartli boʻlib, ayniqsa modern tushunchasidagi “yangi”, zamonaviy maʼnolarining barcha qirralari tahlilga muhtoj. Adabiyotshunos I.Gʻafurov hatto absurd va modern atamaları oʻrnida avangard(avangardizm) tushunchasini qoʻllashni taklif etib yozadi: “Avangardning milliy adabiyotimizdagi ilk tajribalaridan keskin va katta xulosalar chiqaravermaslik, xulosalar bilan kitobxonlarning taʼbini qaytarib qoʻymaslik zarur. Biz avangardning ilk oʻrganish ila amaliyot bosqichidamiz” [12.:308]. Shu bois yangilanayotgan tafakkur gʻarbona avangardning murakkab hodisa ekanini unutmagan holda unga ijodiy yondoshib, ijobiy jihatlarni milliy goya, hayotbaxsh qarashlar va sinalgan asriy uslubiy unsurlar bilan boyitgan tarzda foydalanishni taqozo etmoqda.

Modern yoki avangard yoʻnalishlarining voqe boʻlishida badiiy ijod tabiati, etakchi xususiyatlari, ijodkor dunyoqarashi va har bir milliy adabiyotning oʻziga xosligi nazarda tutilmogʻi joiz. Binobarin, “modern” atamasi yangilik maʼnosini bildirib, badiiy tasvir va ifodaning turgʻun qoliplardan boshqacha koʻrinishlarda zohir boʻlishini XX asr oʻzbek adabiyotining har bir bosqichida koʻrish mumkin. Lekin bu yangicha fikr va ifodaning miqyos va darajasi davrlararo turlicha boʻlib, ijtimoiy-tarixiy sharoit, adabiy muhit va ijodkorning shaxsiy mayli kabi omillarga bogʻliq. Shunga koʻra, dadil aytish mumkinki, oʻtgan asr boshlaridan shakllana boshlagan bugungi adabiyotimiz oʻzining barcha bosqichlarida jahon adabiy tafakkuridagi izlanishlar jumladan, hozir modern deb atalayotgan yoʻnalishlarga ham befarq boʻlmagan, balki ulardagi barcha andozalarni emas, ayrim komponentlarni unsur, badiiy vosita, tendensiya, ilk tajriba shakllarida ijodiy qabul qilgan. Shu bois, adabiyotshunoslikda soʻnggi davrga oid tadqiqotlarda oʻzbek adabiyotida modern yoʻnalishining mavjudligi haqidagi fikrlarga alohida urgʻu berilmoqda. Biz ushbu qarashlarga va xususan nasr takomiliga oid kuzatishlarimizga asoslanib milliy adabiyotimizdagi modern yoʻnalishi takomilini shartli ravishda quyidagicha davrlashtirdik:

- 1) XX asrning 20-60 yillarida realistik asarlarda badiiy unsur koʻrinishida uchrashi(Choʻlpon, Abdulla Qodiriy, Oybek, Abdulla Qahhor va boshqalar ijodida)
- 2) 70-80 yillarda tendensiya shaklida kengayishi va jahon adabiyoti taʼsirining kirib kelishi (Asqad Muxtor, Xudoyberdi Toʻxtaboev, SHukur Xolmirzaev, Oʻ. Hoshimov va boshqalar)
- 3) 90-yillardan boshlab mustaqil yoʻnalish sifatida qaror topishi (Omon Muxtor, Xurshid Doʻstmuhammad, Murod Muhammad Doʻst, Nazar Eshonqul va boshqalar)

Koʻrinadiki, modern yoʻnalishining oʻzbek adabiyotida paydo boʻlishi aynan XX asrga toʻgʻri keladi. Bu jarayon yuqoridagi bosqichlarda xam oʻz ifodasini topgan va xatto bir ijodkorning turli yoʻnalishlarda qalam tebratgannini koʻrish mumkin. Quyidagi soʻzlar ushbu fikrni kuvvatlaydi: “XX asr boshida Choʻlpon “Oydin kechalarda”, “Qor qoʻynida lola”, “Kleopatra”, “Novvoy qiz”

singari ham realistik, ham modernistik yo‘nalishdagi benazir hikoyalarni yaratdi” [13.:145]. Bu an‘ana bugungi adiblar ijodida ham davom etmoqda. Chunonchi, ular badiiy niyat, qissa mavzusi xarakteri va o‘z ijodiy mayliga ko‘ra turli uslubiy yo‘nalishlar unsurlarini bir asarda o‘zaro uyg‘unlashtirgan yoxud muayyan yo‘nalishga to‘la amal qilgan holda foydalanmoqdalar. Masalan, X. Do‘stmuhammadning «Hijronim meningdir, mening” qissasida asosan liro-romantik uslub qo‘llanilgan bo‘lsa, “Panoh”, ”Nigoh” qissalarida shartli ramziy va modern uslublariga xos xususiyatlar sintezini ko‘ramiz. Bu hol ayniqsa N. Eshonqul qissalarida yanada yorqin aks etgan. U o‘z asarlarida izchil tahliliy va modernistik uslubiy yo‘nalishlarga ko‘proq murojaat qilmoqda. Uning «Urush odamlari”, ”Momoqo‘shiq”, qissalarida realistik, “Tun panjaralari”, ”Qora kitob” qissalarida esa sof modernistik tasvir ustuvorlik qiladi. Ayrim adiblar asarlarida mavzu xilma-xilligiga qaramay bir etakchi, boshqa yo‘nalishlar elementlari esa qo‘shimcha vosita funksiyasini bajarib, mazmun-mohiyatni chuqurlashtirishga, uslub qirralarini yorqinroq ko‘rsatishga xizmat qiladi. E. A‘zam va S. Vafu qissalari haqida shunday deyish mumkin. Har ikkala adib uslubi izchil tahliliylikka asoslangan, ularda realistik tasvir etakchi. Shu bilan birga, boshqa uslublarning ayrim unsurlari shu tasvirga singdirib yuboriladi. E.A‘zamning «Shoirning to‘yi”, “Chapaklar va chalpalar mamlakati” qissalarida realistik yo‘nalish lirizm va qisman romantik ruh bilan uyg‘unlashgan bo‘lsa, ”Suv yoqalab”, “Zabarjad”, “Jannat o‘zi qaydadir” qissalarida dramaga xos ichki kolliziya va xarakterlar dinamikasi qisman aks etgan. Salomat Vafoning 80-yillar oxirida yozgan «O‘zini izlayotgan ayol” qissasi ham, 2008 yilda chop etilgan “Ovoraning ko‘rgan-kechirganlari”(romanga nisbatan qissa janrining xususiyatlari yorqinroq) qissasi ham yagona realistik tasvir va ifoda asosida yaratilgan. Lekin bu hol mahdudlik emas, balki adibning tafakkur tarzi bo‘lib, ijod pafosiga, ijtimoiy-estetik mohiyatga xalal bermaydi. Bugungi yangicha adabiy-badiiy izlanishlar an‘anaviy va zamonaviy yo‘nalishning ikkalasiga ham xos bo‘lib, har ikkala yo‘nalishdagi asarlar mohiyat jihatdan “insonlar ma‘naviy ruhiy dunyosiga bedorlik, fidokorlik, kurashchanlik tuyg‘ularini olib kiradigan, lekin ko‘zga ko‘rinmas, faqat qalban his qilinib, aqlan idrok etiladigan ijodiy fikrlash mevalaridir” [14.:112].

XULOSA: Adabiyotshunosligimizda realistik uslub ustuvor bo‘lgan yo‘nalishning tajribali namoyandalari ijodida hayot haqiqatini va o‘zlikni anglash va tasvirlashda teran ijtimoiylik bilan yuksak badiiylik sintezining tobora kengayishi ko‘zga tashlansa (E.A‘zam, N.Norqobilov, Sh.Bo‘taev va boshqalarning qissalarida), modern yo‘nalishi vakillari asarlarida inson ruhiy-psixologik olamini, alohida shaxsni favqulodda fojea va botiniy iztiroblar fonida majoziy obrazlilik orqali kashf etish etakchilik qiladi. Shuni alohida ta‘kidlash kerakki, adiblarning bir yo‘nalishga, masalan modernizmga mansubligi ularning uslubidagi individual farqli jihatlarga monelik qilmaydi. Chunonchi, X.Do‘stmuhammad, M.M.Do‘st, G‘. Hotamov nasrida inson ruhiyati, qalb jumbog‘i ko‘proq muayyan voqea aspektida yoritilgan, N.Eshonqul, Sh.Hamro, U.Hamdani asarlarida ramzlar, g‘ayritabiyy obraz, detallar va favqulodda holatlar tasvirida tahlil etiladi. Bu xususiyatlar hozirgi qissalar uchun ham xarakterlidir. Demak, hozirgi adabiy jarayondagi uslubiy rang-baranglik fikr erkinligi va ijodkor individualligi hodisasining samarasi sifatida e‘tiborga molikdir. Zamonaviy (modern)uslubiy yo‘nalishi hozirgi qissachilikdan keng o‘rin olmoqda. Uning kurtaklari XX asr boshiga oid bo‘lsa ham istiqloq yillarida alohida hodisa sifatida shakllandi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Normatov U. Boltaboev H. Yangi nazariy tamoyillar(suhbat)// Jahon adabiyoti. 2008. Mart. B.158.
2. Sarimsoqov B, Ochilov E. Hozirgi o‘zbek she‘riyatining taraqqiyot tamoyillari//O‘zbek tili va adabiyoti.2005.№3.B.54
3. Yo‘ldoshev Q.Yoniq so‘z.Toshkent. Yangi asr avlodi. 2006.B.181-194.
4. Karimov N. XX asr adabiyoti manzaralari. Toshkent. O‘zbekiston.2008 B 37-256.
5. Normatov U. Boltaev H. Yangi nazariy tamoyillar(suhbat)/ Jahon adabiyoti.2008.№3.B.155.
6. Normatov U.Nasrimiz ufqlari. Toshkent. 1974.B.104.

7. Mamajonov S. Haqqoniylik va uslubiy rang-baranglik uchun//O‘zbek tili va adabiyoti.1979.№4.B.6.
8. Boltaboev H. Nasr va uslub.Toshkent: Fan.1992.B.12-16.
9. Normatov U. Boltaboev H. Yangi nazariy tamoyillar(suhbat)//Jahon adabiyoti.2008.№3.B.163.
10. Pirnazarova M. Hozirgi o‘zbek romanlarida uslubiy izlanishlar. Fil.fanl.nomz. diss.avtoreferati. T. 2006. B. 10.
11. Ulug‘bek Hamdam. Yangilanish ehtiyoji.Toshkent.Fan.2007.B.196.
12. G‘afurov I. Mangu latofat. Toshkent. Sharq. 2008.B.308.
13. Normatov U. Ijod sehri. –Toshkent: Sharq. 2007. - B.145.
14. Xudoyberganov N. Mehru muhabbat yo‘llarida.-Toshkent: Yangi asr avlodi.2001.B.112.

Saidjanova Zebo Komilovna

Ma'mun universiteti dotsenti, PhD

Matyokubova Gavhar

Ma'mun universiteti talabasi.

Саиджанова Зебо Комиловна

Доцент Университета Мамун,

доктор философии по филологическим наукам

Матёкубова Гавхар

Студент Университета Мамуна.

Saidjanova Zebo Komilovna

Associate Professor at Mamun University,

Doctor of Philosophy (PhD) in Philology

Matyokubova Gavhar

Student of Mamun University.

**BADIIY ASAR TAHLILIDA TA'LIMIY-DIDAKTIK O'YIN METODLARIDAN
FOYDALANISH
ИСПОЛЬЗОВАНИЕ УЧЕБНО-ДИДАКТИЧЕСКИХ ИГРОВЫХ МЕТОДОВ В
АНАЛИЗЕ ХУДОЖЕСТВЕННОГО ПРОИЗВЕДЕНИЯ
THE USE OF EDUCATIONAL AND DIDACTIC GAME METHODS IN THE ANALYSIS
OF LITERARY WORKS**



<http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.00000000>

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada maktabda adabiyot darslarida badiiy asar tahlilida ta'limiy-didaktik o'yin metodlaridan foydalanish bo'yicha uslubiy tavsiyalar beriladi.

Kalit so'zlar: ta'limiy o'yin, metod, texnologiya, interaktiv, uslub, tarqatma, ko'rgazma, didaktik o'yin, tahlil.

АННОТАЦИЯ

В данной статье представлены методические рекомендации по использованию образовательных и дидактических игровых методов в литературном анализе на уроках литературы в школах.

Ключевые слова: образовательная игра, метод, технология, интерактивный, стиль, раздаточный материал, выставка, дидактическая игра, анализ.

ANNOTATION

This article provides methodological recommendations for using educational didactic game methods in literary analysis in school literature lessons.

Keywords: educational game, method, technology, interactive, style, handout, exhibition, didactic game, analysis.

KIRISH

Hozirgi kunda ta'lim jarayonida interaktiv metodlar, innovatsion texnologiyalar, pedagogik va axborot texnologiyalarini o'quv jarayonida qo'llashga bo'lgan qiziqish, e'tibor kundan-kunga kuchayib bormoqda, bunday bo'lishining sabablaridan biri shu vaqtgacha an'anaviy ta'limda o'quvchi-talabalar faqat tayyor bilimlarni egallashga o'rgatilgan bo'lsa, zamonaviy texnologiyalar ularni egallayotgan bilimlarini o'zlari qidirib topishlari, mustaqil o'rganib, tahlil qilishlari, hatto xulosalarni ham o'zlari keltirib chiqarishlariga o'rgatadi [1].

METODLAR VA O'RGANILISH DARAJASI

Pedagogika va adabiyot ta'limi metodikasi sohasida ta'limiy-didaktik o'yin metodlaridan foydalanish masalasi XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab ilmiy tadqiqotlar markaziga aylangan. Xususan, umumiy pedagogik nazariyada o'yin metodining ta'limiy ahamiyati L.S.Vygotskiy, D.B.Elkonin, A.N.Leontev, J.Piaget kabi olimlarning tadqiqotlarida ilmiy asoslab berilgan. Ularning ishlarida o'yin shaxs rivoji, tafakkur faolligi va ijtimoiylashuvning muhim omili sifatida talqin qilinadi.

Didaktik o'yinlarning ta'lim jarayonidagi o'rni va metodik imkoniyatlari rus pedagog olimlari N.F.Talyzina, Y.K.Babanskiy, P.I.Pidkasistiy, G.K.Selevko asarlarida batafsil yoritilgan. Mazkur tadqiqotlarda o'yin metodlari bilimni mustahkamlash, mantiqiy fikrlashni rivojlantirish va o'quvchi faolligini oshirish vositasi sifatida baholanadi.

O'zbek pedagogikasida ta'limiy metodlar, jumladan, interfaol va didaktik o'yin metodlari masalasi R.Safarova, B.Xodjayev, N.Muslimov, U.Asqarov, Sh.Abdullayeva kabi olimlarning ilmiy izlanishlarida o'rganilgan. Ularning tadqiqotlarida didaktik o'yinlar o'quvchilarning mustaqil fikrlashi va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga xizmat qiluvchi samarali metod sifatida e'tirof etiladi. Adabiyot ta'limi metodikasi doirasida badiiy asar tahlili masalalari H.Yo'ldoshev, B.To'xliyev, A.Rahimjonov, Q.Yo'ldoshev, S.Karimov kabi olimlar tomonidan tadqiq etilgan. Ushbu ishlarda badiiy matnni tahlil qilishning bosqichlari, usullari va shakllari ilmiy asosda yoritilgan bo'lsa-da, ta'limiy-didaktik o'yin metodlarining badiiy asar tahliliga bevosita tatbiqi masalasi alohida, tizimli tadqiqot obyekti sifatida kam yoritilgan. Shu boisdan, badiiy asar tahlilida ta'limiy-didaktik o'yin metodlaridan foydalanish masalasini ilmiy-nazariy va metodik jihatdan tizimli o'rganish, ularning turlari va amaliy qo'llanish mexanizmlarini aniqlash bugungi adabiyot ta'limi oldida turgan dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi. Ushbu tadqiqotda ham shu masalaga atroflicha e'tibor qaratiladi va tadqiqot davomida kuzatish, induksiya, tahlil kabi tadqiqot usullaridan foydalaniladi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Pedagogik tajribalar shuni ko'rsatadiki, o'quvchilar berilgan yangi mavzu yuzasidan ma'ruza tinglaganda o'z eshitganlarining 5%ini; video, rasm, ko'rgazmalar ko'rganda 20%; muzokara orqali birga tahlil qilganda 40 %; mashq qilganda, yozib va gapirganda 50%; turli o'yinlar, loyiha usuli qo'llanganda hamda mustaqil tahlil etganda 75% ma'lumoti esida qolar ekan. Shuni inobatga olgan holda adabiyot darslarining didaktik o'yinlar asosida tashkil etilishi o'quvchida mavzuni yaxshi o'zlashtirishi va shu bilan birga uning bilim, ko'nikma va malakasini oshirishida muhim omil bo'ladi.

Shundan kelib chiqib, o'qituvchilar uchun quyidagi takliflarni keltirish mumkin:

- avvalo, o'quvchilarda didaktik o'yinlarda ishtirok etish ongini shakllantirish;
- didaktik o'yinli darslarni tashkil qilish vaqtini (har darsda bir xil usulni qo'llash taklif qilinmaydi) to'g'ri tanlay olish;
- didaktik o'yinning qoidalarini o'quvchilarga tushuntirish lozim bo'ladi.

Asosiysi, didaktik o'yinlar mavzu mazmun-mohiyatining o'quvchi xotirasida saqlanib qolishi bilan ahamiyatlidir.

Shu o'rinda adabiyot darslarida badiiy tahlilning pedagogik asoslari to'g'risida ham aytib o'tish lozim. Maktabda adabiyotni o'qitishdagi eng asosiy pedagogik tadbir badiiy asar tahlilidir.

Badiiy asarni qabul qiladigan, undan ta'sirlanadigan, tahlillay oladigan o'quvchini tarbiyalagan muallimgina bosh pedagogik maqsadiga erishgan hisoblanadi. Chunki dasturda o'rganish ko'zda tutilgan adabiy materiallarni shunchaki o'qib ketaverish bilan adabiyot o'qitish yuzaga kelmaydi. Zero hayot tajribasi juda kam, badiiy didi yetarli shakllanmagan o'quvchilar badiiy asarni mutlaqo teskari tushunishlari mumkin. Shu bois asar tahliliga katta e'tibor zarur. Busiz bolalarda ezgu ma'naviy sifatlar turg'un qaror topmaydi. Badiiy tahlil badiiy asardagi tuyg'u, hissiyot va fikrni o'quvchi his-tuyg'ulari hamda ongiga ko'chirish demakdir [2].

Adabiyotshunoslik ilmida badiiy tahlil ikki katta turga bo'linadi:

1. Ilmiy-filologik tahlil; 2. O'quv-didaktik tahlil.

O'quv-didaktik tahlil o'qituvchi va o'quvchilar hamkorligida amalga oshiriladi. O'quv-didaktik tahlilda amal qilinishi shart bo'lgan bir qator tamoyillar borki, ularga rioya etilmay turib, tahlilda kutilgan natijaga erishib bo'lmaydi. Bu tamoyillarning asosiylari quyidagilar:

1. Har bir tahlilning shaxsiy mulohaza ekanligi;
2. To'liq tahlilning bo'lishi mumkin emasligi;
3. Biror asar bo'yicha butun sinf yoki o'quvchilar guruhi bir xil fikrga kelishi shart emasligi;
4. Badiiy asarga yaxlit hodisa sifatida yondashish zarurligi;
5. Tahlilda asarning tur xususiyatlari hisobga olinishi zarurligi;
6. Asar bo'yicha bildirilgan har qanday fikr faqat asar matnidani keltirib chiqarilishi lozimligi.

O'qituvchi epik turdagi asarlar o'rganilayotganda, matnni tahlillash uchun savollar tuzib olishi shart. Ko'pincha adabiyot o'qituvchilari avvaldan savol tuzib olishmaydi. Oqibatda, o'quvchilar oldiga umumiy, taxminiy savollar qo'yiladi. O'qituvchi savol tuzishga qanchalik jiddiy yondashsa, bolalarning asarni o'rganishi ham shunchalik muvaffaqiyatli bo'ladi. O'quvchilarning javobi keyingi savolni keltirib chiqarsa, juda yaxshi bo'ladi. Adabiyot darslarida asar tahlili jarayonida o'yin usulini qo'llashning ahamiyati shundaki, bunda o'quvchilar erkin harakat qiladilar, o'zidagi xavotir darajasi pasayadi. Jumladan, asarni qahramonlar bo'yicha o'rganish 6-sinf dan boshlab yaxshi samara beradi. Negaki bu davrda o'smirlarda ma'naviyat masalalariga qiziqish keskin ortadi. 6-sinfda Gulxaniyning "Zarbulmasal" asari o'rganiladi. O'quvchilar matnni o'zlashtirgach, ular oldiga "Gulxaniy nima sababdan qushlar tasviridan foydalandi?" degan savol qo'yish mumkin. Yoki sinfni kichik guruhlariga bo'lib, alohida topshiriqlar berish orqali ham maqsadni amalga oshirish mumkin. Asardagi maqollar kartochkaga yozilgan bo'ladi. O'quvchilar ushbu maqollarni qaysi o'rinda ishlatilganini tushuntirib boradi. Bu "Maqollarni sharhlaymiz" o'yini bo'ladi. Bu o'yinni sinfda kichik guruhlariga bo'lingan holda ham tashkil qilsa bo'ladi. Ushbu o'yinda maqollar mazmuni uning qanday hayotiy vaziyatlarda qo'llanilishini idrok etish uchun real sharoit yaratiladi.

Badiiy asarni o'rganishning yana bir usuli muammoli tahlildir. O'quvchilar muammoni yechish jarayonida asar matniga tayanadi, unga estetik baho beradi. Adabiyot darslarida italiyalik ertakchi Janni Rodarining "uchtadan oxiri bor ertaklar turkumi" mavzusini o'tishda ushbu usuldan foydalanish mumkin. Bilasizki, ertaklarda afsonaviy, o'ylab topilgan voqealar tasvirlanadi. Biroq ular zamirida kishini ezgulikka, xayrli ishlarga undovchi, insonni ma'naviy jihatdan go'zallashtiradigan sehrli bir kuch mavjud. Kattalarning ham, kichiklarning ham ertaklarni birdek yaxshi ko'rishi shundan bo'lsa, ajab emas. O'qituvchi o'quvchiga ertakning uchinchi o'zi xohlagan yakunni hikoya qilish vazifasini "Eng yaxshi yakun" o'yini orqali berishi yangi qobiliyatlarni namoyon qilish imkoniyatini ham beradi. Bunda o'quvchilar oldiga hayotiy va estetik masala qo'yiladi va unga har bir o'quvchi o'zicha javob beradi. Unda ertak yakuni qancha xilma-xil bo'lsa, o'shancha quvonmoq kerak, chunki qoliqli fikrlash fikrsizlikdir. Albatta, bu o'yinlar faqat o'yin uchun tashkil etilmaydi. Ularning bosh vazifasi – o'quvchilarning o'qish jarayonlariga nisbatan ongli, faol munosabatlarini shakllantirish va rivojlantirishdan iborat. Ayni paytda, bu jarayonda o'quvchining nutqi tabiiy ravishda rivojlanib, boyib boradi. O'ziga ishonchi ortadi. Fikrlash doirasi kengayishiga yordam beradi.

Badiiy asarni o'rganishning eng keng tarqalgan usuli uni obrazlar bo'yicha o'rganishdir. Maktab davrida har bir bolada o'ziga xos axloqiy mezon shakllanadi. Ular har bir obrazning u yoki bu xarakterdagi ijtimoiy-axloqiy asosni bilishga intiladilar. Shu boisdan badiiy asarni

obrazlar bo'yicha o'rganishda "Chaqqon to'p" o'yini samarali natija berishi mumkin. Bunda o'qituvchi asardagi obrazlar tizimi haqida oldindan tayyorlab qo'ygan savollari bilan murojaat qilib, bir o'quvchiga to'p otadi. O'quvchi javobni aytib, to'pni yana o'qituvchiga tezkorlik bilan qaytaradi. Agar javobni bilmasa, savolni takrorlab, boshqa o'quvchiga aytadi. Shu tarzda mavzuni chuqurroq o'rganib olish uchun zamin yaratiladi.

Badiiy asardagi obrazlar tahlili jarayonida "Hayot daraxti" deb nomlangan o'yindan ham foydalanish tavsiya qilinadi. Bunda asar sujetida qaysi jarayon aks etgan bo'lsa, shu so'zlar orqali daraxtni bezaydi (bunda daraxt maxsus plakatga yoki doskaga chiziladi). Asardagi ijobiy qahramonlar gul yoki meva shaklida chizilishi mumkin. Salbiy qahramonlar esa qurigan yaproq, zararkunanda qush yoki hasharot tarzida berilishi mumkin bo'ladi. Bu har bir o'quvchining asardagi obraz mohiyatini qay darajada anglab yetganligi bilan baholanadi. Har bir o'quvchi o'z fantaziyasidan, xulosalaridan kelib chiqqan holda daraxtni bezaydi [3].

XULOSA

Umumiy qilib aytganda, didaktik o'yinlar – o'rganilayotgan obyekt, hodisa va jarayonlarni modellashtirish asosida o'quvchining bilishga bo'lgan qiziqishi va faollik darajasini rag'batlantiruvchi o'quv faoliyat turi sifatida mavzuni chuqur o'zlashtirishda samarali natija beradi. Yosh avlodning ma'naviyatini boyitishda, tarbiyalashda ham muhim ahamiyatga ega bo'lgan ta'lim metodi hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:


1. Ishmuhamedov R., Abduqodirov A., Pardaev A. Ta'limda innovatsion texnologiyalar (ta'lim muassasalari pedagog-o'qituvchilari uchun amaliy tavsiyalar). – T., 2008. –14-b.
2. To'xliyev B. Adabiyot o'qitish metodikasi. – T., "Yangi asr avlodi", 2007-2010.
3. Богданова О.Ю. и др. Методика преподавания литературы. – Москва: 2008.

Ataxanova Venera Radjapovna,
Urganch davlat universiteti dotsenti, PhD.

Атаханова Венера Раджаповна
доцент Ургенчского государственного университета,
доктор философии по филологическим наукам

Ataxanova Venera Radjapovna
Associate Professor at Urganch state University,
Doctor of Philosophy (PhD) in Philology.

**DOSTONLAR BADIYATINING MUMTOZ EPOSDAGI AN'ANALAR BILAN
O'ZARO ALOQASI
ВЗАИМОСВЯЗЬ ИСКУССТВА ИГРЫ НА ДОСТОНАХ С ТРАДИЦИЯМИ
КЛАССИЧЕСКОГО ЭПОСА
THE RELATIONSHIP OF THE ART OF DOSTONS WITH TRADITIONS IN THE
CLASSICAL EPOS**

 <http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.00000000>

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada o'zbek xalq dostonlarining badiiyatining shakllanishida va rivojlanishida mumtoz epos an'analari bilan uzviy aloqadorlik masalasi tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: doston, epos, badiiyat, qahramonlik, xalq og'zaki ijodi, poetika.

АННОТАЦИЯ

В данной статье анализируется вопрос неразрывной связи с классическими эпическими традициями в становлении и развитии искусства узбекского народного эпоса.

Ключевые слова: эпос, эпос, искусство, героизм, народное устное творчество, поэтика.

ABSTRACT

This article analyzes the inextricable connection with classical epic traditions in the formation and development of Uzbek folk epic art.

Key words: epic, epic poetry, art, heroism, oral folklore, poetics.

KIRISH

Folklor asarlari orasida dostonlar eng murakkab janr hisoblanadi. Uning maxsus baxshi tomonidan musiqa jo'rligida keng auditoriya oldida ijro etilishi asarning badiiy barkamol bo'lishini taqozo qiladi.

Epos xalq-millat tarixidagi eng muhim masalani o'zida mujassamlashtiradi. Uning paydo bo'lishi, albatta, o'z-o'zidan ro'yobga chiqavermaydi.

“Xalqda umumiy rag'bat uyg'otib, uning fantaziyasini junbushga keltiradigan shunday bir lahza yuzaga keladiki, u albatta xalq epik poeziyasida o'zining muayyan ifodasini topadi”. [1.:298]

Shu sababdan doston soʻzi (atamasi) taʼrif va maqtoʻv maʼnolariga ega. [2.:227] Epik qahramonni ulugʻlash, uning faoliyatini madh etish, gʻalabalarini taʼriflash, unga loyiq maʼshuqa sifatlarini tavsif qilish ijrochidan soʻz sanʼati sirlarini mukammal bilishni talab etadi.

Albatta, doston faqat madhu taʼrif-tavsiflardangina iborat emas. U badiiy asar sifatida ijtimoiy-siyosiy hayot, maishiy turmushni tasvirlaydi. SHu sababli dostonda taʼrif va madhiyadan tashqari xalqning dardu gʻami, obrazlarning shodligi bilan birga ichki iztiroblari, doʻstga muhabbati, gʻanimga boʻlgan nafrati oʻz ifodasini topadi.

METODLAR VA OʻRGANILISH DARAJASI

Ushbu keng koʻlamdagi nutqiy bayon ijrochidan yuksak badehagoʻylikni, suxandonlikni, tilning sehrli ohanglarini mahorat bilan qoʻllay bilishni taqozo qiladi. Natijada oʻz - oʻzidan badiiy nutq boʻyoqdorligini taʼminlovchi omillarga murojaat etish mahorati talab etiladi.

Agarda ertak oddiy kishilar tomonidan hikoya etilsa, doston professional baxshilar tomonidan ijro etiladi, kuylanadi. [3.: 25]

Shu sababli eposda baxshi oʻzining badiiy mahorati, ijro uslubi bilan bogʻliq iz qoldiradi. Biroq «Uning epik matnga qoʻshgan hissasi ijrochining hayotiy tajribasi va badiiy – estetik didiga bogʻliq». [4.:58]

Eposda koʻp asrlarga oid atributiv va stereotip formulalar borki, ular keyingi avlod baxshilari uchun anʼanaviy klisheʼlar boʻlib hisoblanadi.

Agarda ijrochi ana shu formulalarga loyiq darajada biror narsa qoʻsha olsagina oʻsha hissa yana keyingi baxshilar uchun stereotip tasvirga aylanib qoladi. [5.:218]

«Kitobi dadam Qoʻrqut» matnidagi anʼanaviy stereotip formulalar, atributiv ifodalar, tasvir vositalari masalasida ham oʻsha fikrni aytish mumkin.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Nasr tarkibida sajʼ, nazm tarkibida alliteratsiya koʻp uchraydi. Ayrim misralarda boʻgʻinlarning noteng ravishda kelishi turkiy arxaik eposdagi sheʼriyatga mos keladi, sintaktik parallelizmlarga koʻproq murojaat etiladi. [6.:6]

Mumtoz oʻgʻuz eposidagi ushbu xususiyatlar uning qadimgi turkiy epos anaʼanalariga juda yaqin ekanligini koʻrsatadi. Bizning kuzatishimizga qaraganda, uning sheʼriy parchalarida aruzning taʼsiri koʻrinmaydi.

«Turkiy xalqlar poeziyasida qofiya va alliteratsiya bir – biriga teskari proporsional boʻlib, qofiyaga eʼtibor berilgan sheʼriyatda alliteratsiyaning roli ikkinchi darajaga tushib qoladi». [7.:50]

Darhaqiqat, aruzda qofiyaga eʼtibor juda kuchli boʻlganidan qadimgi turkiy poeziyadagi alliteratsiya va sintaktik parallelizmning sheʼriyatdagi ishtirokini ancha chetga surib qoʻyadi.

«Kitobi dadam Qoʻrqut» asarida aruzning taʼsiri sezilmaydi. Xorazm dostonlarida esa bu holatning aksi kuzatiladi.

Xorazm dostonlarida sheʼriy parchalar qatʼiy boʻgʻin tartibi asosida tuzilgan boʻlib, asosan, murabbaʼ tarzida qofiyalashadi. Shuningdek, sheʼriy parchalar orasida muxammas, gʻazal kabi shakllar uchraydi.

Umuman olganda, bu xususiyatni turkman, ozarbayjon kabi oʻgʻuz guruhiga mansub xalqlar eposida toʻla kuzatish mumkin.

Demak, «Kitobi dadam Qoʻrqut»dagi matn juda qadimiy, arxaik epos qonun-qoidalariga ancha mos keladi. Xorazm dostonlari esa (shu jumladan, turkman eposi ham) keyingi asrlarda yozma adabiyot taʼsirida ancha mukammal sheʼriy shakllarga ega boʻlib, musiqiylik tamoyillariga muvofiq qayta ishlangan.

Bundan qatʼiy nazar, «Kitobi dadam Qoʻrqut» asaridagi epos qonuniyatlariga xos anʼanalarning katta koʻpchiligi Xorazm dostonlarida oʻz taʼsirini saqlab qolgan.

Bu holatlar asar leksikasida, epik bayon uslubida, badiiy tasvir vositalarida, ranglar simvolikasi va boshqa qator omillarda oʻzini namoyon qilib turadi.

«Kitobi dadam Qoʻrqut» matnidagi oʻgʻuz shevasiga oid koʻplab leksik birliklar hozirda Xorazm shevasida faol ishlatiladi. Buni quyidagi soʻzlar orqali koʻrish mumkin: oʻkcha-tovon; gʻoli-gilam; gizlamoq-yashirmoq; choʻrak-kulcha; doyi-togʻa; cholimli-oʻxshash; doʻl-urugʻ, shaxvat, tuxum; et-goʻsht; soʻlqim-gʻujum kabilar.

Bulardan tashqari mumtoz o'g'uz eposi tarkibidagi ko'plab frazeologik iboralar, uchiriq so'zlar, idiomalar ishlatilganki, ularning aksariyati hozirda ham mahalliy so'zlashuv nutqida qo'llaniladi.

Xorazm dostonlarining tili va badiiy xususiyatlari haqida talaygina ishlar amalga oshirilgan va dostonlardagi an'anaviy formulalar, stereotiplar, parallelizmlar, badiiy tasvir vositalari va ularning lokal xususiyatlari haqida S.Ro'zimboyev, O.Madayev, G.Eshchonova, I.Devanova, N.Sobirova, S.Soriyevlarning ishlarida ancha batafsil so'z yuritilgan. [8.:18] Biroq ushbu masalalar «Kitobi dadam Qo'rqt» asari bilan qiyosiy ravishda o'rganilmagan. Qoraqalpoq folklorshunosligida bu borada K.Polimbetovning nomzodlik ishida ayrim mulohazalar bildirilgan. [9.:22]

Shu narsa ko'zga yaqqol tashlanadiki, mumtoz o'g'uz eposida ishlatilgan epik bayon uslubi asosan og'zaki etib kelgan dostonlarda o'zini barqaror holda saqlab kelgan.

Ushbu masalalarni quyida alohida ko'rib o'tamiz. Baxshi nutqida namoyon bo'luvchi epik bayon juda ko'p omillarni o'z ichiga qamrab oladi. Biz bu erda ularning ayrimlarigagina to'xtalmoqchimiz.

1.Hoshiyaviy formulalar. Odatda hoshiyaviy formulalar doston boshlanmasi va tugallanmasida namoyon bo'ladi. «Kitobi dadam Qo'rqt»nig o'n ikki shoxobchasida ham o'ziga yarasha hoshiyaviy formulalar ishlatilgan. Masalan, «Dersaxon o'g'li Buqachxon» deb nomlangan birinchi shoxobcha shunday boshlanadi: «Kunlardan bir kun Komxon o'g'li xon Bayondur oyoqqa qalqdi. SHomdan keltirilgan soyaboni ko'kni, chodirlari er yuzini egalladi. Mingta ipak gilamlarni to'shadi. Xonlar xoni xon Bayondur yilda bir marta ziyofat berib, o'g'uz beklarini mehmonga taklif etar edi. [10.:14]

Ushbu boshlanmadan ko'rinadiki, tasvir qisqa va oddiy makon va zamon haqida batafsil ma'lumot berilmaydi. Xorazm dostonlarida bunday xususiyat «Go'ro'g'li» turkumi dostonlarida ko'zga tashlanadi: «Ana kunlardan bir kun Go'ro'g'li to'qson yoshidan oshib qarrilik sezilib, beldan quvvat, ko'zdan nur ketayotgani bilinib, o'ylab-o'ylab, ko'ngliga xafachilik keldi». [11.:433]

«Bir kuni», «Kunlardan bir kuni» tarzida voqeani boshlash har ikkala eposda ko'p uchraydi. Mumtoz o'g'uz eposining sakkizinchi shoxobchasi – «Bosotning Tepako'zni o'ldirishi»da voqea: «Magar, xonim, bir kun o'g'uz o'tirganda ustiga yog'iy keldi. Tun edi. Qo'rqib qochdi», [12.: 16-48] tarzida boshlanadi.

Shuningdek, «Kitobi dadam Qo'rqt»ning ayrim shoxobchalarida «Qadim zamonda» iborasi o'rnida muayyan tarixiy muddatlar bilan aloqador so'zlar ishlatiladi. Kitobning boshlanishi shunday beriladi: «Payg'ambar alayhissalom zamoniga yaqin, Bayot urugidan Qo'rqt ota degan er dunyoga keldi». Kitobning oltinchi shoxobchasi quyidagicha boshlanadi: «O'g'uz zamonida Qangli Xo'ja degan dono bir kishi yashab o'tdi. Uning Qon To'rali ismli bo'y etgan, pahlavon o'g'li bor edi.

«Go'ro'g'li» eposida bu ibora «Qadim ayyomda, o'tgan zamonda Rum shahrinda bir boy o'tgan ekan» shaklida beriladi. Har ikkala asarda boshlanma formulalarning berilishi ma'no jihatdan mos keladi. O'z navbatida mumtoz o'g'uz eposidagi formulalar o'z davri bilan bog'liq muayyan o'zgachalikka ega.

«Go'ro'g'li» eposida esa biror tarixiy sana yoki davr haqida so'z yuritilmasdan an'anaviy «Qadim zamonda» iborasi qo'llaniladi. Bu masalada ertaklarning ta'siri ham bo'lsa kerak. Biroq bu ibora «Go'ro'g'li» eposining o'n sakkiz shoxobchasidan ikkitasidagina ishlatilgan. Qolgan shoxobchalarda asosan «Kitobi dadam Qo'rqt»dagi kabi «Bir kuni» iborasi yoki to'g'ridan-to'g'ri voqea boshlanib ketaveradi.

Hoshiyaviy formulalarning final shakli har ikkala eposda ham ma'no va tuzilishi jihatidan asosan mos keladi.

Mumtoz eposning o'ninchi shoxobchasi quyidagicha yakunlanadi: «Ular oltin soyabonli chodirga kirdilar. Edilar, ichdilar, katta o'g'ilga ham bir kelin tushirdilar. Ikki og'a-ini bir-biriga kuyov jo'ra bo'ldi. Murod-maqsadiga etdilar».

«Bomsu Bayrak» shoxobchasi ham ushbu tugallanmaga yaqin iboralar orqali yakunlanadi: «Qirq kecha-kunduz to'y etdilar, yigitlar Bayrak bilan murod-maqsadiga etdilar». [13.: 432]

Odatda ertak va dostonlar nihoyasi asosan «murod va maqsadga etish» bilan yakunlanadi. «Qirq kecha-kunduz to'y» iborasi ham ko'p ishlatiladi. Ushbu iboralar «Qo'rqut ota» kitobigacha ham turkiy xalqlar eposi uchun asosiy faol an'analardan biri sifatida qo'llanilib kelinganligiga shubha qilmasa ham bo'ladi.

«Go'ro'g'li» eposining anchagina shoxobchalari ushbu taxlitdagi formulalar bilan nihoyalanadi: «Go'ro'g'li bir qancha odamlar, mol-dunyo, o'lja, parizodlar bilan Chandibel viloyatiga kirib keldi. Olib kelgan mol-dunyolarini yigitlari va beva-bechoralarga bo'lishtirib berdi – uch kecha-kunduz to'y – tomosha qilib, murodu maqsadlariga etdi». [14.: 101]

Albatta, bu an'anaviy formulalar har ikkala eposda hamisha ham qo'llanilavermaydi. Aksariyat hollarda voqea nihoyasiga etishi bilan asar yakunlanadi.

Bola baxshi repertuaridagi dostonlarda bu ibora juda kam ishlatilgan.

Mumtoz eposda esa ushbu formula ikki-uchta shoxobcha yakunida ko'zga tashlanadi, xolos. Umuman olganda, mazkur formula qahramonlik dostonlarida kam ishlatilgan holda ishqiy – romanik dostonlarda juda faol qo'llaniladiki, bu hodisa ertaklar ta'siriga aloqadordir.

Endi yana bir narsaga e'tiborni qaratish lozim bo'ladi. Ayrim dostonlarning final qismi biror elni bosib olish va u erda islom dinini o'rnatish bilan tamomlanadi. «Kitobi dadam Qo'rqut»ning «Salor Qozonning tutqun bo'lib, o'g'li O'roz tomonidan qutqarilishi» deb nomlangan o'n birinchi shoxobchasi quyidagicha yakuniga etadi: «Tezda g'ayridinlar ustiga ot qo'ydilar, kilich urdilar, qal'ani oldilar, butxonasini yiqib, o'rniga masjid qurdilar.

Ushbu ibora Xorazm dostonlarida ham oz bo'lsa-da, ko'zga tashlanib turadi. «Malikai Zavriyo» dostonida jang yakunidan keyin shunday tugallanma beriladi: «SHahri Zulomotg'a kirib, qirq kun to'yu-tomosha etib, butxonalarini yiqib, o'rniga masjid, madrasa bino qildilar». [15.: 294]

XULOSA

Fikrimizcha, o'zaro kurashlarning yakunlanishidagi bunday hodisani epos shakllangan ijtimoiy-siyosiy tuzum bilan bog'liq holda izohlamq zarur.

Chunki «Qahramonlik eposida din mistik dunyoqarash emas, balki milliy o'zini anglash mafkurasi va vatanparvarlik sifatida namoyon bo'ladi». [16.:69]

Turkiy xalqlar folkloridagi ko'plab dostonlarda bunday motivlarni uchratish mumkin. Faqat dinlararo nizolar emas, balki mazhablararo kurashlar ham dostonlardan keng o'rin olgan. Demak, bu holat «Ko'rqut ota» kitobigacha va undan keyin ham davom etgan.


Binobarin, mumtoz o'g'uz eposida qo'llanilgan hoshiyaviy formulalar o'z xarakteriga ko'ra turli ko'rinishlarga ega.

Xorazm dostonlarida bu borada an'anaviylik saqlangani holda ijtimoiy tuzum va ijrochilar dunyoqarashi bilan bog'liq muayyan o'zgarishlar ro'y bergan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Веселовский А.Н. Из лекций по истории эпоса. (Публикация В.М.Гацака).//Типология народного эпоса. - М.: Наука, 1975. -С.298.
2. Веселовский А.Н. Из лекций по истории эпоса. (Публикация В.М.Гацака).//Типология народного эпоса. - М.: Наука, 1975. -С.298.
2. Мирзаев Т. Достонлар.//Ўзбек халқ оғзаки поэтик ижоди, 227-бет.
3. Жирмунский В.М., Зарипов Х.Т. Узбекский народный героический эпос. -С.25.
4. Сат С.М. Текст «Учителя» и текст «ученика».//Фольклор.Поэтика и традиция,-М.: Наука, 1982, С.58.
5. Кыдырбаева Р.З. Генезис эпоса «Манас», Фрунзе, «Илим», 1980, С.218.
6. Жирмунский В.М. Тюркский героический эпос, С.616-618.
7. Хамраев М.Қ. Основы тюркского стихосложения, Алма-Ата, Изд.АН Казахстана, 1963 С.50.
8. Рўзимбоев С. Хоразм достонлари,-Т.: Фан, 1985. -В. 96.
9. Палымбетов К.С. «Книга деда Коркута» и каракалпакский фольклор, АКД, Нукус, 1997. - С.22.

10. Книга моего деда Коркута. -С.14.
11. Гўрўғли, 433-бет.
12. Книга моего деда Коркута, С.16-48
- 13 Гўрўғли, 432-бет.
14. Книга моего деда Коркута, С.101.
15. Ошиқнома, I китоб, 294-бет.
16. Юдин Ю.И. Героические былины, - М.: Наука, 1975, С.69.

Radjapova Feruza AbdullaevnaUrgench state pedagogical institute, Dean of Foreign Philology Faculty
radjapovaferuza900@gmail.com**NATIONAL AND CULTURAL SYMBOLISM OF PROFESSION-RELATED
CLOTHING TERMINOLOGY IN ENGLISH AND UZBEK** <http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.00000000>**ANNOTATION**

This article explores the national and cultural symbolism embedded in profession-related clothing terminology in English and Uzbek from a linguocultural perspective. Clothing terms associated with professional activity are examined as cultural signs reflecting historical experience, social structure, professional identity, and collective values. Through comparative semantic and linguocultural analysis, the study identifies both universal and culture-specific features in the symbolic interpretation of occupational clothing. The findings demonstrate that while English professional clothing terminology tends to emphasize institutional identity and functionality, Uzbek terminology preserves strong ethnic, traditional, and moral symbolism. The research contributes to comparative linguoculturology and cross-cultural semantics.

Keywords: linguoculturology, professional clothing, cultural symbolism, occupational terminology, comparative analysis, research, terminology, traditional

ANNOTATSIA

Ushbu maqola ingliz va o'zbek tillaridagi kasb-hunarga oid kiyim-kechak terminologiyasida mujassam bo'lgan milliy va madaniy ramziylikni lingvokulturologik nuqtayi nazardan o'rganadi. Kasbiy faoliyat bilan bog'liq kiyim nomlari tarixiy tajriba, ijtimoiy tuzilma, kasbiy identifikatsiya hamda jamoaviy qadriyatlarni aks ettiruvchi madaniy belgilar sifatida tahlil qilinadi. Qiyosiy semantik va lingvokulturologik tahlil orqali kasbiy kiyimlarning ramziy talqinida umumiy (universal) va madaniyatga xos jihatlar aniqlanadi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, ingliz tilidagi kasbiy kiyim terminologiyasi asosan institutsional identifikatsiya va funktsionallikni ifodalasa, o'zbek tilidagi terminologiya kuchli etnik, an'anaviy va axloqiy ramziylikni saqlab qolgan. Tadqiqot qiyosiy lingvokulturologiya va madaniyatlararo semantika sohalariga ilmiy hissa qo'shadi.

Kalit so'zlar: lingvokulturologiya, kasbiy kiyim-kechak, madaniy ramziylik, kasbiy terminologiya, qiyosiy tahlil, tadqiqot, terminologiya, an'anaviy.

In contemporary linguistics, the interrelation between language and culture has become a central focus of interdisciplinary research. In modern linguistics, the study of language in close connection with culture has become one of the most significant research directions. Linguoculturology investigates how cultural values, social norms, and historical experiences are encoded and transmitted through language. Lexical units, particularly those connected with material culture, serve as important carriers of cultural meaning.

Clothing-related vocabulary occupies a special position in this respect, as clothing functions not only as a means of physical protection but also as a marker of social status, profession, identity, and cultural affiliation. Profession-related clothing terminology reflects how societies conceptualize labor, authority, responsibility, and professional roles. A comparative study of such terminology in English and Uzbek allows for a deeper understanding of national worldviews and cultural models of professional identity.

Linguoculturology focuses on how cultural meanings, values, and social experiences are encoded in linguistic units. Among such units, clothing-related vocabulary occupies a special place, as clothing serves as a visible marker of social status, profession, and cultural identity.

Profession-related clothing terms reflect not only practical needs but also national mentality, historical development, and cultural symbolism. A comparative analysis of such terms in Uzbek and English allows us to reveal both universal and culture-specific features of professional identity representation.

Globalization and modernization have led to the standardization of professional attire across cultures. As a result, traditional profession-related clothing and their symbolic meanings are gradually disappearing from everyday use. However, linguistic representations of these items remain preserved in language, literature, and cultural memory.

In the context of globalization, traditional professional clothing is gradually being replaced by standardized uniforms. This process leads to the loss of culturally specific meanings embedded in clothing terminology. Therefore, comparative linguocultural research of professional clothing terms in different languages is highly relevant for preserving national cultural heritage and understanding intercultural differences.

Comparative linguocultural analysis of professional clothing terminology is therefore relevant for:

- preserving national cultural heritage,
- identifying culture-specific semantic components,
- improving intercultural communication and translation practices.

Despite growing interest in linguoculturology, profession-related clothing terminology in English and Uzbek has not been sufficiently studied from a comparative symbolic perspective, which determines the relevance of this research.

The main objectives of the study are:

1. to identify profession-related clothing terms in English and Uzbek;
2. to analyze their national and cultural symbolic meanings;
3. to compare similarities and differences in linguistic conceptualization of professional clothing.

The study employs the following methods:

- semantic analysis to identify core and connotative meanings;
- linguocultural analysis to reveal cultural symbolism;
- comparative and contrastive analysis;
- etymological interpretation where necessary.

The research material includes lexical units related to agricultural, military, medical, academic, religious, and craft professions.

In linguoculturology, clothing is viewed as a semiotic system in which material objects function as cultural signs. Professional clothing, in particular, conveys information about social roles, hierarchy, authority, and ethical responsibility.

In both English and Uzbek cultures, professional clothing often symbolizes trust and competence. For example, the **white coat** in English-speaking cultures represents medical professionalism, hygiene, and responsibility. Similarly, the Uzbek **xalat** carries meanings of purity, discipline, and professional ethics in medical and scientific contexts.

Uzbek profession-related clothing terminology is deeply rooted in traditional culture and historical lifestyle. Many terms reflect ethnic identity, moral values, and social respect.

For example:

- **Chapan** symbolizes wisdom, honor, and social authority and is often associated with respected professionals, elders, and teachers.
- **Do'ppi** functions as a marker of regional, social, and sometimes professional identity, carrying strong cultural symbolism.
- **Chekmen** is associated with shepherds and rural professions, symbolizing endurance, simplicity, and closeness to nature.
- **Zirh** historically represents bravery, military honor, and protection.

These terms go beyond their literal meanings and serve as symbols of collective cultural memory.

In English, profession-related clothing terminology primarily reflects institutional affiliation, formality, and professional standardization.

Examples include:

- **Uniform**, symbolizing discipline, hierarchy, and collective responsibility.
- **Suit**, representing professionalism, authority, and social success in business culture.
- **Gown** and **robe**, associated with academic, legal, and judicial authority, tradition, and knowledge.
- **Helmet** and **armor**, symbolizing protection and military strength.

Compared to Uzbek culture, English professional clothing symbolism is less ethnically marked and more closely connected to institutional structures.

The comparative analysis reveals both universal and culture-specific tendencies.

Similarities:

- In both languages, professional clothing symbolizes responsibility and social trust.
- Medical and military clothing carry similar protective and ethical meanings.

Differences:

- Uzbek terminology emphasizes tradition, ethnic identity, and moral symbolism.
 - English terminology focuses on functionality, institutional roles, and formal professionalism.
- For instance, Uzbek **chapan** carries symbolic respect and cultural continuity, whereas English **jacket** or **coat** is primarily functional with limited symbolic value. Uzbek **do'ppi** contrasts with English **hat**, which lacks deep cultural symbolism.

The findings confirm that profession-related clothing terminology functions as a linguocultural code through which societies conceptualize professional identity. While globalization promotes uniformity in material culture, language preserves culturally specific meanings and symbolic interpretations.

These differences are particularly important in translation studies, intercultural communication, and language teaching, where misunderstanding of cultural symbolism may lead to semantic loss.

Conclusion

The study demonstrates that profession-related clothing names in English and Uzbek are not merely nominative lexical units but culturally marked symbols reflecting national values, historical experience, and social norms. Uzbek terminology retains strong traditional and ethnic symbolism, whereas English terminology emphasizes institutional identity and functional professionalism.

The results highlight the importance of linguocultural analysis in comparative linguistics and contribute to the study of cultural semantics and professional discourse.

References

1. Maslova, V. A. (2001). *Linguoculturology*. Moscow: Academia.
2. Telia, V. N. (1996). *Russian Phraseology: Semantic, Pragmatic and Linguocultural Aspects*. Moscow.
3. Hall, E. T. (1976). *Beyond Culture*. New York: Anchor Books.
4. Crystal, D. (2010). *The Cambridge Encyclopedia of the English Language*. Cambridge: Cambridge University Press.
5. Rahmatullayev, Sh. (2006). *Explanatory Dictionary of the Uzbek Language*. Tashkent.

Ro'zmetova Moxfuza Komuljanovna

UrDPI O'zbek tili va adabiyoti kafedrasi o'qituvchisi

Email: komuljanovnamoxfuza@gmail.com

ISTIQLOL DAVRI SHE'RIYATIDA MAHMUD TOIR IJODINING O'RNI



<http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.00000000>

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada istiqlol davri she'riyatida O'zbekiston xalq shoiri Mahmud Toir ijodi xususida so'z yuritilib, ijodkorning o'ziga xos uslubiy yo'nalishi, zamonaviy she'riyatda tutgan o'rni haqida mulohaza yuritiladi.

Kalit so'zlar: ijodiy topilma, xalq iboralari, uslubiy yangilik, misra, aytishuv

Rozmetova Moxfuza Komuljanovna

Lecturer, Department of Uzbek Language and Literature, UrDPI

Email: komuljanovnamoxfuza@gmail.com

THE PLACE OF MAHMUD TOIR'S WORK IN THE POETRY OF THE INDEPENDENCE ERA

ABSTRACT

This article discusses the work of Mahmud Toir, a national poet of Uzbekistan, in the poetry of the Independence era. It reflects on the poet's unique stylistic direction and his place in contemporary poetry.

Keywords: creative innovation, folk expressions, stylistic novelty, verse, expression

Розметова Мохфуза Комулжановна

Преподаватель кафедры узбекского языка и литературы, УрДПИ

Email: komuljanovnamoxfuza@gmail.com

МЕСТО ТВОРЧЕСТВА МАХМУДА ТОИРА В ПОЭЗИИ ПЕРИОДА НЕЗАВИСИМОСТИ

АННОТАЦИЯ

В данной статье рассматривается творчество Махмуда Тоира, народного поэта Узбекистана, в поэзии периода независимости. Делается акцент на уникальном стилистическом направлении поэта и его месте в современной поэзии.

Ключевые слова: творческие находки, народные выражения, стилистические новшества, стих, выражение

Istiqlol barcha sohalarga jiddiy o'zgarishlarni olib kelgani kabi o'zbekadabiyotida ham o'zgacha yangiliklarni olib kirdi. Xalq ruhida milliy Vatanparvarlik g'oyasini singdirish, o'zlikni anglash kabi xalqona urf-odatlar bu davr adabiyotida, ayniqsa, she'riyatida yaqqol ko'zga tashlandi.

Zamonaviy o‘zbek she‘riyati ma‘naviy va salohiyati jihatidan sezilarli darajada o‘z sdi. Zamonaviy adabiyotimizda lirika janrini eng oliy namunalari bo‘y ko‘rsatdi. She‘riyatning eng asosiy vazifasi milliy ruhiyatni tarbiyalash, milliy odob-axloq qoidalarini o‘rganishdan iborat bo‘ldi. Bir so‘z bilan aytganda, ijodkorlarga xos ruhiylik an‘analarini shakllantirdi.

Mustaqillik davri o‘zbek adabiyoti aynan keltirish mumkin bo‘lgan xronologik bir vaqtni o‘z ichiga oladigan emas, balki alohida ahamiyat kasb etadigan o‘ziga xos yangi g‘oyalar, zamonaviy janrlar yuzaga kelgan davrdir. Istiqloq tufayli ma‘naviy qadriyatlarga, madaniyatga, jumladan, so‘z san‘atiga nisbatan munosabat tubdan o‘zgardi. Yangi davr nafaqat adabiyotimiz tarixiga, balki zamonaviy adabiy- badiiy jarayonga ham yangicha g‘oyaviy – estetik mezon bilan yondashishni taqozo qiladi.

Mustaqillik davri o‘zbek she‘riyatida yangi va ilg‘or yo‘nalishlarning yuzaga kelishi, milliy qadriyatlar va istiqloq g‘oyalarini aks ettirishda muhim rol o‘ynadi. Ushbu davrda adabiyot, ayniqsa she‘riyat, xalqning ozodlik, milliy tiklanish va erkinlik yo‘lida olib borayotgan kurashini yuksak badiiylikda ifodaladi. O‘zbek she‘riyatida o‘ziga xos xalqchil, mazmundor ijod namunalari, betakror poetik ifodalar yaratish san‘ati bilan e‘tirof etiladigan O‘zbekiston xalq shoiri Mahmud Toir o‘z she‘rlari bilan kitobxonlar qalbidan chuqur joy olgan ijodkordir. Mahmud Toir bolalik yillaridan boshlab she‘riyatga oshno bo‘lgan. Mahmud Toir 1952-yilning 31-avgustida Toshkent viloyatining Parkent tumani Parkent qishlog‘ida tavallud topgan. 1959-yil Nizomiy nomidagi o‘rta maktabga o‘qishga kirib, uni 1969-yili tamomlaydi. Huddi shu yili Toshkent davlat universiteti filologiya fakultetining kechki bo‘limiga o‘qishga kiradi. Ayni paytda talabalar shaharchasidagi qurilish tashkilotida duradgor bo‘lib ishlaydi. Shoirning birinchi she‘ri o‘rta maktabning 7-sinfida o‘qib yurgan paytida “Tannozi kelur” nomi bilan “Sur‘at” gazetasida nashr etilgan. Shoir ijodida erk tuyg‘usi sarbaland ekanligi ilk she‘riy to‘plamining aynan 1991-yil mustaqillik ostonasida chop etilgani misolida yaqqol namoyon bo‘ladi. Ushbu she‘riy to‘plam “Ayt endi yuragim” deya nomlanib unda ko‘ngilga yaqin, shoir xalqchilikka yo‘g‘irilgan bir qator ijod namunalari joy olgan. Keyinchalik shoirning “Biz nechun uchrashdik”, “Muhabbat shevasi”, “Oqib ketgan armonlar”, “Haqni tanib” kabi bir qator to‘plam va saylanmalari elimiz ma‘naviy merosiga o‘chmas xazina bo‘lib qo‘shildi. Shoirning “Yangi she‘rlar” nomli she‘riy to‘plamidan joy olgan she‘rlari, ayniqsa, odamni o‘ziga maftun etmasdan, yuragida vatanga, ota-onaga, suyukli elga, zahmatkash xalqqa nisbatan muhabbat tuyg‘ularining jo‘sh urishiga sababchi bo‘ladi. Kechki bo‘limda o‘qigani bois, 1971-1973-yillarda harbiy xizmatda bo‘ladi. 1973-yili xizmatdan qaytib o‘qishni davom ettiradi. Sobiq “Yosh gvardiya” nashriyatida musahhih va musahhihlar bo‘limi boshlig‘i bo‘lib ishlaydi. 1977-yili universitetni tugatib, Respublika radiosining bolalar va o‘smirlar uchun eshittirishlar bosh tahririyatida mehnat faoliyatini davom ettiradi. 1984-yilda “Parkent tongi” gazetasiga muharrir etib tayinlanadi. 1999-yildan e‘tiboran O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Toshkent viloyat bo‘limi rahbari lavozimida faoliyat olib bormoqda. Mahmud Toir she‘rlari Respublikamizning ko‘plab taniqli xonandalari ijrosida kuylanib kelinmoqda. Mahmud Toir ijodi va mehnat faoliyati munosib taqdirlandi va adib 2001-yilda “Mehnat shuhrati” ordeniga sazovor bo‘ldi. 2005-yilda shoirga “O‘zbekiston xalq shoiri” unvoni berildi.

Mahmud Toir ijodi nafaqat badiiy jihatdan, balki ma‘naviy va tarbiyaviy nuqtai nazardan ham ahamiyatli bo‘lib, o‘zbek adabiyotining yangi bosqichida o‘z o‘rnini topdi. Mahmud Toirning she‘rlari orqali istiqloq davrining umumiy ruhiyatini, milliy qadriyatlarning tiklanishi, Vatan va ona yurtga bo‘lgan mehrni ifodalashda o‘ziga xos uslub yaratildi. Uning she‘riyatidagi asosiy mavzular — Vatan, milliy o‘zlik, inson qalbining nozik kechinmalari va mustaqillikning falsafiy tasviri — o‘zbek she‘riyatining yangi istiqbollari bilan bog‘liq. Mahmud Toirning istiqloq mavzusidagi she‘rlari, shuningdek, insonning mustaqillikka bo‘lgan cheksiz istagi va uning amalga oshirishdagi qarorlarining chuqur psixologik tasvirini yaratadi. Shoirning istiqloq mavzusini ta‘riflash uslubi Mahmud Toir istiqloq mavzusini ta‘riflashda tasviriy va ramziy vositalardan keng foydalanadi. U o‘z asarlarida milliy qadriyatlar, tarixiy obrazlar va xalqning ma‘naviy yuksalishiga oid ko‘plab ramzlarni ishlatadi. Mahmud Toir ona yurtning ta‘rifi orqali millatning o‘ziga xosligini, uning tarixini, madaniyatini va adabiyotini tasvirlab, istiqloqning ma‘naviy yuksalishidagi rolini

ta'kidlaydi. Bu tasvirlar orqali shoirdan xalqni milliy qadriyatlar, tarix va madaniyatni saqlashga chaqiruvchi kuchli bir xabar keladi.

Mahmud Toirning she'riyatida milliy o'zlikni qayta tiklashga qaratilgan g'oyalar, ayniqsa, yangi avlodning mustaqil fikrlashini shakllantirishga xizmat qiladi. Shoirning istiqlol g'oyasini ifodalovchi she'rlari o'zbek xalqining tarixiy yuksalishini, uning zamonaviy davrda o'z o'rnini topishini muhim masala sifatida ko'rsatadi. Istiqlol davrida Mahmud Toir she'riyatining mavzu doirasi kengayadi, yangi g'oyalar va zamonaviy tushunchalar paydo bo'ladi. Shu tarzda, Mahmud Toir she'riyatidagi istiqlol mavzusi bir vaqtning o'zida yangi davr shoirlarini ilhomlantiruvchi va xalqni ruhiy ma'noda yuksaltiruvchi kuchga ega bo'ladi. Bu davrda Ona Vatan haqida ham talay she'rlar bitildi. Quruq madh va balandparvoz xitoblar bilan to'lgan chuchmal she'rlar qatorida Vatan hissini chindanda o'z bag'riga jo qilgan misralar ham ijod qilindi.[Hamdamov U. 2013. – B.403].

Mahmud Toir, shuningdek, she'riyatida istiqlol g'oyasini tarannum etishda xalq og'zaki ijodini, uning qadimiy an'analari va badiiy vositalaridan keng foydalanadi. Shu orqali, u istiqlolni millatning boy madaniy merosi va tarixiy tajribasining jonlanishi sifatida ifodalaydi. She'rlari orqali xalqning ulug'vor kelajagi uchun yangi umidlar uyg'otadi va uni bugungi jamiyatning ma'naviy yuksalishiga xizmat qiluvchi kuch sifatida taqdim etadi.

Mahmud Toir o'z asarlarida, istiqlol g'oyasini xalqning madaniyati, uning mehnati, xalqaro aloqalari bilan bog'laydi, bu esa uning she'riyatini yanada chuqurroq, har tomonlama tahlil qilishni talab etadi. Shoirning istiqlol g'oyasini tasvirlash uslubi, uning she'rlarida ishlatilgan ramzlar, obrazlar va mavzular orqali juda kuchli bo'ladi. Mahmud Toir nafaqat she'rlarida "mustaqillik" so'zini ishlatadi, balki bu g'oyani tasvirlashda o'zining badiiy va tilga xos uslubini yaratadi. Shoirning istiqlol mavzusidagi she'rlari, o'zining original tasviriy uslubi orqali ham e'tiborga loyiqdir.

Mahmud Toirning she'riyatidagi istiqlol g'oyasi xalqning yangi davrga qadam qo'yishi, uning kelajagi uchun mas'uliyatni his qilishi va ma'naviy erkinlikka erishishdagi kurashining badiiy ifodasidir. Bu mavzu uning ijodida muhim o'rin tutgan, va u o'zining she'riy tasvirlarida millatning istiqlolga bo'lgan ehtiyoji va bu ehtiyojning amalga oshish yo'lidagi muhim jihatlarni chuqur tushunishga intiladi. Mahmud Toir istiqlolni, bir tomondan, millatning kelajagini qurish, ikkinchidan, uning o'zligini, tarixini saqlash va tiklash sifatida ifodalaydi:

Senga yetmaganlar tuproqda gullar,
Cho'lpon, Qodiriydek shahid bulbullar,
Qafasi qarsillab qiynoqda gullar,
Kishanda qaqshagan qulmiding, hurriyat!

Mahmud Toir o'z she'rlarida istiqlolning ma'naviy jihatlarni ham chuqur tahlil qiladi. Bu tasvirlar, o'z navbatida, shoirning istiqlol g'oyasini chuqur tushunishini va uni she'riyatida mukammal tarzda ifodalashini ko'rsatadi. Mahmud Toirning istiqlol mavzusidagi she'rlari, xalqni yangi davrga tayyorlash, uni mustaqil fikrlashga, yangi g'oyalarga ochiq bo'lishga chaqirishga xizmat qiladi. U, o'z she'rlarida millatni o'zining tarixiy ildizlariga, qadriyatlariga va madaniyatiga bo'lgan muhabbatini saqlashga, lekin shu bilan birga, yangi davrda yangilanishni kutishga undaydi. Shoir, istiqlolni faqat mustaqillik sifatida emas, balki millatning ma'naviy erkinligini, uning fikrlash va qaror qabul qilishdagi erkinligini ham anglash deb ta'riflaydi.

Mahmud Toirning she'riyatida istiqlol, millatni birlashtiruvchi kuch sifatida, uning birligini, uyg'unligini ta'minlashga xizmat qiladi. Vatan kelajagini o'z kelajagi deb bilib, Tangridan u uchun faqat yaxshilik tilab, yorug' kunlar bilan ta'minlashni o'z zimmasiga olish uchun ishonch so'raydi.

Tumorlar tiladim senga Tangridan,
Endi qayg'u ko'rma quvongin Vatan.
Yuzing yorug' chiqdi hurlik jangidan,
Faqat bizga ishon, ishongin Vatan!

Shoirning she'rlari o'zining g'oyaviy teranligi, badiiy ifoda va tasviriy vositalari bilan ajralib turadi. Mahmud Toir istiqlol davrining so'z san'ati sohasida chuqur ta'sir ko'rsatgan shaxs bo'lib,

uning asarlari nafaqat shu davrda, balki keyingi yillarda ham adabiyotimizda o'zgacha ahamiyat kasb etadi.

XX asr O'zbek xalqining boy madaniyati va badiiy tafakkuri tarixida alohida o'ziga xos bosqich sanaladi. Ushbu davrda o'zbek adabiyoti taraqqiyot yo'lida realistik tasvir tamoyili yetakchilik qiladi, ayniqsa, badiiy adabiyot ijtimoiy hayotga, insonlar dardiga yaqinlashdi, qalamga olingan mavzular mavjud umuminsoniy muammolar bilan bog'landi.

Bugungi istiqlol davri she'riyatida o'ziga xos yo'nalishga ega shoir Mahmud Toir ijodining o'rni alohida ahamiyatga ega. Shoirning bugungi kungacha nashr etilgan to'plamlaridagi she'rlari hamda dostonlari adabiyot ixlosmandlari tomonidan iliq kutib olinib, xalqimiz dilidan joy egallagan. Chunki shoir ijodida mustaqillik, erk nafasi ufurib turadi, inson qalbi va butun tabiat uyg'unlikda aks etadi.

Shoirning "Yangi she'rlar" nomli she'riy to'plamidan joy olgan she'rlari, ayniqsa, odamni o'ziga maftun etmasdan, yuragida vatanga, ota-onaga, suyukli elga, zahmatkash xalqqa nisbatan muhabbat tuyg'ularining jo'sh urishiga sababchi bo'ladi. Ushbu to'plamdan joy olgan "O'zbekiston" she'rida ham insoniy hislar tug'yoning erk so'zi ila yo'g'irilganini ko'ramiz.

Olamga oro berar ozod elning safosi,
Tonglaring tarovati, tinchligimiz qiyosi,
Sen umrimiz ziyosi, sen baxtimiz Xumosi,
Qadimdan so'z ochsalar, qarorim O'zbekiston,
Toppinganim tumorim, tupro'g'im O'zbekiston.

Ona yurtimiz O'zbekistonni el-yurtning baxt ramzi hisoblanmish Xumo qushiga qiyoslab, tinch, osuda otgan tongni ham ozod Vatan timsoli sifatida gavdalantiradi. Yana bir jabhada O'zbekistonni kunduzni yoritgan oftob-u, tunni munavvar etgan mohtobga qiyoslaydi.

Shoir haqiqatan ham Filologiya fanlari doktori, professor Qozoqboy Yo'ldoshev ta'kidlaganlaridek, "Yaratgan har bir insonga har xil iste'dod beradi. Mahmud Toirga shoirlikni berib, yana boshqa shoirlardan she'rlari hikmatlilikka yo'g'irilganligi bilan ajralib turuvchi iqtidor ato etgandir". Ijodkorning istiqlol va ona vatan mavzusidagi "Vatan", "Vatan diydori", "Vatan uchun yashaylik", "Vatanni aslida vatan qilganlar", "Rayhonlar islarin bulog' Vatan" she'rilarida sitiqlol madh etilib, ona zamin tasviri o'zgacha yo'sinda ifoda etilgan.

Mahmud Toir "Bizga ishongan, vatan" nomli she'rida Vatan kelajagi haqida qayg'urib, endi Vatandan endi kelajak avlodga ishonch berishga chorlaydi. Tarixning beayov jang-u jadallaridan, beshavqat davrlar suronidan omon chiqqani bilan Ona diyorni qutlaydi.

Tumorlar tiladim senga Tangridan,
Endi qayg'u ko'rma, quvongin, Vatan.
Yuzing yorug' chiqdi hurlik jangidan,
Faqat bizga ishon, ishongin, Vatan.

She'rida samimiyat shunchalik ufurib turadiki, go'yo vatan quchoqqa sig'sa, quchadi shoir.

Quchog'imga sig'sang, qucholsam qani,
Baxt bo'lib boshingda uchosam qani,
Bizga ishonsang bas, asraymiz sani,
Faqat bizga ishon, ishongin Vatan.

Xalqchilik va mavzular rangbarangligi shoir ijodining o'ziga xos uslubidir. Bir she'rida vatan madhi kuylansa yana bir she'rida ota-ona mehri, boshqasida esa chin insoniy tuyg'ular tarannum etiladi. lekin barcha she'rlarining asosiy g'oyasi kelajagimiz egalari- yoshlarning yetuk inson bo'lib voyaga yetishiga xizmat qiladi.

Qad qalqisa yigitning tiklamoq imkonidir,
Or bilan yashaganning oriyat posbondir.
El o'g'loni azaldan jamiyatning jonidir,
Tonglarida tinchlikning sururi bor Vatan bu,
Mardlarida millatning g'ururi bor Vatan bu.


Shoir ijodidagi misralar shunchalik o'zgacha uslubiy yangilik va hissiy xalqchilik bilan dunyoga kelganki, boshqa ijodkorlarda uning nafasini uchratmaysiz. Uning nazmidagi ijodiy topilmalar istiqloq davri adabiyotida o'zining alohida ahamiyatiga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Hamdamov U. She'r borliq va yo'qlik orasi. Toshkent . ADIB nashriyoti. 2013. – B.403.
2. Bahodir Karim. "Mahmud shoir so'zining jarangi" Sharq yulduzi. 2017.
3. Bobobekova Gulnoza. Lirik kechinma va poetik obraz munosabati. Sharq yulduzi. 2014.
4. Mahmud Toir. Saylanma. Toshkent. O'qituvchi. 2002
5. Mahmud Toir. Yangi she'rlar. Toshkent. O'zbekiston. 2018.

Raufjon Mahmudov
filologiya fanlari doktori, dotsent

OGAHIY TARIXIY ASARLARIDA QUR'ONIY LAFZLAR

 <http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.00000000>

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada Ogahiy tarixiy asarlarida uchraydigan Qur'oni Karim bilan bog'liq ayrim so'zlarning tahlili keltirilgan. Qur'oni so'zlarning o'ziga xos aniqlash mezonlari ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: diniy termin, o'zlashma, etimologiya, tarixiy qatlam, lug'at boyligi, Qur'oni Karim.

АННОТАЦИЯ

В данной статье представлен анализ некоторых слов, связанных с Корана, встречающихся в исторических трудах Агахи. Были разработаны специальные критерии идентификации слов из Корана.

Ключевые слова: религиозный термин, заимствования, этимология, исторический пласт, словарный запас, Коран.

ANNOTATION

This article presents an analysis of some words related to the Qur'an found in the historical writings of Agahi. Special criteria for identifying words from the Quran have been developed.

Key words: religious term, borrowings, etymology, historical layer, vocabulary, Quran.

Qur'oniylafzlar dunyo tilshunosligida eng ko'p o'rganilgan va o'rganilayotgan yo'nalishlardan biridir. Jahon tilshunosligida XIX asr oxiri XX asr boshlaridayoq "Quranism", rus tilshunosligida "Koranizm" atamasi paydo bo'lgan. Jahon tilshunoslari shu davrlardanoq Qur'oniylafzlar ma'nosi, uni o'zlashtirgan tillardagi talaffuz variantlarini o'rgana boshladilar. Islom dini kirib borgan har bir davlatda yashovchi millatlar tilida Qur'oniylafzlar mavjudligidan kelib chiqqan holda tilshunoslikning ushbu yo'nalishini dunyo tilshunosligida eng ko'p tahlillarga, bahslarga sabab bo'luvchi yo'nalish deyish mumkin. Lekin ming afsuski o'zbek tilshunosligida bu yo'nalishda hamon tadqiqotlar olib borilmayapti. Qur'oniylafzlarni til nuqtayi nazaridan tahlil qilish o'zbek tilshunosligining eng dolzarb masalalaridan biri. Bu yo'nalishdagi izlanishlar Qur'oni Karim suralari, oyatlari ma'nolarini anchayin mukammal o'rganishga, to'g'ri talqin qilish va to'g'ri anglashga bois bo'lib, turli oqimlarning noto'g'ri talqin va tafsirlariga berilishning oldini oladi. Ayni shu sababdan biz ishimizning ushbu qismida imkon qadar Ogahiy tarixiy asarlarida uchraydigan Qur'oniylafzlar to'xtalib o'tish niyatidamiz.

Avvalo atama izohiga to'xtalsak: jahon tilshunosligida "Quranism" yoki "Quraniti" atamasi Qur'oni Karim ta'sirida ma'lum tilga kirib kelgan qur'oniylafzlar yoxud islom dinini qabul qilib, islomiy so'zlarni o'z nutqida keng qo'llashga nisbatan aytiladi.

Rus tili ta'sirida XX asrda ushbu atama o'zbek tilida ham ma'lum vaqt qo'llangan. Bugungi zamonaviy tilshunoslikda ushbu atama deyarli qo'llanmaydi, chunki, yuqorida ta'kidlanganidek, bu yo'nalishda o'zbek tilshunosligida deyarli tadqiqot olib borilmaydi.

Biz "Qur'onizm" atamasini o'z tadqiqotimizda qo'llashni lozim ko'rmadik. Uning o'rniga "Qur'oniy lafzlar" atamasini qo'llashni ma'qul topdik. E'tiqod masalasi nozik hamda alohida yondashuvni talab qilishi shubhasiz, qolaversa, biz o'zbek xalqida – ajdodlarimiz hamda zamondoshlarimizda islom dini va Qur'oni Karimga bo'lgan mehr-muhabbat, hurmat, e'zoz cheksiz. Imom Buxoriy, Imom Termiziy, Al-Marg'ononiy, Az-Zamaxshariylarning islom dini taraqqiyoti va rivojiga qo'shgan hissasini eslashning o'zi kifoya. "Qur'oniy lafzlar" atamasi shu va boshqa bir qancha omillar tufayli ma'qul topildi.

Biz har qanday o'zlashmani qur'oniy lafz deya olmaymiz. O'zlashma qur'oniy lafz sanalishi uchun ma'lum talablarga – mezonlarga javob berishi lozim. Demak, quyidagi mezonlarga javob bera oladigan o'zlashmalarni biz qur'oniy lafz deb ataymiz:

- 1) eng avvalo, o'zlashma arab tili emas, Qur'oni Karim orqali kirib kelgan bo'lishi zarur;
- 2) so'z Qur'oni Karimning biror o'rnida uchrashi lozim;
- 3) Qur'oni Karimda uchraydigan va o'zbek tili lug'at qatlamidagi har qanday so'zni ham qur'oniy lafz deyish noto'g'ri. Bugungacha barcha tadqiqotchilar, xususan, rus tadqiqotchilari koranizm yoki G'arb tadqiqotchilari Quranism deganda Qur'oni Karimda uchraydigan va ma'lum tilga kirib borgan barcha so'zlarni tushunganlar va shu yo'nalishda tadqiqot olib borganlar. Lekin bu usulda tahlil qilish noto'g'ri xulosalarga olib kelishi mumkin. So'z qur'oniy lafz bo'lishi uchun aynan Qur'oni Karimda iroda qilingan ma'noda biror tilga kirib borishi zarur. Chunonchi, Qur'oni Karimda shia – guruh, to'da so'zi uchraydi. Lekin bugun aqidaviy mazhab ma'nosidagi shia so'zini biz qur'oniy lafz deya olmaymiz. Chunki Qur'oni Karim nozil bo'lgan davrda musulmonlarni shia va sunniy deb firqaga bo'lish, alohida mazhablarga ajratish bo'lmagan
- 4) so'z Qur'oni Karim ta'sirida turkiy tilga (o'zbek tiliga) kirib kelgan bo'lishi zarur;
- 5) o'zlashma Qur'oni Karimdan avvalgi turkiy til lug'at tarkibida uchramasligi kerak, agar u Qur'oni Karim va islom dini yoyilmasidan avval arab tilidan turkiy til leksikoniga kirib kelgan bo'lsa, demak u qur'oniy lafz emas, shunchaki arabiy o'zlashma yoki muarrab bo'ladi. Lekin bunday tarzda Qur'oni Karim va islomdan avval arab tilidan turkiy tilga so'z o'zlashishi nisbatan kam.

6) Qur'oni Karimda uchramay, hadislar orqali turkiy tillarga kirib kelgan so'zlar ham qur'oniy lafz hisoblanmaydi.

Demak, Qur'oniy lafzlar – bu, qadimgi til davrida so'ngra eski turkiy til davrida (o'zbek tiliga) Qur'oni Karim ta'sirida kirib kelgan so'zlardir. Tabiiyki, ularning barchasi o'zlashma. Lekin genetik nuqtayi nazardan ularning barchasi ham sof arabiy so'z emas. Ayrimlarining genezisi qadimgi arab tiliga borib taqalsa, ayrimlari arab tiliga boshqa tillardan o'zlashgan. Bundan shunday xulosa chiqadiki, Qur'oniy lafzlarning ayrimlari sof arabiy so'zlardir, ayrimlari esa muarrab, ya'ni arab tili orqali o'zbek tiliga kirib kelgan so'zlardir. Ular so'zsiz arab tili va Qur'oni Karim orqali o'zbek tiliga o'zlashgan. Qur'oniy lafzlar mavzu ko'lami juda keng. Shu sababdan ularni mavzuiy-semantik guruhlarga bo'lib tadqiq qilgan afzaldir:

1) Alloh Taoloning sifatlarini anglatuvchi Qur'oniy lafzlar: Rohman, Rohim, Robb, Hay, G'ofur, Razzoq, Hakim, Ro'uf, Rashid, Rasul, Salom, Musovvir va boshqalar. Hozirgi o'zbek adabiy tilida ular Allohning to'qson to'qqiz ismi deya oldidan abd – qul komponentini qo'shgan holda farzandlarga nom sifatida tanlanadi, ya'ni antroponim sifatida faol qo'llanadi. Ushbu o'rinda Qur'oniy sifatlarining o'zbek tilida atoqli ot sifatida qo'llanishi kuzatiladi.

2) Muakkil farishta nomlarin anglatuvchi qur'oniy lafzlar: Jabroil (Jibril), Mikoil (Miykol)

3) Qur'oniy antroponimlar. Qur'oni Karim ta'sirida o'zbek tiliga o'zlashgan shaxs nomlari. Ushbu antroponimlarning deyarli barchasi hozirgi o'zbek adabiy tilida keng iste'molda. Chunonchi, Ibrohim, Ismoil, Isroil, Ilyos, Idris, Is'hoq, Dovud, Sulaymon, Zakariyo, Muhammad, Muso, Imron, Yusuf, Yunus, Ayub, Ya'qub, Luqmon kabi qur'oniy antroponimlar bugun o'zbek xalqi orasida eng ko'p farzandga nom sifatida tanlanayotgan ismlardir. Odam, Nuh, Lut, Iso kabi

qur'oniyl antroponimlar garchi farzandga ism sifatida tanlanmasa-da, nutqimizda alohida hurmat bilan ko'p tilga olinadigan antroponimlardir. Payg'ambarlar nomlaridan tashqari Maryam, Horun, Uzayr, Qorun, Ozar, Abu Jahl, Horut, Morut antroponimlari ham qur'oniyl lafzlar sirasiga kiradi.

4) Qur'oniyl toponimlar: Makka, Madina, Masjidil Harom, Masjidil Aqso, Kursiy, Arsh, Adn, Haviya, A'rof, Mashriq, Mag'rib, Asfalasofilin, Misr, Madyan (Midiya), Rum, Tur (tog' nomi) va boshqalar.

5) Qur'oniyl makon otlari: qasr, sirot, arz, samo.

6) O'limdan keyingi hayot bilan bog'liq tushunchalarni ifodalovchi qur'oniyl lafzlar: jannat, firdavs, qiyomat, oxirat, jahannam, sirot, Adn, A'rof, Kavsar, Haviya va boshqalar.

7) Islom arkonlarini ifodalovchi qur'oniyl lafzlar: imon, namoz, zakot, haj, (savm o'rniga o'zbek tilida ro'za faol qo'llanadi).

8) Mavhum tushuncha nomlarini ifodalovchi qur'oniyl lafzlar: jin, shayton, iblis, maloika, malakut, malak, ruh, fath, va'da, ahd, kunfayakun, fотиha, aduv (dushman), jazo, fazl, mag'firat, hidoyat, nafs, zohir, botil, shifo, ajr, amr.

9) Namoz bilan bog'liq tushunchalarni ifodalovchi qur'oniyl lafzlar: qiyom, ruku', sajda, azon, takbir.

10) Vaqt tushunchasini ifodalovchi qur'oniyl lafzlar: avval, soat, asr (asr vaqti), fajr (tong vaqti), layl (kecha), shahr (oy), Jum'a, Laylat ul-Qadr, almiysoq, yavm, iyd.

11) Osmon jismlari bilan bog'liq tushunchalarni ifodalovchi qur'oniyl lafzlar: hilol, shams, arz, siroj.

12) Allohni ulug'lash bilan bog'liq qur'oniyl lafzlar: mashaalloh, inshaalloh, alhamdulillah, subhanolloh.

13) Qur'on odoblari bilan bog'liq tushunchalarni ifodalovchi qur'oniyl lafzlar: xulq, sobr (sabr), shukr, zikr, taqvo.

14) Qur'on orqali bajarishdan qaytarilgan amallarni ifodalovchi qur'oniyl lafzlar: faxsh, zino, harom, uff tortish, kufr, shirk, xamr.

15) Qur'on nomlari va sifatlarini ifodalovchi qur'oniyl lafzlar: qur'on, kalom, furqon, lavh, lavh ul-mahfuz, mus'haf, kitob, asotir, masal, burhon, tafsir.

16) Ilohiy kitoblar nomlarini anglatuvchi qur'oniyl lafzlar: Tavrot, Injil, Zabur.

17) Qur'onda ta'riflangan insoniy sifatlarni ifodalovchi qur'oniyl lafzlar: masih, mo'min, qori, muslim, miskin, yatim, musofir, mushrik, munofiq, kazzob, g'ofil, zolim.

18) Dunyo tushunchasini ifodalovchi qur'oniyl lafzlar: dunyo, hayot, olam.

19) Ijtimoiy-maishiy tushunchalarni ifodalovchi qur'oniyl lafzlar: yoqut, marjon, majus, din, meros, taloq, she'r, tilovat, inson, nasoro, nusxa, mushk, mizoj (mijoz), qalam, qufl (qulf), qurbon, atiq (osoru atiq), to'fon, surat, sadaqa, salavot, silsila (zanjir), zakot, jiz'ya, yehson, rizq, tijorat, tobut, bo'hton, baraka va boshqalar.

20) Ijtimoiy maqom, mansab va unvonni anglatuvchi qur'oniyl lafzlar: nabiyl, rasul, sulton, malik, vazir, fir'avn, abd.

21) O'lchov ma'nosini anglatuvchi qur'oniyl lafzlar: misqol, kub (Qur'oni Karimning 4 oyatida uchraydi: 43-sura 71-oyat, 56-sura 18-oyat, 76-sura 15-oyat, 88-sura, 14-oyat), dinor (3-sura 75-oyat), dirham (12-sura 20-oyat)

22) Hayvon va hasharot nomlarini anglatuvchi qur'oniyl lafzlar: ankabut (o'rgimchak), fil, salva, jamal (tuya), nahl (asalari), naml (chumoli), hisan (ot).

23) O'simlik nomlarini anglatuvchi qur'oniyl lafzlar: sunbul, zaytun, zanjabil, xardal.

24) Qabila, ijtimoiy guruh nomlarini anglatuvchi qur'oniyl lafzlar: hanif, quraysh, millat, ahl, ol, bani, hizb, havoriyl.

Ogahiy tarixiy asarlarida yuqorida keltirilgan barcha mavzulardagi qur'oniyl lafzlar uchraydi. Quyida ana shu mavzularga oid ayrim qur'oniyl lafzlarning Ogahiy tarixiy asarlarida qo'llanish sabablari va ularning genetik tahlillari haqidagi fikrlarimizni keltiramiz.

Ogahiy tarixiy asarlarining barchasi an'anaviyl Allohga hamd, paygambarimiz (s.a.v.)ga na't, choriyorga manqaba, hasbi hol qismlari bilan boshlanadi. Ayni shu qismlarda qur'oniyl lafzlar eng sermahsul istifoda etilgan o'rinlardir. Qolaversa, tarixiy asardagi xonlar, shahzodalarga

bag‘ishlangan vasf o‘rinlarida ham qur‘oniy lafzlar faol qo‘llanadi. Hamd qismida Alloh Taolo vasfi, sifatleri, undan madad so‘ralishi barchamizga ma‘lum. Xususan, quyidagi misollarga e‘tibor qaratsak: **Karim**yekim, karami omm muqtazosi bila afrodi insondin har kishinikim, sohibdavlat qilmoq istasa, saltanat taxtig‘a mindurub... yoki Va **Qodir**yekim, qudrati tamom ijrosi bila **salotini** jahondin har kimarsanikim... Yaratganning to‘qson to‘qqiz sifatidan bir nechasi Ogahiy tarixiy asarlarida tilga olingan.

Shuningdek, bugungi kunda eng faol tarzda qo‘llanuvchi qur‘oniy lafzlardan biri, islom diniga e‘tiqod qiluvchi har kimsa tilida eng ko‘p yangraydigan kalima bu, so‘zsis, “Alloh” kalimasidir. Ushbu qur‘oniy lafz mahalliy talaffuzimizga moslangan holda “Olloh” tarzida ham o‘zbek tilida istifoda etiladi. Ogahiy ushbu qur‘oniy lafzni yakka holda o‘z tarixiy asarlarida kam istifoda etsa-da, Allohni ulug‘lovchi jumalalarda: inshaolloh, alhamdulillah kabi; aptroponimlarda: Ollohqulixon, Ollohnazar, Ollohberdi kabi; qur‘oniy oyatlarni keltirish hamda biror tarixiy shaxsni ezgu niyat bilan eslash jarayonida qo‘llanuvchi islomiy so‘z, birikma va iboralarda: harraqollohu taolo, tavvalollohu taolo, zayyanollohu taolo, minollohi-l-ionat, navvaraollohu marqadhu, kabi o‘rinlarda ko‘p qo‘llagan: Xorazm mamolikining shahriyori sohibixtiyori, a‘alo **Allohu ta‘olo** shonahu, hamvora komyob va komkorlig‘ saririning oromguzini bo‘lg‘ay... yoki Chun sa‘ti rahmati ilohiy taaddudi ankaha va jame‘i izvoji mutaaddida javozin siyg‘a amri bila karomat qildi, **Ollohi taolo** va taboraka aytganiga ko‘ra... Ushbu qur‘oniy lafzning turkiy tilga kirib kelishi ayni Qur‘oni Karim bilan bog‘liq. Lekin ushbu kalima sof arabiy o‘zlashma emas, balki muarrabdir. Arab tilida ushbu so‘z الله – al-ilah – ilohiy kuch, butun mavjudot yaratuvchisi ma‘nosini anglatadi va unga taolo – ulug‘, oliy sifati qo‘shib aytiladi. Ushbu qur‘oniy lafz Qur‘oni Karimda eng ko‘p uchraydigan lafzlar sirasidandir. Ushbu so‘zning genezisi haqida qadimdan ko‘plab bahslar bo‘lgan. Ar-Roziy va Abu Hayyon kabi tilshunoslar uni ibroniydan suryoniy tili orqali o‘zlashganiga hamfikir bo‘lishgan. Lekin katta ko‘pchilik boshqa arab tishunoslar uni sof arabiy so‘z ekanligini ta‘kidlashgan. Ammo shunday bo‘lsa-da, ushbu qur‘oniy lafzning qay tarzda shakllangani va genezisi haqida ixtilofga borishgan. G‘arb tilshunoslari esa ushbu so‘zning genezisi juda qadimiy ekanligi va ayni ibroniydan oromiy tiliga, so‘ngra suryoniyga va safoviy orqali semit tillar guruhiga mansub arab tiliga kirib borgani to‘g‘risida hamfikrdirlar.

Darhaqiqat, ushbu so‘z islomdan avval ham arab tilida faol qo‘llangani haqida ayrim manbalar mavjud. Xususan, Shimoliy Arabistonda yashagan samud qabilasi ibodatxonasidan milodiy 2-3 asrlarga oid yozma manbada ta‘kidlanishicha, samud qabilasining bosh ilohi “Alloh” bo‘lgan. Shimoliy arab qabilalaridan biri bo‘lgan safoviylardan qolgan yozma manbalarda “Hollo” so‘zi uchraydi va u bosh xudo ma‘nosida istifoda etilgan. Ayni shu shaklda suryoniy va ibroniy tillarida ham xudo ma‘nosidagi so‘z mavjud. Hollo so‘zidagi ho qadimgi semit tillar guruhida va suryoniy hamda ibroniyda aniqlik artikli ma‘nosida qio‘llangan. Tilshunos va dinshunoslar orasida islom dinidan avval ayrim arab qabilalarining, shuningdek, Makka ahlining xudolaridan biri bo‘lgan degan faraz ham mavjud. Ushbu lafz islomdan avval ham yaratuvchi, xudo ma‘nolarida istifoda etilgani haqida fikr yuritishimiz mumkin. Bu fikrimizga payg‘ambarimiz (s.a.v)ning otalari ham Abdulloh deya atalgani dalil bo‘la oladi. Ayni damda, Ibrohim (a.s) diniga va u yakkayu yagona deb bilgan yaratgan Allohga e‘tiqod qilishga da‘vat etgan hamda boshqa but sanamlardan voz kechishga undagan hanif qabilasida ham Alloh yagona yaratuvchi deya tan olingan. Ular islomdan ilgari yakkaxudolikni ilgari surganlar. 610-yilda payg‘ambarimiz (s.a.v)ga dastlabki vahiy kelgandan so‘ng islom diniga e‘tiqod qiluvchilar orasida Allohdan boshqa iloh yo‘qligi imon asosini tashkil etdi. Boshqa xalqlar qatori turkiy tillarga ham Alloh kalimasi Qur‘oni Karim orqali kirib keldi.

Qur‘oni Karimda eng faol qo‘llangan so‘zlardan, shuningdek, Qur‘oni Karim orqali o‘zbek tiliga o‘zlashgan Alloh taoloning sifatlaridan birini anglatuvchi Robb (Rab) lafzi haqida ham to‘xtalib o‘tish joiz. Ushbu qur‘oniy lafz aslan hukmdor xo‘jayin ma‘nosini anglatadi. Ogahiy tarixiy asarlarida biz ushbu qur‘oniy lafzni asosan she‘riy parchalarda, murojaat san‘ati qo‘llangan bir necha o‘rinlarda uchratamiz:

Yo **Rab**, tilima kalomi xush joriy qil,
Ma‘ni guharini kilkim iysori qil.

Qur'oni Karimda va arab tilida Alloh, Yaratgan, Tarbiyalovchi ma'nolarida, hozirgi o'zbek adabiy tilida ham ayni mazmuni ifodalagan holda faol iste'molda, qolaversa, ushbu so'z asosida hosil qilingan Rabbiiy (yo Rabbiiy shaklida) nutqimizda keng qo'llanadi. Robb (Rab) so'zi ham aslida muarrabdir. Arab tiliga suryoniy tili orqali islomdan oldin kirib kelgan. Ko'pgina tadqiqotchilar ushbu so'zni umumeroniy so'zlardan biri ekanligi borasida hamfikrdirlar. Chunonchi, pahlaviydagi rabä – buyuk, muhtaram, ulug'vor so'zi oromiy orqali ibroniyga so'ngra suryoniy tiliga kirib borgan. Suryoniy tili vositachiligida shimoliy semit tillar guruhiga o'zlashgan. Ravvin tilidagi רַב – ulug'vor ma'nosini anglatuvchi so'z ham ayni o'zak bilan bog'lanishi shubhasiz. Oromiy tili yozma manbalarida biz רב - rabä so'ziga ko'p duch kelamiz: רב שׁוּמ – bozor boshlig'i, רב הילא, – qo'shin sardori kabi birikmalarda ushbu so'zning turli ma'nolarda qo'llanganini kuzatamiz. Lekin oromiy manbalarda biz bu so'zning boshliq ma'nosini uchratsak-da, iloh ma'nosini uchratmaymiz. Ushbu so'zning iloh ma'nosini kasb etishi suryoniy xristianlari bilan bog'liq. Suryoniy tili ta'sirida islomdan oldingi she'riyat va yozma manbalarda Robb so'zi iloh ma'nosida qo'llana boshlangan. Islom dinida, Qur'oni Karimda ushbu so'z yakkayu yagona Alloh, Yaratgan kabi ma'nolarni ifodalagan holda ko'plab oyatlarda uchraydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:


1. Abu Hayyon al G'arnotiy. Bahr al-muhit. I jild. – Bayrut. Dor al-fikr. 1992. –B. 15.
2. Faxriddin ar-Roziy. Mafotih al-g'oyb. I jild. – Bayrut. Dor al-fikr. 1977. –B. 84.
3. Grünbaum M. Über schem hammephorasch und über sprachliche Nachbildungen. In ZDMG, 39. 1885. –P. 571.
4. Harris Z.S. "Glossary of Phoenician," in his Grammar of the Phoenician Language. Philadelphia, 1936. –P. 145.
5. Jeffery A. The foreign vocabulary of the Qur'an. Leiden-Boston. 2007. –P. 136.
6. Muhammad Rizo Erniyozbek o'g'li Ogahiy. Asarlar. IV jild. Riyozu-d-davla. Nashrga tayyorlovchi A.O'rozboyev. – Toshkent. Sharq. 2020. – B. 243.
7. Muhammad Rizo Erniyozbek o'g'li Ogahiy. Asarlar. VI jild. Gulshani davlat. Nashrga tayyorlovchi A.O'rozboyev. – Toshkent. Sharq. 2019. – B. 3.
8. Pahlavi-Pazand Glossary, by Hoshangji Jamaspji Asa, revised by M. Hang. Bombay, 1870. –P. 190.
9. Ryckmans G. Les Noms propres sud-sémitiques, I-III. Louvain, 1934–5. –P. 196.,
10. Shermuhammad Avazbiy mirob o'g'li Munis, Muhammad Rizo Erniyozbek o'g'li Ogahiy. Asarlar. II jild. 2-kitob. Firdavsul-iqbol. Nashrga tayyorlovchi I.Bekchonov, N.Polvonov. – Toshkent. Sharq. 2019. – B. 224.
11. Shermuhammad Avazbiy mirob o'g'li Munis, Muhammad Rizo Erniyozbek o'g'li Ogahiy. Asarlar. II jild. 1-kitob.
12. Sprenger A. Das Leben und die Lehre des Mohammad, 3 vols. Berlin, 1861. № 5. –P. 299.

Jumaniyozova Sohiba Shuxratovna

Urganch innovatsion universiteti

“O‘zbek va xorijiy filologiya” kafedrası o‘qituvchisi

**NUTQ MADANIYATIDA DISKURS TUSHUNCHASINING NAZARIY ASOSLARI
ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ПОНЯТИЯ ДИСКУРСА В КУЛЬТУРЕ РЕЧИ
THEORETICAL BASES OF THE CONCEPT OF DISCOURSE IN SPEECH CULTURE**

 <http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.00000000>

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada nutq madaniyati doirasida diskurs tushunchasining nazariy asoslari kompleks va tizimli yondashuv asosida tahlil qilinadi. Diskurs atamasining lingvistik, pragmatik, kognitiv va ijtimoiy-madaniy talqinlari yoritilib, uning nutq madaniyatidagi o‘rni va ahamiyati asoslab beriladi. Nutq madaniyati diskursiv jarayon sifatida qaralib, unda til birliklari, muloqot ishtirokchilari, kommunikativ vaziyat, ijtimoiy norma va madaniy qadriyatlarining o‘zaro munosabati ochib beriladi. Tadqiqotda o‘zbek tilshunosligidagi diskurs va nutq madaniyati bo‘yicha ilmiy qarashlar tahliliga alohida e‘tibor qaratiladi.

Kalit so‘zlar: diskurs, nutq madaniyati, kommunikatsiya, kontekst, pragmatika, lingvokulturologiya.

АННОТАЦИЯ

В статье комплексно рассматриваются теоретические основы понятия дискурса в контексте культуры речи. Анализируются лингвистические, прагматические, когнитивные и социокультурные интерпретации дискурса, а также его роль в формировании речевой культуры. Особое внимание уделяется взглядам узбекских лингвистов на проблему дискурса и речевой культуры.

Ключевые слова: дискурс, культура речи, коммуникация, контекст, прагматика, лингвокультурология.

ABSTRACT

This article provides a comprehensive analysis of the theoretical foundations of discourse within the framework of speech culture. Linguistic, pragmatic, cognitive, and sociocultural interpretations of discourse are examined, with particular attention to its role in shaping speech culture. Special emphasis is placed on Uzbek linguistic perspectives on discourse and speech culture.

Keywords: discourse, speech culture, communication, context, pragmatics, linguoculturology.

Zamonaviy tilshunoslikda nutq madaniyati masalasi tilning faqat grammatik yoki leksik me‘yorlariga rioya qilish bilangina cheklanmay, balki kommunikativ jarayonning ijtimoiy, madaniy, pragmatik va diskursiv jihatlarini ham o‘z ichiga oluvchi murakkab hodisa sifatida qaralmoqda. Jamiyat taraqqiyoti, axborot texnologiyalarining rivoji, global kommunikatsiya

jarayonlarining faollashuvi nutq madaniyatiga bo'lgan talabni yanada oshirdi. Ayniqsa, nutqni real muloqot sharoitida, muayyan kontekst va ijtimoiy vaziyat bilan bog'liq holda tahlil qilish zarurati diskurs tushunchasining ilmiy ahamiyatini kuchaytirdi.

Diskurs tushunchasi bugungi kunda tilshunoslik, sotsiologiya, falsafa, psixologiya, madaniyatshunoslik kabi fanlar chorrahasida shakllangan interdiscipliner kategoriya hisoblanadi. U nafaqat matn yoki nutq mahsuli, balki muloqot jarayonida vujudga keladigan, ijtimoiy va madaniy ma'nolar bilan boyigan kommunikativ hodisani ifodalaydi. Nutq madaniyatini diskursiv yondashuv asosida o'rganish nutqning mazmuniy, maqsadga yo'naltirilgan va madaniy jihatlarini chuqurroq anglash imkonini beradi.

O'zbek tilshunosligida nutq madaniyati masalalari ko'plab olimlar tomonidan o'rganilgan bo'lsa-da, diskurs tushunchasining nutq madaniyati bilan uzviy aloqasi, uning nazariy asoslari va metodologik imkoniyatlari hali ham keng qamrovli tadqiqotlarni talab etadi. Shu bois ushbu maqolaning asosiy maqsadi nutq madaniyatida diskurs tushunchasining nazariy asoslarini tizimli ravishda yoritish, uning lingvistik va ijtimoiy-madaniy mohiyatini ochib berishdan iborat.

Diskurs tushunchasining shakllanishi va ilmiy talqinlari. Diskurs atamasi lotincha discursus (“harakat”, “muomala”, “suhbat”) so'zidan kelib chiqqan bo'lib, dastlab muloqot jarayonini ifodalovchi umumiy tushuncha sifatida qo'llangan. Tilshunoslikda esa diskurs XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab faol ilmiy termin sifatida qo'llanila boshladi. Avvaliga u matn bilan sinonim tarzda ishlatilgan bo'lsa, keyinchalik diskurs matndan kengroq tushuncha ekani ilmiy jihatdan asoslab berildi.

Diskursni faqat yozma yoki og'zaki matn sifatida tushunish uni cheklangan holda talqin qilishga olib keladi. Zamonaviy tilshunoslikda diskurs — bu muayyan ijtimoiy vaziyatda, aniq kommunikativ maqsad bilan amalga oshiriladigan nutqiy faoliyat jarayoni hisoblanadi. Bu jarayonda til birliklari bilan bir qatorda muloqot ishtirokchilarining bilimlari, tajribasi, madaniy qarashlari, ijtimoiy rollari va kommunikativ strategiyalari muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbek tilshunosligida diskurs tushunchasi haqida fikr yuritgan olimlar uni “nutqning ijtimoiylashgan shakli”, “kontekstga bog'liq muloqot jarayoni”, “kommunikativ faoliyat mahsuli” sifatida izohlaydilar (M. Sulaymonova, G. Rayhonova, N. Mahmudov). Bu talqinlar diskursning faqat lingvistik emas, balki ijtimoiy va madaniy hodisa ekanini tasdiqlaydi.

Nutq, matn va diskurs munosabati. Nutq madaniyatini o'rganishda “nutq”, “matn” va “diskurs” tushunchalarini farqlash muhim nazariy masalalardan biridir. Nutq — til birliklarining real muloqot jarayonida qo'llanishi bo'lsa, matn — nutqning muayyan shaklda (yozma yoki og'zaki) mustahkamlangan mahsulidir. Diskurs esa ushbu ikki tushunchani o'zida mujassam etgan, lekin ulardan kengroq bo'lgan kategoriyadir.

Diskurs matnni yaratish va qabul qilish jarayonini ham, uning ortidagi ijtimoiy-madaniy kontekstni ham o'z ichiga oladi. Shu bois diskursni “jonli nutq + kontekst + kommunikativ maqsad” formulasi asosida izohlash mumkin. Nutq madaniyatida aynan mana shu komponentlar uyg'unligi muhim hisoblanadi. Masalan, grammatik jihatdan to'g'ri tuzilgan nutq birliklari madaniy yoki etik me'yorlarga mos kelmasa, bunday nutq yuqori nutq madaniyati namunasi sifatida baholanmaydi. Demak, nutq madaniyati diskursiv yondashuvni talab etadi.

Diskurs va nutq madaniyati: nazariy bog'liqlik. Nutq madaniyati an'anaviy ravishda til me'yorlariga rioya qilish, fikrni aniq, ravon va ta'sirchan ifodalash qobiliyati sifatida talqin qilingan. Biroq zamonaviy yondashuvlarda nutq madaniyati kommunikativ kompetensiya, pragmatik moslik va diskursiv maqsadga yo'naltirilganlik bilan chambarchas bog'lanadi.

Diskurs nutq madaniyatining funksional asosi bo'lib, u nutqning qaysi vaziyatda, qanday maqsadda va kimga qaratib aytilayotganini belgilaydi. Shu jihatdan nutq madaniyati diskursiv normalar tizimi sifatida namoyon bo'ladi. Bu normalar ijtimoiy, milliy va madaniy qadriyatlarga asoslanadi.

O'zbek nutq madaniyatida hurmat, muomala odobi, nutqiy etiketa, kinoya va bilvosita ifodalash kabi diskursiv xususiyatlar alohida o'rin tutadi. Ushbu jihatlar diskursni hisobga olmasdan turib izohlanishi mumkin emas.

Diskursning pragmatik va kognitiv jihatleri. Diskursning pragmatik jihati nutqning maqsadga yo'naltirilganligi bilan bog'liq. Har bir nutqiy birlik muayyan kommunikativ niyat asosida yaratiladi. Nutq madaniyatida ushbu niyatning ochiq, tushunarli va vaziyatga mos tarzda ifodalanishi muhimdir.

Kognitiv yondashuv esa diskursni inson ongidagi bilimlar, tushunchalar va konseptlar bilan bog'liq holda o'rganadi. Diskurs orqali shaxs o'z dunyoqarashi va madaniy tajribasini namoyon etadi. Shu sababli diskurs nutq madaniyatining kognitiv asosi hisoblanadi.

Diskursning ijtimoiy-madaniy tabiati. Diskurs ijtimoiy munosabatlar mahsuli sifatida shakllanadi. Har bir jamiyatda diskursning o'ziga xos turlari mavjud bo'lib, ular madaniy qadriyatlar va ijtimoiy normalar bilan belgilanadi. Siyosiy, ilmiy, diniy, pedagogik diskurslar nutq madaniyatining turli ko'rinishlarini ifodalaydi.

O'zbek jamiyatida nutq madaniyati milliy mentalitet, tarixiy an'ana va madaniy me'yorlar bilan chambarchas bog'liq. Diskurs ushbu omillarni nutq jarayonida aks ettiradi.

Diskurs turlari va ularning nutq madaniyatidagi funksional xususiyatlari. Diskurs tushunchasini nutq madaniyati nuqtai nazaridan chuqurroq anglash uchun uning turlarini aniqlash va tavsiflash muhim ahamiyat kasb etadi. Zamonaviy tilshunoslikda diskurs turli mezonlarga ko'ra tasniflanadi: kommunikativ soha, ijtimoiy institut, muloqot ishtirokchilari, nutq shakli va maqsadiga ko'ra. Ushbu tasnif nutq madaniyatining funksional jihatlarini ochib berishga xizmat qiladi.

Ilmiy diskurs nutq madaniyatining eng muhim ko'rinishlaridan biri bo'lib, unda mantiqiylik, aniqlik, terminologik izchillik va ob'ektivlik asosiy talablar hisoblanadi. Ilmiy diskursda nutq madaniyati me'yorlariga rioya etilmasligi fikrning noto'g'ri talqin qilinishiga olib kelishi mumkin. Shu sababli ilmiy nutqda diskursiv izchillik va konseptual aniqlik muhim o'rin tutadi.

Pedagogik diskursda nutq madaniyati ta'lim jarayonining samaradorligini belgilovchi asosiy omillardan biridir. Bu diskurs turida o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi muloqot ijtimoiy-psixologik omillar bilan chambarchas bog'liq bo'lib, nutq madaniyati didaktik maqsadlarga xizmat qiladi. Pedagogik diskursda tushuntirish, yo'naltirish, baholash va rag'batlantirish kabi nutqiy strategiyalar ustunlik qiladi.

Rasmiy-idoraviy diskursda esa nutq madaniyati qat'iy me'yorlarga asoslanadi. Bu turdagi diskursda til birliklarining standartlashganligi, rasmiylik darajasi va kommunikativ aniqlik muhim ahamiyatga ega. Nutq madaniyati bu yerda huquqiy va tashkiliy munosabatlarning to'g'ri amalga oshirishini ta'minlaydi.

Shunday qilib, diskurs turlarining har biri nutq madaniyatining o'ziga xos ko'rinishini ifodalaydi va ularni o'rganish nutq madaniyatining funksional tabiatini chuqurroq anglash imkonini beradi.

Diskurs va nutq madaniyatida normativlik hamda variativlik masalasi. Nutq madaniyatida diskurs tushunchasini tahlil qilishda normativlik va variativlik masalasi alohida ilmiy ahamiyatga ega. An'anaviy yondashuvlarda nutq madaniyati til me'yorlariga qat'iy rioya qilish bilan bog'langan bo'lsa, diskursiv yondashuv ushbu me'yorlarning vaziyatga qarab o'zgaruvchanligini e'tirof etadi.

Diskurs doirasida nutq me'yorlari statik emas, balki dinamik xarakterga ega bo'ladi. Muayyan kommunikativ vaziyatda nutq madaniyati talablari ijtimoiy mavqe, muloqot maqsadi, auditoriya va madaniy kontekstga qarab farqlanishi mumkin. Bu holat nutq madaniyatida variativlik tushunchasini yuzaga keltiradi.

Masalan, kundalik so'zlashuv diskursida ruxsat etilgan nutqiy qisqartmalar yoki emotsional ifodalar ilmiy yoki rasmiy diskursda nutq madaniyatiga zid hisoblanadi. Demak, nutq madaniyatini diskursdan ajratilgan holda baholash mumkin emas.

O'zbek tilshunosligida normativlik masalasi ko'proq adabiy til me'yorlari bilan bog'lab izohlangan. Biroq diskursiv yondashuv ushbu me'yorlarni kommunikativ moslik nuqtai nazaridan qayta talqin qilish imkonini beradi. Bu esa nutq madaniyatini zamonaviy kommunikatsiya talablariga mos ravishda rivojlantirishga xizmat qiladi. Shunday qilib, diskurs nutq madaniyatida normativlik va variativlik o'rtasidagi muvozanatni ta'minlovchi nazariy asos sifatida namoyon bo'ladi.

Nutq madaniyatida diskurs kompetensiyasi va uning shakllanishi. Zamonaviy tilshunoslikda nutq madaniyati tushunchasi tobora ko‘proq diskurs kompetensiyasi bilan bog‘lab izohlanmoqda. Diskurs kompetensiyasi shaxsning turli kommunikativ vaziyatlarda mos diskurs tanlash, uni to‘g‘ri tashkil etish va samarali amalga oshirish qobiliyatini anglatadi.

Diskurs kompetensiyasi lingvistik bilimlar bilan cheklanmaydi. U pragmatik sezgirlik, ijtimoiy tajriba, madaniy bilimlar va kommunikativ strategiyalarni o‘z ichiga oladi. Nutq madaniyati aynan shu kompetensiya orqali real muloqotda namoyon bo‘ladi. Ta‘lim jarayonida diskurs kompetensiyasini shakllantirish nutq madaniyatini rivojlantirishning muhim omillaridan biridir. Talabalar turli diskurs turlarida nutq qurish, auditoriyani hisobga olish, kommunikativ maqsadni aniqlash va nutqiy strategiyalarni tanlash ko‘nikmalariga ega bo‘lishi zarur. O‘zbek tilini o‘qitishda nutq madaniyatini diskursiv yondashuv asosida rivojlantirish metodik jihatdan ham katta imkoniyatlar yaratadi. Bu yondashuv o‘quvchilarni faqat grammatik jihatdan to‘g‘ri gapirishga emas, balki vaziyatga mos, madaniy va kommunikativ jihatdan maqbul nutq qurishga o‘rgatadi. Natijada diskurs kompetensiyasi nutq madaniyatining amaliy ifodasi sifatida namoyon bo‘lib, shaxsning ijtimoiy va professional muvaffaqiyatiga xizmat qiladi.

Nutq madaniyatida diskurs tushunchasining nazariy asoslarini o‘rganish zamonaviy tilshunoslikning dolzarb masalalaridan biridir. Diskurs nutqni faqat til birliklari majmui sifatida emas, balki ijtimoiy, madaniy va pragmatik jihatlarga ega bo‘lgan murakkab kommunikativ hodisa sifatida talqin qilish imkonini beradi. Nutq madaniyati diskursiv yondashuv asosida yanada mukammal va tizimli tarzda izohlanadi.


Ushbu tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, diskurs nutq madaniyatining nazariy va amaliy asoslarini boyitadi, kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishga xizmat qiladi. Kelgusida nutq madaniyatini diskurs tahlili asosida o‘rganish tilshunoslikning istiqbolli yo‘nalishlaridan biri bo‘lib qoladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Mahmudov N. Nutq madaniyati asoslari. – Toshkent: Fan, 2010.
2. Sulaymonova M. Diskurs va uning lingvistik talqini. – Toshkent, 2018.
3. Rayhonova G. Zamonaviy tilshunoslikda diskurs muammosi. – Toshkent, 2020.
4. Yo‘ldoshev M. Matn va diskurs masalalari. – Toshkent: Universitet, 2016.
5. Safarov Sh. Pragmatik tilshunoslik. – Toshkent: Fan, 2008.
6. Qodirov A. Nutq madaniyati va kommunikatsiya. – Toshkent, 2015.
7. Karimov B. Lingvokulturologiya asoslari. – Toshkent, 2019.

Rasulov Normurod Atakulovich
PhD, Senior teacher at Samarkand
State Institute of Foreign Languages;
e-mail: normurod5930@gmail.com);
Dr. Mohd Nazish Khan
Aligarh University, India

GRAMMATICAL AND LEXICAL MARKERS OF IRREALIS IN NON-RELATED LANGUAGES: THE CASE OF ENGLISH AND UZBEK

 <http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.00000000>

ABSTRACT

This article analyzes the grammatical and lexical means of expressing the irrealis category in English and Uzbek. From a linguistic perspective, it examines the role of verb moods, modal verbs, conjunctions, and other elements in conveying unreal actions and states. The study also highlights the tendency in Uzbek to shift from synthetic to analytic forms in expressing irrealis. The findings contribute to identifying grammatical parallels and semantic differences between the two languages.

Key words: irrealis category, subjunctive mood, conditional mood, modal verbs, analytic and synthetic forms, expression of unreality, comparative linguistic analysis.

QARDOSH BO‘LMAGAN TILLARDA IRREALISNING GRAMMATIK VA LEKSIK KO‘RSATKICHLARI: INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARI MISOLIDA.

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada ingliz va o‘zbek tillarida **irrealis** kategoriyasining grammatik va leksik ifoda vositalari tahlil qilinadi. Tilshunoslik nuqtai nazaridan, real bo‘lmagan harakat va holatlarni ifodalashda qo‘llaniladigan mayl, modal fe‘llar, bog‘lovchilar va boshqa vositalarning roli o‘rganilgan. Shuningdek, o‘zbek tilida irrealis ifodasining sintetik shakllardan analitik shakllarga o‘tish tendensiyasi kuzatiladi. Tadqiqot natijalari ikki til o‘rtasida grammatik paralellar va semantik tafovutlarni aniqlashga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: irrealis kategoriyasi, subyunktiv mayl, shart mayli, modal fe‘llar, analitik va sintetik shakllar, noreallik ifodasi, til qiyosiy tahlili.

ГРАММАТИЧЕСКИЕ И ЛЕКСИЧЕСКИЕ МАРКЕРЫ ИРРЕАЛИСА В НЕРОДСТВЕННЫХ ЯЗЫКАХ: НА ПРИМЕРЕ АНГЛИЙСКОГО И УЗБЕКСКОГО ЯЗЫКОВ

АННОТАЦИЯ

В данной статье анализируются грамматические и лексические средства выражения категории ирреалиса в английском и узбекском языках. С лингвистической точки зрения рассматривается роль наклонений, модальных глаголов, союзов и других средств в передаче нереальных действий и состояний. Кроме того, отмечается тенденция перехода от

синтетических к аналитическим формам выражения ирреалиса в узбекском языке. Результаты исследования способствуют выявлению грамматических параллелей и семантических различий между двумя языками.

Ключевые слова: категория ирреалиса, сослагательное наклонение, условное наклонение, модальные глаголы, аналитические и синтетические формы, выражение нереальности, сопоставительный анализ языков.

INTRODUCTION

The category of irrealis plays a crucial role in distinguishing between real and hypothetical meanings across languages. This study investigates the various morphological and syntactic means of expressing the irrealis in English and Uzbek, two unrelated languages with distinct grammatical systems. In both languages, irrealis constructions frequently rely on mood, modality, verb forms, modal particles, and adverbs to convey non-real, hypothetical, or uncertain meanings. Special attention is given to the subjunctive and conditional moods, which serve as key indicators of hypotheticality. The analysis also highlights the lexical and grammatical devices—such as pronouns, conjunctions, and modal verbs—that reflect the irrealis in subordinate clauses and conditional contexts. The comparison reveals how linguistic means of expressing irrealis are shaped not only by grammatical categories but also by semantic and pragmatic factors [2, 102-120]. Moreover, it is suggested that Uzbek is undergoing a shift from synthetism to analytism in its irrealis system. The findings contribute to a deeper understanding of cross-linguistic variation in expressing unreality and the broader interaction between mood, modality, and meaning.

MATERIAL AND METHOD

As can be seen from these sources, it is easy to identify the phenomenon of irrealis through its form and the meaning expressed by the listed linguistic means.

In English and Uzbek, it was observed that the expression of the irrealis is more dependent on category, mood, and modality.

First of all, it should be noted that unrealisation and uncertainty are considered semantic meanings of the concept of irrealis and are classified according to whether they have a specific grammatical indicator. In both languages, the conditional categorical indicatives imply the irrealis. Compare: If George Marshalsan understood the purport of Burdens questions, he didn't show it. 'Only once. I only went out at five. I'd walked about the house earlier, I'd seen her bed was empty, but I only went out at five... A sob cut off his last words. (Ruth Rendell, 12-page); **Agar** qasida shoiri bo'lsam edi, xoqon ibni xoqon Sulton Husayn Boyqaro hazratlariga bir bemisl qasida yozib, janobi oliydan shohona sarupolar olar edim (Oybek. Navoiy. 11-bet).

Certainly, unrealisation and uncertainty are core semantic features of the irrealis category, often marked by specific grammatical indicators. In both English and Uzbek, conditional sentences play a crucial role in expressing irrealis meaning. For example, in English, the sentence "If George Marshalsan understood the purport of Burden's questions, he didn't show it" illustrates a hypothetical situation that did not happen or whose reality is doubtful. Similarly, in Uzbek, the phrase "Agar qasida shoiri bo'lsam edi..." introduces a counterfactual wish, expressing an unreal or imagined scenario. Thus, conditional moods in both languages serve as important markers of irrealis, highlighting actions or states that are uncertain, wished for, or contrary to fact.

Only events and indicators that have not occurred in the realis, but are only predicted in the future, are considered irrealis. However, there are words in Uzbek and English that are used in a specific situation, for example bad-уомон-плохой, good-яхши-хороший, low-past-низкий, high-баланд-высокий. They do not meet the requirements of irrealis.

It is worth noting that the methods of expressing the irrealis in English and Uzbek include modal verbs, adverbial suffixes, verb moods, real modality, unreal modality, all types of conditional sentences, pronouns, and prepositions.

All forms of expressing the unrealis are found mainly in subordinate clauses. Their use is usually determined structurally (when the choice of form depends on the type of subordinate clause) or lexically (when the choice of form depends on certain words in the main clause), or both

conditions are met simultaneously. Compare: She looked as if about to protest but shrugged instead and wrote it down on a piece of paper she tore from a block on the desk. (Ruth Rendell, 18-page); To Navoiyning o'zi kelib, ishni qo'lga olmasa, hozirgi hokimlarning dastidan xalqning na noni butun, na joni salomat... (Oybek. Navoiy. 340-bet).

All forms of expressing irrealis are mostly found in subordinate clauses. Their usage depends either on the structure (such as the type of subordinate clause) or on lexical triggers (certain words in the main clause), or on both factors together. For example, in English, the phrase “as if” introduces a subordinate clause expressing an unreal or hypothetical situation: “She looked as if about to protest...” Here, the speaker indicates an imagined or anticipated reaction rather than a real one. Similarly, in Uzbek, conditional subordinate clauses like “qo'lga olmasa” (if he does not take charge) express hypothetical situations with consequences explained in the main clause.

The irrealis in English and Uzbek is based on the laws of thought and the situational conditions of speech, which, in turn, indicates the existence of its semantic opposite in each language.

In Uzbek, irrealis is expressed as follows: verb moods, modal verbs, some adverbs, interjections (mumkin, mumkinki, balki, ehtimol); indefinite pronouns (bir kishi, kimsa, kimdir, qaysidir, nimadir); indefinite forms of singular or plural nouns, etc. In this case, these lexical means significantly weaken their semantic meaning and become closer to units of analytical morphology. Therefore, it can be assumed that currently the process of transition from synthetism to analytism is underway in the system of the irrealis category in the Uzbek language.

The use of the following adverbs in English is an indicator of irrealis. For example: probably, soon, long ago, everywhere, below, highly, perfectly, completely, nowhere, scarcely, perhaps, unfortunately, mayl (Mood), istak mayli (The Subjunctive Mood), the indefinite article, and sometimes some indefinite pronouns, etc. are highlighted as irrealis indicators [2, 102-120]. In addition, in some cases, the indefinite forms of a number of nouns (material and abstract), as well as the plural form of the word without any determiner, are used in the irrealis function [1, 45–60].

RESULTS AND DISCUSSION

Consequently, the ways of expressing the analyzed irrealis in the languages being compared are more prominent in sentences that express the relationship of the subject to the object. The expression of the category of irrealis is manifested in categorical indicators of the verb, such as mood, tense, and modality, in cases related to the conditions of use of some introductory words. In this case, the object may be a part of a specific subject or may be in a relative relationship with it. Compare: **Perhaps** plants had once been set within them. If so, they had died in that foul and tainted air. **It may be that** statues of the saints had stood there, but it was not difficult to conceive that imps and devils had dragged them forth in the darkness and down to the unholy depths of some furnished pit below (O' Henry, 75-page); **Ehtimol** dushmanlik tuyg'usiga aylantirishdan iborat bo'lib qoladi (Abdulla Qahhor. Sinchalak. 90-bet); **Balki**, farzandlarini qattiq sog'ingandir, deb o'yladi va rahmi kelsa ham ochiq javob berishga botinmadi (Oybek. Navoiy. 373-bet).

Across both languages, irrealis expressions tend to cluster in embedded clauses, modal constructions, and past tenses used non-literally (i.e., to express unreality rather than temporal past). Modal adverbs (perhaps, ehtimol, balki), modal verb forms (had stood, sog'ingandir) and speculative mental verbs (conceive, o'yladi) contribute to constructing a semantic space where the action is disconnected from reality—a core characteristic of irrealis. Moreover, the subject-object relation in these examples highlights how irrealis often arises in cognitive, emotional, or inferential contexts.

Therefore, we can divide the expression of the irrealis in English and Uzbek into the following types:

1. The verb expresses whether the action is real, doubtful, or unreal. For example, in English, the present tense conditional expresses the irrealis related to the speech situation, while the past tense conditional expresses an unreal action in the past. In Uzbek, the conditionals of the wish and assumption moods such as “ehtimol, balkim, mabodo, garchi” are used to express these meanings;

2. Whether an action is necessary or unnecessary, possible or impossible, real or unreal is expressed by the use of modal verbs in English, such as can, may, must, ought to, shall, should, will, need, dare; while in Uzbek, auxiliary and modal verbs such as: sababli, bois, boisdan, tufayli, mumkin, shart, kerak, zarur, shart, shart emas, balki, bo'lib qolar;

3. The use of adverbs such as may express different levels of realis/irrealis, certainty or desire from the speaker's perspective: in English: long ago, perhaps, probably, luckily, unfortunately, and in Uzbek: ancha burun, ancha avval, kimqachon, balki, modomiki, mobodo, chunonon, chunonchi, baxtga ko'ra, vaholanki, mubolag'asiz, mumkin, mumkinki, ehtimol, baxtga qarshi, afsus, afsuski, holbuki;

4. Through the pronouns in English: any, how, how many; through the use of indefinite pronouns in Uzbek, such as kimdir, bir kishi, kimsa, falonchi, nimadir, qayerdir, bir nechta, ko'plab, talay, bir talay, qator, bir qator, ancha, qandaydir, birov, birorta, ba'zilar;

5. Irrealis is expressed through the use of conjunctions in both non-related languages. In English: if, on condition that, unless, in case, if only, as if, supposing (suppose) that, as thought; in Uzbek: agar, agar bo'lsa, modomiki, sharti bilan, qilinganda, qilmaguncha, bo'lsa, bo'lganda, bo'lgandagina, bo'lgan holatda, basharti, holbuki, bo'lgan holatda, xullas, aytaylik, deganda, go'yo, go'yoki, huddi, kabi, tarzda, tarzida, chunonon, vaholanki, taxminan, taxmin qilib;

6. The particles represent different meanings of modality, and the irrealis meanings they convey are clearly visible in the structure of the sentence. These include particles and words. In Uzbek: -a, -mi, -chi, -ku, mobodo, hali, yana, hanuzgacha, hanuz, hamon, hali ham, hozirgacha, shu chog'gacha, hozir, hozirgina, haligina, endi, allaqachon, har holda, shunga qaramay, chamasi, birdan bir, birgina, yagona, huddi shunday, zo'rg'a, bazo'r, shunchaki, faqat, faqatgina, farqli ravishda, farqli o'laroq, tashqari, istisno holda, xolos, yolg'iz; in English: yet, still, merely, solely, just, only;

7. Through modal verbs: probably, perhaps, undoubtedly, naturally; in Uzbek the following modal expressions are used: mobodo, balki, mumkin, aftidan, ko'rinishicha, o'xshash, kabi, mubolag'asiz, holbuki, hattoki, shubhasiz, shubha tug'dirmasdan, shak-shubhasiz, beshak, begumon, modomiki, ehtimol, balki, tabiiyki, tabiiy holda, tabiatan, xususan, albatta, turgan gap, o'zidan-o'zi, o'z-o'zidan, shunchaki.

CONCLUSION

The comparative analysis of English and Uzbek irrealis markers reveals significant insights into the ways unreality is grammatically and lexically encoded in typologically unrelated languages. While both languages exhibit a shared functional goal—distinguishing real from hypothetical or non-actual events—they do so through divergent morphosyntactic strategies shaped by their respective grammatical systems.

English primarily utilizes verb moods (especially the subjunctive and conditional), modal auxiliaries, and certain adverbs to express irrealis meanings. In contrast, Uzbek demonstrates a broader lexical and morphosyntactic range, including modal verbs, conjunctions, particles, and indefinite pronouns, with a notable trend toward analyticity in recent usage. This shift suggests a typological evolution in Uzbek from synthetic forms—traditionally dominant in Turkic languages—toward more analytic constructions that mirror certain Indo-European tendencies.

Furthermore, comparative research involving additional non-related languages could test the universality of irrealis categories and refine typological generalizations. Finally, a deeper exploration of pragmatic and discourse-level functions of irrealis—especially in narrative, legal, and persuasive texts—may yield new insights into how unreality shapes human communication across cultures.

LITERATURE

1. Ionin T., Montrul S. *Subjunctive Mood // Second Language Acquisition*. - Cambridge: Cambridge University Press, 2022. - P. 45–60.
2. Baunaz L., Puskás G. *A Cross-linguistic Approach to the Syntax of Subjunctive Mood*. Springer Nature. 2022. - P. 102–120.


3. Boltakulova G.F. Chog‘ishtirma lingvistika. - Samarqand: SamDChTI nashriyoti, 2024. - P. 13–27.
4. Chubaryan A., Karapetyan R. The Subjunctive Mood: a Linguo-Cultural Approach // Armenian Folia Anglistika. Vol. 5, No. 1-2. 2009. - P. 208–213.
5. Skorasińska M. Modal Verbs and Modality in Literary and Non-Literary Texts. - Cambridge: Cambridge Scholars Publishing. 2020. - P. 33–49.
6. Bessala G., Moguo F. The Conditional Mood in Ghomála’ // Studies in African Linguistics. Vol. 46, No. 1 & 2. 2017. - P. 110–128.
7. Rasulov N. Expressing a Propositional Meaning in the Category of Realis/Irrealis (in the Example of the English and Uzbek Languages) // Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences. - Samarkand: Publishing House of Samarkand State Institute of Foreign Languages, 2024. - P. 234–238.
8. Karimova G. Conditional Relationships in Current Uzbek and English // Uzbek Scholar Journal. 2025. - P. 1–5.
9. Ochilova N.F. Functional composition of irrealis // Yashil Iqtisodiyot va Taraqqiyot. 2023. - P. 12–22.
10. Mukhamadiyev A.Sh., Zokirova T.D. The Grammatical Category of Mood in English and Uzbek // Masters. 2024. - P. 24–38.
11. Danielsen S., Terhart L. Realis/irrealis as a basic grammatical distinction in Southern Arawakan languages // Revue de Sémantique et Pragmatique. 2015. - P. 97–120.

Raufjon Maxmudov

filologiya fanlari doktori (DSc), katta ilmiy xodim,

Yulduz Abdullayeva,

Urganch Ranch universiteti magistranti

HARBIY TERMINLARNING SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISH BOSQICHLARI <http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.00000000>**ANNOTATSIYA**

Ushbu maqolada o'zbek va ingliz tillarida uchraydigan ayrim harbiy atamalarning leksik-semantik xususiyatlari, etimologiyasi aniqlangan. Harbiy atamalarning shakllanish va rivojlanish bosqichlari ochib berilgan

Kalit so'zlar: tarixiy leksika, etimologiya, harbiy leksika, tarixiy manba, leksik qatlam, etimologik tahlil.

АННОТАЦИЯ

В данной статье определены лексико-семантические особенности, этимология некоторых военных терминов, встречающихся в узбекском и английском языках. Раскрыты этапы становления и развития военных терминов

Ключевые слова: историческая лексика, этимология, военная лексика, исторический источник, лексический слой, этимологический анализ.

ANNOTATION

This article defines the lexical and semantic features, etymology of some military terms found in Uzbek and English. The stages of formation and development of military terms are revealed.

Key words: historical vocabulary, etymology, military vocabulary, historical source, lexical layer, etymological analysis.

Zamonaviy tilshunoslikda terminologiya masalalari, xususan, sohaviy terminlarning shakllanishi, rivoji va umumtil leksikasi bilan o'zaro munosabati muhim ilmiy muammolardan biri hisoblanadi. Harbiy terminologiya jamiyat taraqqiyoti, davlat boshqaruvi va mudofaa tizimi bilan bevosita bog'liq bo'lgan maxsus leksik qatlam sifatida alohida e'tibor talab qiladi. Harbiy terminlar tilning nafaqat leksik-semantik tizimini, balki uning tarixiy, madaniy va ijtimoiy taraqqiyot bosqichlarini ham aks ettiradi.

O'zbek va ingliz tillaridagi harbiy terminlarning qiyosiy o'rganilishi ikki xil tarixiy-madaniy muhitda shakllangan terminologik tizimlarning umumiy va farqli jihatlarini aniqlash imkonini beradi.

Tadqiqotdan asosiy maqsad – o'zbek va ingliz tillaridagi harbiy terminlarning lingvistik xususiyatlarini aniqlash, ularning umumtil leksikasidan farqli jihatlarini asoslash hamda tarixiy taraqqiyot bosqichlarini tizimli tahlil qilishdan iborat. Ushbu maqsadni amalga oshirish uchun qiyosiy-tarixiy, etimologik, semantik va tavsifiy metodlardan foydalanildi.

Til leksik tizimi umumtil va maxsus (terminologik) qatlamlardan tashkil topadi. Umumtil leksikasi kundalik nutqda keng qo'llaniladigan, ko'pma'nolilik va obrazlilikka moyil bo'lgan so'zlardan iborat bo'lsa, terminologik leksika muayyan soha doirasida ishlatiladigan, ma'nosi qat'iy belgilangan birliklarni qamrab oladi. A.A. Reformatskiy termini «ma'nosi aniq, kontekstdan nisbatan mustaqil bo'lgan va ilmiy tushunchani ifodalovchi til birligi» sifatida ta'riflaydi (Reformatskiy, 1967, 45-b.).

Harbiy terminlar ana shu belgilar asosida umumtil so'zlaridan farqlanadi. Masalan, o'zbek tilidagi jang, front yoki ingliz tilidagi operation, command birliklari umumtil nutqida ham qo'llanishi mumkin, biroq harbiy sohada ular tor va aniq ma'noda terminlashgan.

Umumtil leksikasiga xos bo'lgan polisemantiklik terminologiyada cheklangan bo'ladi. Harbiy terminlar asosan monosemantik xususiyatga ega bo'lib, bitta aniq tushunchani ifodalaydi. Bu holat harbiy sohada noaniqlik va ikkiyoqlamalikka yo'l qo'yimaslik zarurati bilan izohlanadi. Masalan, ingliz tilidagi brigade yoki o'zbek tilidagi brigada terminlari faqat ma'lum harbiy tuzilmani anglatadi.

Harbiy terminlar asosan rasmiy-uslubga mansub bo'lib, harbiy hujjatlar, buyruqlar, nizomlar va ilmiy tavsiflarda qo'llaniladi. Umumtil leksikasida esa so'zlar emotsional va ekspressiv bo'lishi mumkin. Masalan, harbiy holat / martial law terminlari faqat rasmiy-huquqiy kontekstda ishlatiladi.

Harbiy terminologiya yuqori darajada normativ va standartlashgan tizimdir. Terminlar maxsus lug'atlar, nizomlar va xalqaro standartlar orqali mustahkamlanadi. Ingliz tilida NATO terminologik me'yorlari, o'zbek tilida esa davlat terminologiya siyosati bu jarayonni ta'minlaydi.

Ayrim harbiy terminlar vaqt o'tishi bilan umumtil leksikasiga singib ketadi. Bu jarayon determinologizatsiya deb yuritiladi. Masalan, strategiya, front so'zlari bugungi kunda harbiy sohadan tashqarida ham faol qo'llanilmoqda.

Harbiy terminologiyaning dastlabki qatlamlari insoniyat tarixidagi ilk qurolli to'qnashuvlar bilan bog'liq. O'zbek harbiy terminologiyasining qadimgi ildizlari turkiy manbalarga borib taqaladi. Orxon–Enasoy bitiklarida er (jangchi), sü (qo'shin), yağı (dushman), alp (bahodir) kabi terminlar qayd etilgan (Malov, 1951, 112–115-b.).

Ingliz tilida esa qadimgi german tillari asosida here (qo'shin), cempa (jangchi), sweord (qilich), sciold (qalqon) kabi birliklar shakllangan (Baugh & Cable, 2002, 78–81-b.). Bu terminlar real predmet va harakatlarni ifodalaganligi bilan xarakterlanadi.

O'rta asrlarda harbiy terminologiya davlat va harbiy ierarxiya bilan birga rivojlandi. O'zbek tilida arab va fors tillaridan lashkar, sipoh, amir, sardor kabi terminlar o'zlashdi (Rahmatullayev, 2006, 201–205-b.). Bu terminlar yangi siyosiy-harbiy tushunchalarni ifodalagan.

Ingliz tilida Norman istilosidan so'ng fransuz va lotin manbali army, battle, soldier, officer, captain kabi terminlar keng qo'llanila boshladi (Crystal, 2019, 164–166-b.). Natijada ingliz harbiy terminologiyasida ikki qatlamli tizim yuzaga keldi.

Yangi davrda texnika va harbiy strategiya rivoji natijasida yangi terminlar paydo bo'ldi. XX asrda tank, aviatsiya, raketa, missile, drone kabi internatsional terminlar o'zbek va ingliz tillariga kirib keldi. Bu davr harbiy terminologiyasi global xarakter kasb etdi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, harbiy terminlar umumtil leksikasidan semantik aniqligi, funksional cheklanganligi va normativligi bilan farqlanadi. O'zbek va ingliz tillaridagi harbiy terminologiya tarixiy taraqqiyot jarayonida turli madaniy va siyosiy omillar ta'sirida shakllangan bo'lsa-da, ularni umumiy qonuniyatlar birlashtirib turadi. Harbiy terminlarning tarixiy rivoji tilning jamiyat bilan uzviy bog'liqligini yana bir bor tasdiqlaydi.

Til — millat tafakkuri, tarixiy xotirasi va madaniy o'zligining eng muhim ko'zgidir. Har bir xalq tilida shakllangan terminologik tizimlar, xususan, harbiy terminologiya millatning tarixiy taraqqiyoti, davlatchiligi, siyosiy tuzumi va harbiy san'ati bilan bevosita bog'liq holda vujudga keladi. O'zbek tilidagi harbiy atamalar ham xalqimizning ko'p asrlik harbiy-siyosiy tajribasi, jangovar madaniyati va davlatchilik an'analari mahsulidir.

O'zbek tilshunosligida harbiy terminologiya masalalari muayyan darajada tadqiq etilgan bo'lsa-da, tub (asl turkiy) harbiy atamalarni kompleks, sistemali va tarixiy-etimologik nuqtayi nazardan o'rganish hanuz dolzarbligicha qolmoqda. Chunki zamonaviy o'zbek harbiy leksikasi

tarkibida arab, fors-tojik, rus va xalqaro o'zlashmalar bilan bir qatorda, qadimgi turkiy davrga mansub bo'lgan tub atamalar muhim qatlamni tashkil etadi.

Tilshunoslikda tub so'zlar deganda boshqa tillardan o'zlashmagan, muayyan tilning ichki imkoniyatlari asosida shakllangan leksik birliklar tushuniladi. Turkiy tillarda bunday so'zlar qadimgi umumturkiy ildizlarga borib taqaladi (Rahmatullayev, 2003).

Tub harbiy atamalar esa harbiy soha bilan bog'liq bo'lib, turkiy tillarning eng qadimgi qatlamida shakllangan va tarixan harbiy faoliyatni ifodalagan terminlardir.

Masalan: urush, jang, qo'shin, lashkar, nayza, qilich, o'q, yoy

Bu atamalar fonetik va semantik jihatdan turkiy til qonuniyatlariga to'la mos keladi.

Harbiy terminologiya — maxsus leksik tizim bo'lib, davlat, siyosat va mudofaa bilan uzviy bog'liq. O'zbek tilida harbiy terminlar:

1. Umumxalq leksikasi;
2. Kasbiy terminologiya;
3. Tarixiy leksika kabi qatlamlar bilan chambarchas aloqada rivojlangan.

O'rxun-Enasoy bitiklari turkiy xalqlarning harbiy terminologiyasi shakllangan eng qadimgi yozma manbalardir. Ushbu yodgorliklarda quyidagi tub harbiy atamalar uchraydi: sü — qo'shin, yağı — dushman, ur- — urmoq, jang qilmoq, er — jangchi, bahodir

Masalan: “Türk bodun süsi keldi...” (Kül Tegin bitigi). Bu atamalar bugungi o'zbek tilida qo'shin, yov, urmoq, er shaklida yashab kelmoqda.

“Qutadg'u bilig”, “Devonu lug'otit turk”, “Xamsa”, “Boburnoma” kabi manbalarda harbiy leksika keng qo'llangan: sipoh (keyinchalik o'zlashma bo'lsa-da), lashkar, sarboz, qorovul, tuman

Ayniqsa, “Devonu lug'otit turk” asari harbiy terminologiyani o'rganishda bebaho manbadir (Mahmud Koshg'ariy, XI asr).

Tub harbiy atamalarning leksik-semantik guruhlari.

Harbiy harakatni bildiruvchi atamalar: urush, jang, to'qnashuv, bosqin, hujum

Harbiy shaxs va lavozimlar: er, bahodir, sardor, qo'mondon, qorovul

Qurol-aslahaga oid atamalar: qilich, nayza, o'q, yoy, qalqon

Bu atamalar moddiy madaniyat bilan bog'liq bo'lib, turkiy xalqlarning jangovar an'analarini aks ettiradi.

Bugungi o'zbek harbiy leksikasida tub atamalar:

1. Faol (jang, qo'shin, hujum)
2. Tarixiy (nayza, qilich) qatlamlarga bo'linadi.

Tub harbiy atamalar milliy terminologiyani boyitish va begona unsurlarga qarshi muhim vosita hisoblanadi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, o'zbek tilidagi tub harbiy atamalar xalqimizning ko'p asrlilik davlatchilik va harbiy tajribasi mahsulidir. Ular qadimgi turkiy davrdan boshlab hozirgi kungacha uzluksiz rivojlanib kelmoqda. Tub harbiy terminlar o'zbek tilining milliy qiyofasini saqlashda va harbiy terminologiyani normallashtirishda muhim ahamiyatga ega.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR


1. Mahmud Koshg'ariy. Devonu lug'otit turk. — Toshkent: Fan, 1963.
2. Rahmatullayev Sh. O'zbek tilining etimologik lug'ati. — Toshkent: Universitet, 2003.
3. Qayumov A. Qadimgi turkiy til. — Toshkent: Fan, 1998.
4. Abdurahmonov G'. O'zbek tili leksikologiyasi. — Toshkent: O'qituvchi, 1981.
5. Baskakov N.A. Turkiy tillar tarixi. — Moskva, 1969.
6. Ahmedov B. O'zbek davlatchiligi tarixi. — Toshkent: Sharq, 2001.
7. Ismoilov I. Harbiy terminologiya masalalari. — Toshkent: Fan, 2015.
8. Reformatskiy A.A. Terminologiya masalalari. — Moskva, 1967.
9. Malov S.E. Yeniseyskaya pismennost tyurkov. — Moskva–Leningrad, 1951.
10. Rahmatullayev Sh. O'zbek tilining etimologik lug'ati. — Toshkent, 2006.
11. Baugh A.C., Cable T. A History of the English Language. — London, 2002.
12. Crystal D. The Cambridge Encyclopedia of the English Language. — Cambridge, 2019.

Eshchanova Temur Saparmat o'g'li

Urganch davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi

temur@urdu.uz

MUMTOZ MATNLAR MORFEMIKASINI RAQAMLI TAHLIL QILISH USULLARI (OGAHIIY ASARLARI MISOLIDA)

 <http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.00000000>

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada Muhammad Rizo Ogahiyning g'azallarida matnlar morfemikasini raqamli tahlil qilish usullari ilmiy-lingvistik asosda tadqiq etiladi. Ishda shoirning "Zihi jonlarga vasling shavqidin..." g'azali asosida so'zlarning morfemik ajralishi, ildiz va affiksalar o'rtasidagi semantik bog'lanish, shuningdek, morfemik-semantik modelni raqamli shaklda ifodalashga doir yondashuvlar tahlil qilingan. Morfemik tahlilning zamonaviy kompyuter lingvistikasidagi o'rni, NLP (Natural Language Processing) texnologiyalarini qo'llash imkoniyatlari, poetik matnlarni avtomatlashtirilgan morfemik tahlil qilishning ilmiy va falsafiy ahamiyati yoritilgan.

Kalit so'zlar: Ogahiy, morfemika, ildiz, affiks, semantik model, g'azal tili, avtomatlashtirish, NLP, tasavvuf.

АННОТАЦИЯ

В данной статье исследуются методы цифрового морфемного анализа текстов в газелях Мухаммада Ризо Огахий с научно-лингвистической точки зрения. На основе газели «Зихи жанларга васлинг шавқидин...» рассматриваются морфемное членение слов, семантические связи между корнем и аффиксами, а также подходы к цифровому моделированию морфемно-семантической структуры. Освещено значение морфемного анализа в современной компьютерной лингвистике, возможности применения технологий NLP и философско-научная значимость автоматизированного анализа поэтических текстов.

Ключевые слова: Огахий, морфемика, корень, аффикс, семантическая модель, язык газелей, автоматизация, NLP, суфизм.

ABSTRACT

This paper explores digital methods for morphemic analysis of poetic texts in the ghazals of Muhammad Rizo Ogahiy from a linguistic and technological perspective. Based on the poem "Zihi jonlarga vasling shavqidin...", the study examines word segmentation into morphemes, semantic relations between roots and affixes, and approaches to representing morphemic-semantic models in digital form. The research highlights the role of morphemic analysis in modern computational linguistics, the potential of NLP (Natural Language Processing) technologies, and the scientific and philosophical significance of automated morphemic analysis of poetic texts.

Keywords: Ogahiy, morphemics, root, affix, semantic model, ghazal language, automation, NLP, Sufism.

Kirish. “Axborot texnologiyalari shiddat bilan rivojlanib borayotgan bugungi kunda alohida bir soha taraqqiyotini an’anaviy tushunchalar doirasidagina tasavvur qilishga urinish o‘ziga xos soddadillik bo‘lib ko‘ringani bilan, uzoq muddatda, jiddiy muammolarga olib kelishi mumkin”[1]. Tilshunoslikda morfemika tildagi eng kichik ma’no birligi bo‘lgan morfemani o‘rganadi. Har bir tilning morfemik tuzilmasi uning tafakkur tizimini, dunyoqarashini va madaniy kodini ifodalaydi. O‘zbek tilining tarixiy rivojida mumtoz adabiyot tili, ayniqsa, Ogahiy ijodi morfemik boylik va semantik xilma-xillikning eng yorqin namunalaridan biridir.

Muhammad Rizo Ogahiy Xorazm adabiy muhitining yirik vakili, mumtoz she’riyatni ijtimoiy-falsafiy va tilshunoslik darajasiga ko‘targan mutafakkirdir. Uning tili grammatik mukammallikdan tashqari, semantik noziklik, morfemik uyg‘unlik va falsafiy teranlik bilan ajralib turadi. Ogahiy g‘azallarida affikslar oddiy grammatik vosita emas, balki ma’no rezonansini yaratadigan semantik ko‘priklardir.

Bugungi kunda tabiiy tilni qayta ishlash (NLP) texnologiyalari tilshunoslikning eng faol yo‘nalishlaridan biridir. Kompyuter lingvistikasi so‘zlarning morfemik tarkibini tahlil qilish orqali semantik tarmoqlanish, sintaktik bog‘lanish va kontekstual ma’noni avtomatik aniqlash imkonini beradi. Ayniqsa, o‘zbek tilida morfemik tahlil algoritmlarini ishlab chiqish, ularni poetik matnlarga moslashtirish ilmiy jihatdan dolzarb masala hisoblanadi.

Shu bois, ushbu tadqiqotda Ogahiy g‘azallari tilining morfemik tuzilmasi zamonaviy kompyuter lingvistika yondashuvlari yordamida o‘rganildi. Ishning asosiy maqsadi morfemalarning semantik o‘zaro aloqasini avtomatik tahlil qilish va ularni raqamli model shaklida tasvirlashdir.

Metodologiya. “Morfema - leksemdan ajralgan holda o‘z mohiyatini namoyon qila olmaydigan, shakl va denotativ bo‘lmagan mazmunning birligidan iborat bo‘lgan kichik lisoniy birlik”[2]. Tadqiqotning nazariy asosi o‘zbek morfemikasining klassik tamoyillariga, shuningdek, korpus lingvistikasining amaliy modellariga tayangan. Ishda quyidagi bosqichlar amalga oshirildi:

1. Matn tanlash va raqamlashtirish (Ogahiyning “Zihi jonlarga‘a vasling shavqidin aysh-u tarab paydo...” g‘azali asos sifatida tanlandi. G‘azal OCR texnologiyasi yordamida raqamlashtirildi va har bir satr tokenlarga ajratildi).

2. Morfemik segmentatsiya (har bir so‘z ildiz va affikslarga ajratildi hamda segmentatsiya uchun BERT asosidagi modelning “token classification” arxitekturasi qo‘llanildi).

3. Lemmatizatsiya (so‘z shakllari asosiy lug‘aviy shaklga keltirildi).

4. Morfemik teglash (har bir morfema uchun quyidagi atributlar belgilandi: morfema_turi (ildiz/affiks), grammatik_vazifa, semantik_rol).

5. Semantik klasterlash (morfemalar vektorli ifoda (embedding) orqali semantik o‘xshashlik asosida guruhlandi).

Tizim “OgahiyMorphAnalyzer” deb nomlangan eksperimental modelda sinovdan o‘tkazildi. Model Python muhitida ishlab chiqilib, tokenlash, stemming, semantik vektorlashtirish va morfemik teg belgilash modullaridan iborat.

Eksperimental tahlil uchun 512 ta leksik birlik tanlandi. Har bir so‘z ildiz va affikslar darajasida segmentatsiya qilindi va ular uchun semantik teglar qo‘llandi. **Misol: ishq** →

<morfema_turi=ildiz>, <semantik_rol=ruhiy holat>

Natijalar. Ogahiy g‘azallaridagi morfemik tuzilma ikki asosiy yo‘nalishda namoyon bo‘ldi:

1. Grammatik-morfemik daraja (so‘zning shakliy tuzilishini ifodalaydi).

2. Semantik-morfemik daraja (so‘zning ma’no rezonansini yaratadi).

Masalan, shoirning quyidagi baytini tahlil qilamiz:

Zihi jonlarga‘a vasling shavqidin aysh-u tarab paydo,

Gahi dard-u firoqing xavfidin ranj-u taab paydo.

Bu baytda “jonlarga‘a” so‘zi ildiz (jon) va qo‘shimchalar (-lar, -g‘a) orqali emotsional kuchaytirish effektini beradi. “Vasling” so‘zida “vasl” ildiziga egalik affiksi “-ing” qo‘shilib, “sening visoling” ma’nosi hosil bo‘ladi. “A ysh-u tarab” birikmasida esa -u bog‘lovchi affiksi ritmik ohangni ta’minlab, ikkita sinonimik so‘zni semantik jihatdan birlashtiradi.

Avtomatik model bu so‘zlarni quyidagicha tahlil qildi:

So‘z	Ildiz	Affiks	Semantik roli	Funksiya
------	-------	--------	---------------	----------

vasling	vasl	-ing	egalik	murojaat, yaqinlik
firoqing	firoq	-ing	egalik	ayriliq, og'riq
taab	taab	-	ildiz	azob, mashaqqat
aysh-u	aysh	-u	bog'lovchi	rohat va shodlikni birlashtiruvchi

Bu ma'lumotlar asosida Ogahiy so'zlarining morfemik tizimi semantik paralelizm tamoyiliga asoslanishi isbotlandi, ya'ni har bir baytda qarama-qarshi ma'nodagi morfemalar muvofiqlik asosida joylashgan.

Avtomatik tizimda 500 dan ortiq so'z shakli tahlil qilindi. Ildiz ajratish aniqligi 92,6%, affiks aniqlash aniqligi esa 89,3% ni tashkil etdi. Eng yuqori aniqlik "-lik", "-g'a", "-on" affiksalarida kuzatildi.

Morfemalarning semantik klasterlari quyidagicha shakllandi:

1. Ishqiy-semantik klaster(namuna: ishq, vasl, firoq, muhtalo, jon).
2. Go'zallik klasteri(namuna: husn, jamol, sarv, bemisol, oroyish).
3. Tuyg'usiy klaster(namuna: ranj, taab, tab, larz).

"Edi ishqingg'a jonlar muhtalo ul chog'dakim erdi" satrida "ishqingg'a" so'zi (ishq + ing + ga) morfemik jihatdan "egalik + yo'nalish" kombinatsiyasi bilan iltijo ohangini yaratadi. NLP modelida bu so'z "iltijo semantikasi" sifatida tasniflandi.

Muhokama. "Kompyuter lingvistikasi nutqni va matnlarni tadqiq qilishning kompyuter usullarini taqdim etar ekan, psixologiya, mantiq, sotsiolingvistika kabi fanlar qatorida sun'iy intellekt ko'rinishlarini ham qamrab oladi"[3]. Avtomatlashtirilgan morfemik tahlil shuni ko'rsatadiki, Ogahiy tili morfemik jihatdan ikki darajali tizimdir: grammatik shakl va ruhiy ma'no birlashgan holatda mavjud. Har bir affiks grammatik funktsiyasidan tashqari semantik yuk ham olib yuradi.

Masalan, "mazhar aylading olamni husni bemisolingg'a" satrida "bemisolingg'a" so'zi "be" (inkor prefiksi) + "misol" (ildiz) + "ing" (egalik) + "ga" (yo'nalish) morfemalaridan tashkil topgan. Bu so'zning semantik strukturasi "tengsiz go'zallikka yo'nalish" ma'nosi yotadi.

Shuningdek, "Birov husn ichra topti sarvdek oroyishi qomat, birov ishq ichra qildi qumrioso larz-u tab paydo" baytida "qumrioso" so'zi "qumri" ildiziga "-oso" affiksi qo'shilishi orqali tashbeh (o'xshatish) hosil qiladi. Bu affiks "-dek", "-sifat" singari qiyoslov ma'nosini ifodalaydi.

Avtomatik tahlil jarayonida bunday affikslar **semantik toifalar** asosida tasniflandi:

1. Grammatik affikslar (-ga, -da, -ning, -ni);
2. Ma'no kuchaytiruvchi affikslar (-on, -lik, -dor);
3. Poetik-falsafiy affikslar (-oso, -g'a, -o).

Ogahiy g'azallarining morfemik tizimi **semantik ritm** tamoyiliga asoslangan. Har bir baytda morfemalar soni simmetrik joylashgan bo'lib, fonetik ohang va morfemik takror uyg'unlikda ishlaydi. Bu hol "fonetik-morfemik paralelizm" deb ataladi.

Avtomatik tizim har bir satrda o'rtacha 8 morfema mavjudligini aniqladi. Morfemalar orasidagi semantik bog'liqlik "cosine similarity" orqali o'lchanganda, "ishq" va "firoq" o'rtasida 0.79, "vasl" va "jon" o'rtasida 0.83 qiymat qayd etildi. Bu shoirning semantik makonini vektorli modellashtirish imkonini beradi.

Xulosa. Tadqiqot natijalari quyidagilarni ko'rsatdi:

1. Ogahiy g'azallarining morfemik tuzilmasi grammatikdan ko'ra semantik tizimga yaqin.
2. Har bir affiks poetik matnda semantik rezonans yaratadi — grammatik qo'shimcha badiiy obrazga aylanadi.
3. Avtomatik morfemik tahlil yordamida Ogahiy tilining ildiz-affiks kombinatsiyalari 90% dan yuqori aniqlikda aniqlandi.
4. Morfemalarning semantik klasterlash natijasida "ishqiy", "go'zallik", "ruhiy holat" kabi poetik semantemalar hosil bo'ldi.
5. Tadqiqot natijalari asosida "OgahiyMorphAnalyzer" modeli ishlab chiqildi, bu model o'zbek tili uchun ilk poetik morfemik korpus yaratishga asos bo'ldi.

Shunday qilib, Ogahiy g‘azallarining morfemik tuzilishini avtomatlashtirilgan tahlil qilish o‘zbek tilshunosligi uchun nafaqat ilmiy, balki metodologik jihatdan ham yangilik hisoblanadi. Bu yondashuv mumtoz matnlarni raqamli ko‘rinishda qayta talqin qilish, semantik modellashtirish va poetik tahlilni kompyuter yordamida amalga oshirish imkonini beradi. “NLP (tabiiy tilni qayta ishlash) kompyuter lingvistikasida tabiiy tillarning kompyuter analizi va sintezini o‘z ichiga oladi. Bunda analiz tabiiy tilning kompyuterda morfologik, sintaktik va semantik tahlil yordamida tushunilishiga nisbatan ishlatiladi, sintez esa kompyuterda matnning grammatik shakllantirilishi va generatsiyasi (hosil qilinishi) demakdir”[4].

Foydalanilgan adabiyotlar


1. Jo‘rayev, J. O‘zbek tili korpusini yaratish: muammolar halqasi va yechimlar // Kompyuter lingvistikasi: muammolar, yechimlar, istiqbollar. – Toshkent : Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti, 2021. – Vol. 1, № 1. – B. 10-15.
2. Sayfullayeva, R. R., Mengliyev, B. R., Raupova, L. R., Qurbvonova, M. M., Abuzalova, M. Q., Yo‘ldosheva, D. N. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. – Toshkent : Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi, 2020. – 460 b.
3. Xolmanova, Z. Sun‘iy intellekt: BORIS // Kompyuter lingvistikasi: muammolar, yechimlar, istiqbollar. – Toshkent : Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti, 2023. – Vol. 1, № 1. – B. 30-35.
4. Xolmanova, Z. T. Kompyuter lingvistikasi : o‘quv qo‘llanma. – Toshkent : Asian Book House, 2020. – 198 b.

TARIX

Ro'zmetova Roziyajon Baxram qizi

Ma'mun universiteti Tarix kafedrası o'qituvchisi,
UrDu mustaqil tadqiqotchisi
roziyajonrozmetova05@gmail.com

XORAZM XALQ OG'ZAKI IJODIDA AKS ETGAN BA'ZI RAMZLAR TIZIMI VA ULARNING MA'NAVYI ILDIZLARI

 <http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.00000000>

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada Xorazm vohasi xalq og'zaki ijodida muhim o'rin tutgan ramzlar va ularning ijtimoiy-ma'naviy mazmuni tahlil qilindi. Afsona rivoyat, doston va maqollarida uchraydigan ot, anor, bodom, qizil gul, tosh kabi ramzlarning ma'nolari ular qo'llanilgan namunalar orqali ochib berildi.

KALIT SO'ZLAR: Xalq og'zaki ijodi, ramzlar, "Sayyodxon va Hamro", ot timsoli, doston, ertak, To'rabekxonim, G.P. Snesev, G'irov.

KIRISH VA DOLZARBLIGI. Inson qadimdan atrof-muhitda ro'y berayotgan voqea-hodisalarga o'z munosabatini bildirgan. Bu munosabat, avvalo, turli xatti-harakatlar, ovozlari, ehtirolar vositasida amalga oshgan. Keyinchalik, so'zlar, so'z yig'indisi, raqslar his-tuyg'ularni ifodalagan. Yana keyinroq, odamlar o'zlaricha dunyoning, tabiatning, hayvonlar, o'simliklar, tog'lar, suvlarning paydo bo'lishini izohlovchi to'qima hikoyalar o'ylab topadilar. Yigitlar, qizlar muhabbat qo'shiqlarini to'qiydilar. Vaqt o'tib, qabila-urug'ning mard va jasur yigitlari, ularning g'aroyib qahramonliklari haqida afsona va rivoyatlar paydo bo'ladi. Bularning hammasi hali yozuv madaniyati vujudga kelmasdan oldin jamoa-jamoa bo'lib yashayotgan aholi o'rtasida shuhrat topadi. Bugungi kunda esa bularning barchasi "xalq og'zaki ijodi" deb tilga olinadi.

Globalashuv jarayonlari kuchayib borayotgan hozirgi davrda milliy madaniy merosni asrash, uni ilmiy asosda o'rganish va kelajak avlodga yetkazish masalasi alohida dolzarblik kasb etmoqda. Shu nuqtayi nazardan, Xorazm vohasi xalq og'zaki ijodida aks etgan ramzlarni tadqiq etish xalqning tarixiy xotirasi, qadimiy dunyoqarashi va ma'naviy qadriyatlarini anglashda muhim ahamiyatga ega.

Xalq og'zaki ijodida ota-bobolarimizning aytmoqchi bo'lgan pand nasihatlarini, el e'zozlagan odam bo'lishning talab-qoidalari, Alp Erto'nga, To'maris, Shiroq, Alpomish, Jaloliddin Manguberdi, Temur Malik kabi ajoyib yurt farzandlarining botirliklari, xalqimizning urf-odatlarini, milliy fazilatlarimiz haqida san'at darajasiga ko'tarilgan so'z tizimlaridan iborat maqol, qo'shiq, ertak, doston, bolalarga bag'ishlangan asarlar va boshqa janrlardagi namunalarda o'z ifodasini topadi. Mana shu namunalarda ramzlar va ramziy obrazlar o'rin olgan. Ramzlar barcha xalqlar folklori va adabiyotida qadimdan mavjud. Ramziy obrazlarning o'zi muayyan bir tizimni tashkil etadi va ba'zi hollarda ko'pchilik xalqlar adabiyoti va san'atida mushtarak mazmunni ifodalaydi. Masalan: gul - go'zallik, sevgi ramzi, bulbul - oshiq, sadoqat ramzi, tulki - ayyorlik ramzi, sher - mardlik ramzi, oq rang - poklik ramzi.

Xalq og‘zaki ijodi oddiy mehnatkash xalq tomonidan yaratilgan ijoddir. Xalq badiiy faoliyatining tarkibiy qismi hisoblangan folklor asarlari xalq san‘atining boshqa turlaridan: musiqa, teatr, raqs, tasviriy va amaliy san‘at hamda boshqalardan og‘zaki so‘z san‘ati ekanligi bilan ajralib turadi. U og‘izdan og‘izga, avloddan avlodga, davrdan davrga o‘tib, xalqning iste‘dodli vakillari ijrosida sayqal topadi. Xalq og‘zaki ijodi namunalari dastlab qanday yaratilgan bo‘lsa, o‘z holicha saqlanib qolmay, balki, ijod davomida o‘zgaradi, qayta ishlanib talqin qilinadi, yangi-yangi ma‘lumotlar bilan boyitiladi, tarixiy sharoitga moslashib, yozma adabiyotga ijobiy ta‘sir etadi. Xalq og‘zaki ijodi ilmda folklor deb ataladi. Folklor namunalariga maqol, topishmoq, lof, askiya, latifa, qo‘shiq, ertak, dostonlar kiradi.

Folklordagi ramzlar ko‘pincha an‘anaviy shaklda bo‘lib, yangi ramzlarning paydo bo‘lishi asta-sekinlik bilan kechadi. Xalq og‘zaki ijodida muayyan bir ijodkorga tegishli individual ramz mavjud emas. Shunday ekan, an‘anaviylik, ommaviylik, bir janrga doir asarlar doirasida turg‘un ma‘no kasb etish kabi xossalar folklordagi ramzlarning asosiy belgisidir [1. –B. 409-414.].

Xorazm vohasi o‘zining qadimiy madaniyati, og‘zaki ijodiy merosi va boy ramziy dunyoqarashi bilan ajralib turadi. Bu mintaqaning xalq og‘zaki ijodi - dostonlar, ertaklar, afsonalar, maqollar, topishmoqlar va xalq qo‘shiqlarida xalqning tarixiy tajribasi, hayotga bo‘lgan qarashi, e‘tiqodlari va orzu-umidlari ramzlar orqali badiiy ifodalanadi.

Xalq og‘zaki ijodi xalq ruhiyatining, tarixiy xotirasining, orzu-umid va tasavvurlarining ifodasidir. Xorazm vohasi og‘zaki ijodiy merosida ramz va timsollar katta o‘rin egallaydi. Ular xalqning hayotiy tajribasi va ma‘naviy qadriyatlarini aks ettirib, asrlar davomida shakllanib kelgan. Xorazmda xalq og‘zaki ijodining folklor ijrochiligi yaxshi rivojlangan bo‘lib, bu soha qadimdan to hozirgacha musiqiyli, o‘ynoqiligi, raqsbobligiga ko‘ra, boshqa hududlar folklor ijrochiligidan farq qiladi.

Xalq og‘zaki ijodining eng yirik namunasi dostonlar tashkil etgan holda, xalq dostonlarida ham ramzlardan unumli foydalaniladi. Xorazm vohasida eng mashhur dostonlar sifatida “Oshiq G‘arib va Shohsanam”, “Oshiq Oydin”, “Bozirgon” kabi dostonlar, shuningdek, “Avazxon”, “Sayyodxon va Hamro”, “Qorako‘z oyim”, “Gulrux pari”, “Shobahrom”, “Zavriyo”, “Yusuf Ahmad”, “Qirq ming” kabilar mahorat bilan ijro etiladi. Ular Xorazm xalqi og‘zaki ijodining nodir boyligi hisoblanadi [2. –B. 99].

Natijalar va muhokama. Ot timsoli. Xalq og‘zaki ijodi namunalarida uchraydigan eng ko‘p timsollardan biri ot obrazi hisoblanadi. Ot timsoli qadimgi kishilarning turmush tirikchiligi bilan bevosita bog‘liqdir. U ramziy obraz sifatida otlarni xonakilashtirish, ulardan ish hayvoni sifatida xo‘jalikda foydalanish davomida yuzaga kelgan [3. –B. 11]. U odamning sodiq do‘sti, vafodori, og‘ir ishlarda madadkori, safarlarda hamrohi, jang-u jadalda, boshqa xavf-xatarli holatlarda ko‘pincha kishini o‘limdan saqlab qoluvchi ajoyib jonivordir [4. –B. 263]. Shu sababli, bu timsoli xalq og‘zaki ijodi namunalarida eng ko‘p uchraydigan ramziy obrazlardan hisoblanadi. Ot timsol sifatida ko‘pincha vafodorlik ramzi deb talqin qilinadi. Albatta, ot deganda ham inson ko‘z oldiga vafo, sadoqat tushunchalari keladi. Shu sababli ham, Xorazm dostonlarida ramziy o‘rinlarda ot timsolidan o‘rinli foydalaniladi.

Otlar har doim insonlarning do‘sti, yordamchisi bo‘lib kelganligiga real hayotda hamda dostonlar orqali ham guvoh bo‘lish mumkin. Chunonchi, Muhammad (s.a.v.)ning oti Buroq, Hazrati Alining Duldul, Alpomishning Boychibori, G‘o‘rog‘lining G‘iroti, Jaloliddin Manguberding Qora dali kabi otlari ularning hayotida katta ahamiyat kasb etganligi hech kimga sir emas.

Ot timsoli xalq og‘zaki ijodi namunalaridan ertaklarda ham eng ko‘p o‘rinlarda ishlatiladigan timsollardandir. Xususan, Xorazm ertaklari turkumiga kiruvchi To‘rabekxonim va Sulton Sanjar ertagida To‘rabekxonim o‘z yurtiga biyalar [5] orqali eson-omon qaytib keladi [6. –B. 9]. Unda ham ot qahramonning mushkulini oson qilib, vafodor jonzot ekanligini isbotlaydi. Dostonlarda ham ot qahramonning muvaffaqiyatga erishuvi yo‘lida xizmat qilib, g‘oyat mushkul vazifalarni bajaradi. Qahramon otga ega bo‘lganligi tufayli istagiga erishadi. Shu narsa xarakterliki, epik ot qatnashmagan bironta qahramonlik dostonini topish mushkuldir. Ot qahramonning safari va kurashlarida doimiy yo‘ldoshi, ishonchli qo‘ldoshi va yaqin do‘stidir [7. –B. 65]. Dostonlardagi ot obrazi epik qahramonning murod-maqsadiga eltuvchi kuch, o‘rni kelganda do‘st-yor, yo‘ldosh,

ishonch, suyanch, qahramonlik kabi ramziy ma'nolarni o'zida mujassamlashtiradi[1. –B. 409-414]. Shu o'rinda, Yunus pari dostonidan quyidagi to'rtlikni keltirish o'rindir:

Otdur yigitning yo'ldoshi
O'gildur davlatning boshi
Qiz ham bo'lsa ko'ngil xushi
Zurriyod kerakdur yigita.

Bu to'rtlikda Go'rog'li ot har doim yaxshi yomon kunida yo'ldoshi, do'sti ekanligini bildiradi. Go'ro'g'lining oti G'iro't bo'lib, safarga 40 yigiti bilan emas Oti G'iro't bilan birga ketadi:

Shay eting bari zotimni,
Egarlanglar G'iro'timni
Izlarman parizodimni

Omon bo'ling, qirq yigitim [8. –B. 58-60]

Darhaqiqat, qahramonlik dostonlarining barchasida ot bosh qahramonning haqiqiy do'sti sifatida har doim unga yordam beradi, hamroh bo'ladi, qiyin vaziyatlarda uni qutqarib joniga oro kiradi. Shuningdek, ot – er yigitning qanoti bo'lib, xalq dostonlarida sohibining yaqin ko'makchisi sifatida ta'riflanadi. Aytish mumkinki, Xorazmda ming otliq ma'nosiga ega tuman Hazorasping ham mavjudligi bejiz emas albatta. Demak, ot vafodor do'st timsolida Xorazm xalq og'zaki ijodida ham keng qo'llaniladi.

Qizil gul timsol. Gullar sevgi, qurbonlik va mistik kuchning ramzi sifatida xalq og'zaki ijodi janrlarida keng foydalaniladi. Mifologiya va folklorda qizil gullar ko'pincha qurbonlik, jasorat va o'lmas sevgini anglatadi. Yunon mifologiyasida qizil anemon guli sevgi va qurbonlik ramzi bo'lgan Adonisning qonidan paydo bo'lgan. Xuddi shunday, yapon folklorida qizil kamelya sevgini ifodalaydi, lekin o'lim bilan bog'liq bo'lib, hatto o'limdan keyin ham o'chmas va abadiy sevgini anglatadi[9]. Voha xalq og'zaki ijodi xususan, xalq qo'shiqlaridagi “qizil gul” detali lirik qahramonning poetik timsollaridan bir bo'lib, ko'pincha balog'atga yetgan qiz obrazining badiiy aniqlovchisi bo'lib keladi:

Qizil gul bo'lmagay edim,
Ochilib, so'lmagay edim,
Ochilib so'larim bilsam,
Onadan bo'lmagay edim[10. –B. 147].

Quyidagi to'rtlik ham shunga ishora qilyapti.

Man o'zim sig'indim pira
Bugun ko'nglim bo'ldi tiyra
Bulbul qo'ndi qizil gula
Nozli dildor uyon endi [11. –B. 8].

Shu o'rinda aytish joizki, o'zgarmas ramziy obrazlardan biri bulbul obrazi oshiq yigit ma'nosida kelmoqda. Quyidagi og'zaki ijod durdonasi ham bu fikrning dalilidir:

Qo'l tutishib birga bog'a girali
Bog' ichinda sollanishib yurali
Dasta-dasta qizil gullar terali
Bulbul hopolonib gul injilmasin[11. –B. 10]

Turli madaniyatlar va rivoyatlarda gullar o'zining nozik va o'tkinchi go'zalligi orqali hayot, o'lim, sevgi va o'zgarishning universal mavzularini o'zida mujassam etgan kuchli ramz bo'lib xizmat qiladi [9].

Olma, anor timsollari. Xalq qo'shiqlarida keng qo'llaniladigan timsollardan yana biri olmadir. Olma xalq qo'shiqlaridan tashqari doston va ertaklarda keng foydalaniladigan badiiy unsur hisoblanadi. Olma ko'pchilik hollarda farzand ramzi sifatida ishlatiladi. Shuningdek, Xorazm vohasi madaniyatida olma otish orqali yor tanlash marosimi ham mavjud bo'lgan va sevgi ramzi sifatida ham talqin qilinadi. Etnograf G.P. Snesev o'rgangan ma'lumotlari orasida xorazmliklar olma otish orqali yor tanlaganini va bu marosim Shovotda Ramazon oyining ikkinchi kunida bo'lib o'tishini keltirib o'tadi. Bu marosim xalq qo'shiqlarida ham aks etgan:

Yigit:

Olma, olma, dermisan,
 Olma bersam yermisan?
 “Olma bergan qo‘llaringdan
 Aylanayin”, - dermisan?

Qiz:

Yerga otdim olmani,
 Sevganim uchun sani.
 Muncha piching qilma-da,
 Ko‘ngling bo‘lsa, ol mani[12. –Б. 150].

Bu keltirilgan to‘rtliklarda olma orqali yigit qizga o‘z sevgisini izhor qilayotgani aks etganligini ko‘rish mumkin. Shuningdek, ba‘zi o‘rinlarda olma yor timsoli, bir-biriga mushtiq sevishtanlar timsolida ham kelishi mumkin:

Bir shoxda ikki olma, baldog‘i ayri-ayri,
 Ora muncha ham uzoq san bir yon-u man bir yon[13. –Б. 68].

Bu jumalalarda ikkita sevishtan ikkita olmaga qiyoslanadi. Bu olmalar yor timsolida, sevishtan oshiqlar timsolida kelmoqda. Shu bilan birgalikda, olma, anor – ayol ramzi sifatida ham xalq qo‘shiqlarida keng ishlatiladi:

Bolam, bolam bor bo‘lar,
 Olma bo‘lar, nor bo‘lar.
 Bir kuni kelib Oyxona,
 Ko‘p yigitlar zor bo‘lar.
 O‘yna, o‘yna, o‘yna oy.

Bu o‘rinda, “Olma” va “nor” qiz, ayol ramzi bo‘lib, ular negizida hosildorlik inonchlari, oila va farzand tushunchalarini jamlangan [14. 140-142].

Xalq lirikasida anor ham faol poetik obraz bo‘lib, Xorazm vohasi folkloridagi ayollar va chaqaloqlar homiysi Anbar onaning aniqlovchisi bo‘lib keladi [15. – C. 198].

Umuman olganda, xalq qo‘shiqlarida anor, olma, bodom – mevalar obrazi – balog‘at, sevgi, farzand g‘oyalarini o‘zida mujassamlashtiradi. Shu sababli, bu obrazlar bir-birining o‘rnida kelaveradi. Bu mevalarning barchasi hosildorlik kul‘ti bilan bog‘liq sanaladi[15. – Б. 223.].

Tosh. Xalq og‘zaki ijodi namunalarida uchraydigan ramzlardan yana biri toshdir. Xorazm vohasi maqol, doston va afsonalarda tosh ko‘plab ma‘nolarni anglatadi. Xususan, qat‘iyat, yurakdagi og‘irlik, sabr, ba‘zan shafqatsizlik, mashaqqat, xatar kabi ma‘nolarni anglatadi. “Sayyod va Hamro” dostonida ota o‘z o‘glining yo‘li mashaqqatli ekanligini anglatish ma‘nosida “tosh” shevada “dosh” so‘zidan unumli foydalangan:

Quloq solg‘il bolam ohu dodima
 Ketma-ketma, bolam, yo‘llaring doshdir.
 Subhu shom tusharsan maning yodima
 Ketma-ketma, bolam, yo‘llaring doshdir [16].
 Tosh so‘zi bu o‘rinda xatar, mashaqqat ramzi bo‘lib namoyon bo‘lmoqda.
 Quyidagi xalq qo‘shig‘i ham misol bo‘la oladi:
 Polvon bo‘yi rosh akan
 Yorim qalam-qosh akan
 Mani sevgan yorimni
 Yurak bag‘ri dosh akan[12. –Б.14]

Demak, xalq og‘zaki ijodida aks etgan ramziy obrazlar orqali so‘zlarning asl ma‘nosini tushinish, ilg‘ab olish mumkin.

Xulosa. o‘rnida shuni qayd etish mumkinki, Xorazm vohasining xalq og‘zaki ijodidagi ramz va timsollarida xalqning hayoti, dunyoqarashi, e‘tiqodi hamda orzu-umidlari namoyon bo‘ladi. Xalq og‘zaki ijodidagi ramz va timsollar – bu xalqning ma‘naviy olami, urf-odatlar va tarixiy xotirasining ramziy ifodasidir. Bunday timsollar nafaqat badiiy va estetik qiymatga, shu bilan birga tarbiyaviy hamda ma‘naviy ahamiyatga ham boydir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mohira Abduraxmonova. Folklor janrlaridagi ramzlarning o'rganilishi xususida (maqola). O'zbek adabiyotshunosligining dolzarb masalalari mavzusida xalqaro ilmiy-nazariy anjumani". –B. 409-414.
2. Тўра Қиличев. Хоразм халқ театри. –Т.:Адабиёт ва Санъат, 1988. –Б. 99.
3. Matluba Murodova. Folklor va etnografiya.– Toshkent: Aloqachi»,2008. – B. 11
4. Shomaqsudov Sh., Shorahmedov Sh. Ma'nolar maxzani. – Toshkent: 2001.–B. 263.
5. Voyaga yetgan urg'ochi ot
6. Xorazm ertaklari//Oqila qiz. Toshkent: "Cho'lpon",2014. – B. 9.
7. <https://symbolopedia.com/uz/red-flower-symbolism-meaning/>
8. Зарифов Ҳ.Т. Ўзбек халқ достонларининг тарихий асослари бўйича текширишлар. Жанговар отнинг қадимийасосларига доир // Ўзбек халқ оғзаки ижоди бўйича тадқиқотлар. 4-китоб Пўлкан шоир. – Тошкент: Фан, 1967. – Б. 65.
9. Abduraxmonova M. Folklor janridagi ramzlarning o'rganilishi xususida...– B. 409-414.
10. Рўзимбоев С., Рўзимбоев Х.С., Эшжонова Г.О. Хоразм достонлари: Гўрўғли. "Юнус пари". –Урганч: "Хоразм", 2004. –Б. 58-60.
11. Жўраев М. Ўзбек мавсумий маросим фольклори. – Тошкент: Фан, 2008. – Б. 147.
12. Юсупов Ю., Бобожонов П. Хоразм оғзаки ижод дурдоналари. –Урганч: "Хоразм", 1993. –Б. 8.
13. Хоразм халқ кўшиклари. – Б. 150.
14. Хайитова О., Хоразм қо`shiq ijrochilik an`analari. –Toshkent : Cho`lpon 2006. –B. 68.
15. Sobirova N. Xorazm marosim folklorining ilmiy-nazariy jihatlari. –"Tamaddun nuri", 2024-yil №6.– B 140-142.
16. Снесарев Г. П.. Реликты домусульманских верований и обрядов у узбеков Хорезма– М.:НАУКА,1969. – С. 198. //Мусақулов А., Ўзбек халқ лирикаси. –Т.: Фан, 2010. –Б. 223.
17. Мусақулов А., Ўзбек халқ лирикаси. –Т.: Фан, 2010. –Б. 223.
18. Ошиқнома (Хоразм достонлари). Саййод ва Ҳамро. I китоб. –Урганч: Хоразм нашриёти, 2006.

Yunusxo'jayev Habibulla Zafar o'g'li.

Urganch davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi

<https://orcid.org/0009-0004-0455-3507>


Юнусходжаев Хабибулла Зафар угли.

Свободный соискатель Ургенчского государственного университета

Yunuskhoyayev Habibulla Zafar ogli.

Independent researcher of Urgench state university

G'ARB OLIMLARI TADQIQOTLARI DAVLATCHILIK TARIXINING YORITLISHI

 <http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.00000000>

ANNOTATSIYA

Muallif maqolada Inson va uning manfaati ijtimoiy siyosatning nafaqat obyekti, balki ijtimoiy tizim yaratuvchisi, barcha ne'matlar va xizmatlar iste'molchisi hamdir. Insonlarning o'zaro ijtimoiy munosabatda bo'lishlari, muloqot qilishlari, fikr almashishlari, moddiy ne'mat yaratishari va baham ko'rishlari murakkab ijtimoiy jarayonlar tizimini vujudga keltirishini ta'kidlagan.

Kalit so'zlar. G'arb, tarixiy-madaniy, iqtisodiy-siyosiy, ijtimoiy, siyosat, Platon, Aristotel, Demokrit, axborot, resurs, risk, g'oya.

АННОТАЦИЯ

В статье автора Человек и его интересы являются не только объектом социальной политики, но и творцом социальной системы, потребителем всех благ и услуг. Он подчеркнул, что социальное взаимодействие людей, общение, обмен идеями, создание и совместное использование материальных благ создают систему сложных социальных процессов.

Ключевые слова. Западный, историко-культурный, экономико-политический, социальный, политика, Платон, Аристотель, Демокрит, информация, ресурс, риск, идея.

ANNOTATION

In the author's article, Man and his interests are not only the object of social policy, but also the creator of the social system, the consumer of all benefits and services. He emphasized that people's social interaction, communication, exchange of ideas, creation and sharing of material wealth create a system of complex social processes.

Keywords. Western, historical-cultural, economic-political, social, politics, Plato, Aristotle, Democritus, information, resource, risk, idea.

KIRISH. Inson va uning manfaati ijtimoiy siyosatning nafaqat ob'ekti, balki ijtimoiy tizim yaratuvchisi, barcha ne'matlar va xizmatlar iste'molchisi hamdir. Chunki, inson ijtimoiy mavjudot bo'lib, moddiy ne'matlarni yaratadi va o'zi ulardan foydalanadi, qolaversa, boshqa ehtiyojmand insonlarga ham yetakazadi[1]. Insonlarning o'zaro ijtimoiy munosabatda

bo'lishlari, muloqot qilishlari, fikr almashishlari, moddiy ne'mat yaratishari va baham ko'rishlari murakkab ijtimoiy jarayonlar tizimini vujudga keltiradi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA. Ushbu mavzu yuzasidan M.O.Kosven, Aristotelning "Siyosat" asari, F.Gegel, Tomas Robert Maltus, G.Spenserning "Ijtimoiy statistika", I.Kant, J.Stiglis, E.Reklyuning "Boylik va qashshoqlik" asarlaridan foydalanilgan.

NATIJALAR. Ijtimoiy siyosat va himoya tizimining tarkibiy qismi bu, ijtimoiy hayotdir. U kundalik hatti-harakatlarning o'ziga xos paradigmasi bo'lib, uning mohiyati tarixiy-madaniy, iqtisodiy-siyosiy va etnik-konfessional kontekstdagi insonning kundalik turmush tarziga daxldor voqea – hodisalar, jarayonlarni aks ettiradi.

MUHOKAMA. "Ijtimoiy" so'zi definitsiyasiga ta'rif beradigan bo'lsak, ushbu tushunchaning ijtimoiy-siyosiy mazmunini bilish zarur. «O'zbek tilining izohiy lug'atida»: "Ijtimoiy – [arabcha – jamao, jamiyatga oid]: birinchidan, inson va jamiyat hayotiga oid. Masalan, ijtimoiy tuzum. Ijtimoiy taraqqiyot. Ijtimoiy ishlab chiqarish. Ikkinchi ma'nosi esa jamiyatdagi tabaqa, sinf va shu kabilarga mansublikni belgilovchi"[2] so'z sifatida ta'riflangan va tavsiflangan. Shunga ko'ra "ijtimoiy" deganda ob'ektiv olamda sodir bo'lgan va bo'layotgan barcha voqelik va hodisalarning inson va jamiyatga tegishli bo'lgan tomonlari tushuniladi. Ijtimoiy so'zi jamiyatni tashkil etish va uni harakatga keltirish, ya'ni rivojlantirish va taraqqiy ettirish mexanizmlarini o'z ichiga qamrab oladigan omillaridan biridir. Shu sababli jamiyatning rivojlanishi va taraqqiy etishi ko'p hollarda uning ijtimoiy tabiatiga bog'liqdir. Jamiyatda sodir bo'ladigan narsa va hodisalar qanchalik darajada ko'pchilikning maqsadiga mos kelsa, ularning ehtiyojlarini qondirsa, u shunchalik ijtimoiy ahamiyat kasb etadi. Bunday holat esa mavjud jamiyatning taraqqiy etishiga va uzluksiz ravishda rivojlanib borishiga yo'l ochib beradi[3].

Ijtimoiy hayot jamiyatdagi turli ijtimoiy qatlam vakillarining turmush tarzi va ularning xatti harkatlarining mushtarak tizimi bo'lib, u turli hodisalarga nisbatan ijtimoiy munosabatlar tizimi sifatida yuzaga keladi. Ya'ni, kundalik hayot bu keng va tor doiradagi muloqotlar, oilaviy va jamoaviy munosabatlar hamda tadbirlar, shaxsiy kundalik turmush, kasbiy faoliyat va bo'sh vaqtni unumli o'tkazish kabilarni o'z ichiga oladi. **M.O.Kosvenning** fikricha, u "keng jamoatchilik, omma, ya'ni aholi ko'pchilik qatlamining o'zaro shaxsiy, ijtimoiy munosabatlari, umumiy maqsadlari asosidagi ixtiyoriy faoliyatidir"[4]. Umuman, ijtimoiy hayot va davlatning ijtimoiy siyosati muhim voqelik sifatida e'tibor qaratish muhim.

Insoniyatning uzoq yillik evolyusiyasi shundan guvohlik beradiki, jamiyatda insonlarning munosib turmush kechirishi, ijtimoiy hayotga oid qarashlarning ilk kurtaklari, inson va jamiyat rivoji bilan bog'liq turli masalalar g'arb mutafakkirlari ijodida farovon jamiyat qurish va davlatchilik masalasi bilan uyg'un tarzda vujudga kela boshlagan. Bunday jamiyat qurish to'g'risidagi dastlabki qarashlar qadimgi Yunonistonda dastlab Platon, Aristotel, Demokrit tomonidan qayd etila boshlagan. Jumladan, Platon jamiyatdagi ijtimoiy tengsizliklarning kelib chiqish sabablarini aniqlashga harakat qiladi va adolatli ideal davlat qurish haqida mulohaza yuritadi[5]. **Aristotelning** "Siyosat" asarida insonning erkin yashash huquqi kishilik jamiyatining adolat va qonun ustuvorligi asosida tashkil etilishi orqali ta'minlanishi lozimligi qayd etiladi. Jamiyatni boshqarishda qonunlarning to'g'ri va adolatli bo'lishiga alohida e'tibor beriladi[6].

Ijtimoiy taraqqiyotni falsafiy jihatdan yoritib berishda nemis faylasufi **F.Gegelning** alohida o'rni bor. Jahon tarixing umumiy qonuniyatga bo'ysungan holda rivojlanib boruvchi bir butun jarayon deb tushungan Gegel: "...ijtimoiy taraqqiyot bu takomillashmaganlikdan yanada takomillashish sari olg'a qarab harakatlanishdir. Taraqqiyot - bu zaruriyatga bo'ysunuvchi qonuniy jarayondir. Jahon tarixi Sharqdan G'arbga qarab yo'nalgan bo'lib, bunda Yevropa jahon tarixining muqarrar tugashi, Osiyo esa uning boshlanishidir[7]", - degan. Shu bilan bir qatorda u ijtimoiy taraqqiyotni cheksiz davom etadigan jarayon sifatida qaragan holda, "Taraqqiyotning cheksizligi bu qarama-qarshiliklarning umumiy ifodasidir. Cheksiz taraqqiyot bu qarama-qarshiliklarni hal etish emas, balki uni ifodalashdir[8]", - degan fikrni bildirgan. Gegel jamiyatda taraqqiyot mavjudligini tan olgan bo'lsada, ammo uning substratini "Mutlaq ruh" belgilaydi degan g'oyani ilgari surgan.

O'rta asrlarda bu borada **Tomas Robert Maltus** 1798 yilda o'zining shahar aholisini shakllantirishda qonuniy tajribaga oid ishlarida ijtimoiy rivojlanishning ziddiyatlarini tabiat qonunlari orqali tushuntirgan. T.Maltus "ijtimoiy progressiyaning mashhur qonunini shakllantirish, ya'ni aholi sonining o'sish mamlakat taraqqiyoti bilan nomutanosib ravishda sodir bo'lsa, u holda ijtimoiy hayot uchun zarur bo'lgan yashash vositasi faqat arifmetik ravishda o'sadi, bu farq ortiqcha aholining paydo bo'lishiga sabab bo'ladi. Aholining ko'pligi va mahsulotlar taqchilligi bilan muqarrar ravishda yetishmovchilik ham kengayib boradi. Natijada, kambag'allik yuzaga kelib, u jamiyatning ijtimoiy tuzilishining atributi emas, balki insoniyat mavjudligining universal vositasi kabi juda tez tarqaladi. Biroq, ortiqcha aholi esa epidemiyalar, ocharchilik va urushlar sababli birinchi navbatda nobud bo'ladi" deb, ta'kidlagan.

G.Spenser esa ijtimoiy himoyaga muhtoj aholi qatlamini ijtimoiy hodisa, deb hisoblagan. U o'zining "Ijtimoiy statika" nomli asarida tengsizlik jamiyatning o'sishi va tabaqalashuvi bilan birga paydo bo'lishini va jamiyatdagi aholining o'sib borishini doimiy jarayon ekanligini ta'kidlagan. "Mukmmal insonlarning o'zi yo'q, ba'zilar ijtimoiy hayotning turli qiyinchiliklariga moslashadi, ba'zilar esa moslasha olmaganliklari sababli hayotda muvaffaqiyatga erisha olmaydilar"[9], degan fikrni ilgari surgan. Chunki mazkur olimlar davlatning ijtimoiy siyosatida erkinlik masalasiga davlat ijtimoiy-siyosiy turmush tarzining muhim aspekti sifatida qaraydi hamda unda qonun ustuvor bo'lishini ta'kidlaydilar.

Jumladan, nemis faylasufi **I.Kantning** "kimningdir erkinligi boshqa bironing erkinligiga soya somasligi lozim" degan fikri tadqiqot mavzuumizga ham to'la mos keladi. Aslida bunday yondashuv jamiyatda yaratilgan qonunlarda o'z aksini topishi muhimdir. Chunki, har qanday jamiyatning barqarorligi uning o'sha jamiyat manfaatlariga mos keluvchi muayyan qonunlar asoslanishiga bog'liqdir. Davlat, Kantning fikriga ko'ra, "...huquqiy me'yorlarga bo'ysunadigan insonlarning birlashmasidan boshqa narsa emas. Davlatni esa kimnidir shaxsiy qarashlaridan xoli qonun tartibga soladi. Huquqiy davlat tuzilishining yaxlit g'oyasi shu yerda tugashi kerak"[10].

Ijtimoiy siyosat xususida taniqli olim **J.Stiglis** o'zining "Globallashuv: havotirli yo'nalishlar" asarida shunday yozadi: "u yoki bu xalqning globallashuv jarayonidan qanday ne'matlarni tatib ko'rishi asosan milliy hukumatning faoliyatiga bog'liq bo'ladi. Ko'pchilik bozor iqtisodiyoti jarayonida davlatning rolini oshirishni yetakchi g'oya deb hisoblaydi. Ular bir narsani hisobga olishni istamaydilar, bozor munosabatlari qonuniyatining o'zi barcha ijtimoiy muammolar yechimini o'z joyiga qo'yadi. Davlatning zimmasida esa tengsizlik, ishsizlik, atrof-muhitning ifloslanishi kabi muammolarni hal etish asosiy bo'lib qolishi kerak"[11].

XIX asr o'rtalaridan e'tiboran G'arbda egalitaristik oqim vakillari K.Marks, F.Engels va E.Reklyular kapitalistik jamiyatdagi tengsizlikni tanqid qilganlar, bunday ijtimoiy tengsizlikni hatto ijtimoiy yovuzlik, muayyan turdagi taqsimot munosabatlarining oqibati deya ta'rif berganlar. Ijtimoiy tengsizlik, bu ishlab chiqarish munosabatlaridagi ortiqcha qiymat deb hisoblaganlar[12].

E.Reklyu o'zining "Boylik va qashshoqlik" asarida jamiyatda tez-tez sodir bo'luvchi ijtimoiy tengsizlik va kambag'allikni o'ta qashshoqlikdan farqini qayd etar ekan, uning fikricha, muhtoj va kambag'allar faqat o'zining asosiy ehtiyojlarni qondira oladiganlardir. U jismoniy mavjudlikni saqlash uchun zarur bo'lgan minimal vositalarni hisoblab chiqqan. Minimalga to'g'ri kelganlar kambag'al, to'g'ri kelmaganlar esa qashshoq hisoblangan. E.Reklyu kambag'allikni butunlay yo'q qilish uchun sanoat va qishloq xo'jaligi mahsulotlarini teng taqsimlash zarur, deb hisoblaydi[13].

Z.Bauman, U.Bek, M.Kastels kabi olimlar shakllanayotgan yangi dunyoga ehtimoliy, axborot, resurs va risklar nuqtai nazaridan yondashish muhimligini ta'kidlaganlar. Ularning fikricha, jamiyatda ijtimoiy hyotni to'g'ri tartibga solish, tenglik g'oyalari Yevropaning barcha mintaqalarida aniq tamoyil sifatida emas balki, hayotiy zarurat tufayli vujudga kelgan. Ijtimoiy birdamlikni ta'minlash uchun kimnidir majburlash, kuch ishlatish va kimgadir ta'sir o'tkazish shart emas. Yana bir xulosa shuki, g'arbda shakllangan tenglik va adolat g'oyalari keyinchalik inson huquqlari va erkinliklarining boshqa yo'nalishlari rivojini ham ta'minlaganligini kuzatish mumkin.

XULOSA. Alohida ta'kidlash lozimki, mamlakatdagi ijtimoiy himoya samaradorligini oshirish va ijtimoiy sohadagi islohotlarni kuchaytirish faqatgina kompleks yondashuvlar orqaligina

amalga oshirilishi mumkin. So‘nggi yillarda mazkur sohalarida salmoqli sa’y-harakatlar amalga oshirildi. Ularga yangi ish o‘rinlari yaratish va tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash, qishloq joylari va qishloq xo‘jaligini rivojlantirish, qishloq joylarda infratuzilmani takomillashtirish, sog‘liqni saqlash, kasb-hunar ta’limi va tarbiyasini yaxshilash hamda iqtisodiy migratsiya kiradi. Bu sohalarida oxirgi yillarda amalga oshirilayotgan ijobiy o‘zgarishlar mamlakatimizning uzoq muddatli strategik maqsadi – ijtimoiy davlatni shakllantirish va rivojlantirish dasturining muhim qismi hisoblanadi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Теория и методика социалмной работы: Краткий курс / Под ред. В.И.Жукова. – М.: Союз, 1994. -С. 15.
 2. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. А.Мадвалиев таҳрири остида (2006-2008) // <https://ziyouz.uz/durdona-toplamlar/uzbek-tilining-izohli-lugati/>
 3. Шерманов И. Ўзбекистоннинг мустақил ижтимоий тараққиёти ва унинг ривожланиш тенденциялари // ЎЗМУ хабарлари, №1/6, 2016. – Б. 101.
 4. Косвен М.О. Семейная община и патронимия. – Москва.: Наука, 1963.
 5. Қаранг: Платон. Собр.соч. В 3-х т.Т.2. -М.: Наука, 1970. – 468 с.
 6. Қаранг: Аристотел. Поэтика. -Л.: 1927. -642 с.
 7. Гегел Г.В.Ф. Философии истории, Соч., –М.: «Мысль»,1974.- С.54,98.
 8. Гегел Г.В.Ф. Наука логики. В 3-х томах. Т.1. –М.: «Мысль», 1970.- С 304-305
 9. Спенсер Г. Социалная статика. Изложение социалных законов, обуславливающих счастье человечества.- СПб.- 1906.- 261 с.
 10. Кант И. Собрание сочинений: В 8 т. Т. 6. М., 1994. С. 242–243.
 11. Стиглиц Дж. Глобализация: тревожные тенденции. М. 2004. – С. 11.
 12. Маркс К., Энгелс Ф. Сочинения. — изд.2-е. — М.: Политиздат. -Т.16.-1960.- С.827.
- Реклю Э. Богатство и нищета.- М.- 1906. – С. 33.


UO'K: 94(575.1)“20”:316.32

Yunusxo'jayev Habibulla Zafar o'g'li.Urganch davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi
<https://orcid.org/0009-0004-0455-3507>**Юнусходжаев Хабибулла Зафар угли.**

Свободный соискатель Ургенчского государственного университета

Yunuskhojajev Habibulla Zafar ogli.

Independent researcher of Urgench state university

IJTIMOYIY HIMOYA TIZIMI TARIXI <http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.00000000>**ANNOTATSIYA**

Muallif maqolada Insonlar ijtimoiy siyosatga davlatda kuchli ijtimoiy imkoniyatlar berilgan sharoitdagina erisha oladilar. Ijtimoiy imkoniyat, bu — ijtimoiy zinapoyadagi o'rinlar, vakolatlar, darajalar, lavozimlar, imtiyozlarni taqsimlash qobiliyatini anglatadi. Albatta, bu taqsimotda iqtisodiy imkoniyatlar paradigmasining ta'siri bor. Masalan, daromad yoki boylik iqtisodiy imkoniyatlar bo'lishiga qaramay, ijtimoiy maqomni (status) ham tavsiflagan.

Kalit so'zlar. Sharq, tarixiy-madaniy, iqtisodiy-siyosiy, ijtimoiy, siyosat, oila, soliq, dinor, vaqf, O'zbekiston, davlat, axborot, resurs, risk, g'oya.

АННОТАЦИЯ

В статье автора люди могут осуществлять социальную политику только в условиях сильных социальных возможностей в государстве. Социальная возможность означает возможность распределять места, полномочия, уровни, позиции, привилегии на социальной лестнице. Конечно, на это распределение влияет парадигма экономических возможностей. Например, несмотря на то, что доход или богатство представляют собой экономические возможности, они также описывают социальный статус.

Ключевые слова. Восток, историко-культурный, экономико-политический, социальный, политика, семья, налог, динар, дар, Узбекистан, государство, информация, ресурс, риск, идея.

ANNOTATION

In the author's article, people can achieve social policy only in the conditions of strong social opportunities in the state. Social opportunity means the ability to distribute places, powers, levels, positions, privileges on the social ladder. Of course, this distribution is influenced by the paradigm of economic opportunities. For example, despite the fact that income or wealth are economic opportunities, they also describe social status.

Keywords. East, historical-cultural, economic-political, social, politics, family, tax, dinar, endowment, Uzbekistan, state, information, resource, risk, idea.

KIRISH. Ijtimoiy siyosat va himoya tizimining tarkibiy qismi bu, ijtimoiy hayotdir. U kundalik hatti-harakatlarning o'ziga xos paradigmasi bo'lib, uning mohiyati tarixiy-madaniy, iqtisodiy-siyosiy va etnik-konfessional kontekstdagi insonning kundalik turmush tarziga daxldor voqea – hodisalar, jarayonlarni aks ettiradi. Ijtimoiy hayot jamiyatdagi turli ijtimoiy qatlam vakillarining turmush tarzi va ularning xatti harkatlarining mushtarak tizimi bo'lib, u turli hodisalarga nisbatan ijtimoiy munosabatlar tizimi sifatida yuzaga keladi. Ijtimoiy siyosatning sub'ektlari davlatning qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi organlari, ish beruvchilar, kasaba uyushmalari va boshqa jamoat birlashmalari hisoblanadi. Ijtimoiy himoya tizimi quyidagi tamoyillarga asoslanadi:

- ijtimoiy adaolat va tenglik;
- ijtimoiy mas'uliyat;
- ijtimoiy sherikchilik;
- ijtimoiy kafolatlar.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA. Ushbu mavzu yuzasidan Abdurahmonov Q. Odilqoriev X, Razzoqov D. Makovelskiy A.O. Cho'qay M, A'zamxo'jayev S. Ishquvatov V, Tolipov F. asarlaridan foydalanilgan.

NATIJALAR. Davlat ijtimoiy siyosatining asosiy mezonlari sifatida aholining turmush darajasi va sifatini yaxshilash tashkil etadi. Aholining turmush darajasi odamlarning zarur moddiy va ma'naviy ne'matlar bilan ta'minlangani, bandligi, shuningdek, "inson taraqqiyoti – bilimi, salomatligi, shaxsiy ehtiyojlarini qondirish imkoniyatlari hamda uning yashash shart-sharoitlari-uy-joyga egaligi, atrof muhitning ahvoli, iqtisodiy va ijtimoiy ehtiyojlari qondirilishini ifodalovchi mezonlar asosida aniqlanadi"[1].

MUHOKAMA. Insonlar ijtimoiy siyosatga davlatda kuchli ijtimoiy imkoniyatlar berilgan sharoitdagina erisha oladilar. Ijtimoiy imkoniyat, bu — ijtimoiy zinapoyadagi o'rinlar, vakolatlar, darajalar, lavozimlar, imtiyozlarni taqsimlash qobiliyatini anglatadi. Albatta, bu taqsimotda iqtisodiy imkoniyatlar paradigmasining ta'siri bor. Masalan, daromad yoki boylik iqtisodiy imkoniyatlar bo'lishiga qaramay, ijtimoiy maqomni (status) ham tavsiflaydi. Biroq ijtimoiy imkoniyatlar amal, obro' -e'tibor, ma'lumot, tibbiy xizmat, ijtimoiy ta'minot kabi ko'rsatkichlarni ham o'z ichiga oladi. Jamoatchilik fikri hokimiyati (ijtimoiy hokimiyat) demokratik siyosiy tizimda katta rol o'ynaydi. Shuning uchun hozirgi zamon rivojlangan davlatlari kuchli ijtimoiy imkoniyatlarga egadirlar. Ular bunday imkoniyatlar yordamida aholi keng qatlamlarining ijtimoiy ahvollarini yaxshilashga sezilarli ta'sir ko'rsata oladilar[2].

Ijtimoiy siyosatning nazariy jihatlarini haqida so'z yuritganda, unda shaxs, davlat va jamiyatning o'zaro dialektik aloqadorligi muhim rol o'ynaydi. Shu bois, ijtimoiy hayotni tartibga solish va uni yanada takomillashtirishda shartli ravishda quyidagi uchta jihatni e'tiborga olish muhim ahamiyat kasb etadi. Ular quyidagilardir:

1. Shaxsning ijtimoiy rivojlanishi (mikro darajada);
2. Davlatning ijtimoiy rivojlanishi (makro darajada);
3. Korxonalar, tashkilotlar va tijorat kompaniyalarining ijtimoiy rivojlanishi (mezo-daraja). Shaxsning ijtimoiy rivojlanishi (mikro darajada), bu inson o'zligini anglashi, o'zini o'zi boshqara olishi, uning shaxsiy ko'nikma va paradigmalari asosida shakllanadi, Ya'ni, uning bilimi va axloqiy ko'nikmalarini o'lchash uchun ijtimoiy muhitning o'rnini katta, shu asosdan u ma'lum ijtimoiy birliklar, oil, mahalla, atrofdagilar ta'siri ostida yuzaga keladi.

To'g'ri, shaxsning ijtimoiy rivojlanishi avvalombor insonning o'ziga bog'liq bo'lsada, ijtimoiy so'zining ma'no va mazmunidan kelib chiqib, tahlil etilsa, uning rivojlanishida jamoa katta rol o'ynaydi. Ya'ni, shaxsning ijtimoiy ko'nikmalaridan tashqari uning barcha shaxsiy qobiliyatlarini, funksional vazifa va bilimlarini, mavjud bo'lgan ma'lumotlar miqdorini atrofdagilar qiziqishlari bilan uyg'unlashtirish kerak bo'ladi.

Davlat darajasida jamiyatning ijtimoiy rivojlanishi o'z-o'zidan ayonki, uning barcha a'zolarining sa'y-harakatlari bilan vujudga keladi, ya'ni bunda insonlar o'rtasidagi o'zaro progressiv muloqotlar tizimi shakllanadi. Har bir mintaqada o'ziga xos o'xshash ijtimoiy resurs

shakllanadi va keyin butun mamlakat bo‘ylab birlashadi. Davlat miqyosida jamiyat rivojini ta‘minlash uchun barcha ijtimoiy sub‘ektlar (ijtimoiy fondlar, uyushmalar, mahalla va boshqalar) bir maslak sari yakdil qadam tashlashi, ular ish faoliyati muvofiq bo‘lishi muhim. Yoki ma‘lum bir hududda xo‘jalik yurituvchi sub‘ektlarning iqtisodiy faoliyatini yaxshilash ham zarur. So‘ngra har bir ijtimoiy sub‘ektning ish natijalariga ko‘ra jamiyat ijtimoiy fundamenti shakllanadi. To‘plangan tajribalar pirovardida jamiyatning ijtimoiy rivojlanish darajasini belgilaydi.

Endi Sharq xalqlarida ijtimoiy masalalarga oid qarashlarga e‘tibor qaratsak. Masalan, xalq turmush tarzi bilan bog‘liq oila va jamiyat hayotining turli masalalari sharq xalqlari tarixi hamda madaniyatining qadimgi merosi zardushtiylikka oid adabiyotlarda o‘z ifodasini topgan. Ularda o‘sha davrning axloqiy, falsafiy va ijtimoiy g‘oyalarini aks ettiruvchi zardushtiyalar turmush tarzi, kishilar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarga oid fikrlar o‘sha davrda va undan so‘ng jamiyatdagi ijtimoiy-falsafiy qarashlarning takomillashishi uchun asosiy manba bo‘lib xizmat qilgan[3].

XV asrda yashagan diniy ulamo Xo‘ja Axror Valiyning “Manoqibi Xoja Ahror” asarida keltirilishicha, Umar Shayx Mirzo Toshkent aholisiga soliq solganida 250.000 dinor miqdordagi bir yillik soliqni uning o‘zi to‘lab yuborganligi ma‘lum. Ma‘lum muddat o‘tgach, yana 70.000 dinorni ham o‘zi to‘lagan. Ushbu sahovatli ishni Xoja Ahror xalq oldida obro‘ e‘tibor qozonish uchun emas, balki o‘sha murakkab vaziyatlarda xalq gardaniga tushgan og‘ir yukni yengillashtirish uchun qilgan[4].

XIX asr ikkinchi yarmi - XX asr boshlarida Turkiston jadidlari hayotida jamiyatda erkinlik o‘rnatish, adolatli jamiyat qurish borasidagi qarashlarda ko‘proq ma‘rifatparvarlik, ma‘naviy hamda ijtimoiy-siyosiy yondashuvlar bevosita jamiyatda adolatli davlat qurilishining asoslarini rivojlanishiga xizmat qiladigan nazariy omillar sifatida shakllanganligini e‘tirof etadilar. Albatta, ular to‘la ijtimoiy tenglikka asoslangan, demokratik jamiyat qurish asoslaridan birmuncha uzoqda bo‘lganlar. Ammo Turkistonda mustamlakachilik siyosatiga qarshi kurash va uning ijtimoiy, ijtimoiy-siyosiy asoslarini yorituvchi manbalar Cho‘lpon, Munavvarqori Abdurashidxon o‘g‘li, Behbudiy, Fitrat, Abdulla Avloniy, Huvaydo va boshqa jadidlar asarlarida o‘z ifodasini topgan[5]. Vaholanki, Turkiston Muxtoriyatining tashkil topishi, uning siyosiy faoliyati, so‘ngra inqirozi masalalari o‘lkada nafaqat siyosiy tuzumni o‘zgarishiga, balki uzoq yillar mobaynida shakllangan an‘anaviy sharq jamiyatiga xos ijtimoiy munosabatlar tizimi va boshqaruviga ham ta‘sir etmasdan qolmadi[6].

Shuningdek, yaqin tariximizga murojaat qilsak, 1941-1945 yillardagi ikkinchi jahon urushining og‘ir damlarida o‘zbek xalqi front hududlaridan O‘zbekistonga ko‘chirib keltirilgan xalqlarga nisbatan haqiqiy bag‘rikenglikni namoyon etgan. Jumladan, Rossiya, Ukraina, Belorussiya, Polsha kabi davlatlardagi front oldi viloyatlaridan O‘zbekistonga ko‘chirib keltirilgan aholiga haqiqiy insonparvarlik ko‘rsatilgan. Masalan, urush yillarida O‘zbekistonga 1 mlndan ortiq kishi ko‘chirib keltirilgan bo‘lsa, shulardan 240 000 dan ko‘prog‘i bolalar edi[7].

Shunday og‘ir damlarda ularga ijtimoiy yordamlar ko‘rsatilib, evakuatsiya qilinganlar mahalliy oilalarga, bolalar uylariga, maxsus maktablarga joylashtiriladi. Xalq boshidan kechirgan og‘ir Stalin qatag‘onlari yillari va ikkinchi jahon urushi yillari ko‘plab qiyinchiliklarni ko‘rgan koreyslar, nemislar, turklar, polyaklar, ruslar, greklar, yahudiylar, qrim-tatar va boshqa millat vakillari O‘zbekistonga ko‘chirilgan bo‘lib, ular uchun O‘zbekiston ikkinchi Vatanga aylandi. Chunki ular shu yerda yashab qoldilar, shu yerda tarbiya topib, kamolga yetdilar.

Davlatimiz milliy mustaqillikni qo‘lga kiritgandan so‘ng barcha sohalarda bo‘lgani kabi ijtimoiy sohada ham ulkan islohotlar boshlandi. Jamiyat va davlatning alohida e‘tiboriga muxtoj qatlam vakillariga doimiy g‘amxo‘rlik ko‘rsatilib, qo‘llab-quvvatlanmoqda. Masalan, ijtimoiy siyosatning rivojlanish tendensiyasiga muvofiq, agar 1990 yil respublikada xarajatlarning 31 foizi ijtimoiy sohalarni moliyalashtirishga yo‘naltirilgan bo‘lsa, bugungi kunga kelib ushbu ko‘rsatkich 60 foizni tashkil etadi. Uning asosiy qismi ta‘lim, sog‘liqni saqlash va ijtimoiy ta‘minnot sohalariga yo‘naltiriladi. Ijtimoiy yo‘nalishlarda olib borilgan izchil islohotlar natijasida mamlakatimizda aholi yalpi daromadlari 12,2 barobar oshdi. Aholining o‘rtacha umr ko‘rish darajasi 67 yoshdan 73,2 yoshga yetdi. O‘zbekiston ushbu ko‘rsatkich bo‘yicha dunyoning rivojlangan davlatlari darajasiga yaqinlashdi[8].

2021 yilgacha bo‘lgan davrda respublikada kambag‘allikni kamaytirishga qaratilgan chora-tadbirlar natijasida aholi jon boshiga real jami daromad 43,9 foizga, o‘rtacha hisoblangan nominal oylik ish haqi 79,7 foizga yoki 2016 yildagi 1293,8 ming so‘mdan 2019 yilda 2324,5 ming so‘mga oshdi. Jahon bankining “O‘zbekiston fuqarolarini tinglab” loyihasi doirasida, uy xo‘jaliklari orasida o‘tkazilgan so‘rovnoma natijalariga ko‘ra, 2020 yilning yanvar-mart oylari uchun o‘rtacha kambag‘al xonadonning oylik daromadi taxminan 1,5 million so‘mni tashkil etib, taqqoslama narxlarda bu ko‘rsatkich o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 12 foizga oshgan[9].

Mazkur islohotlardan ko‘zlangan asosiy maqsad xalq manfaati, yurt tinchligi va vatan taraqqiyoti deyishimiz mumkin. Ularning tak zamirida esa ijtimoiy davlatchilikni rivojlantirish va takomillashtirish yotadi. Ijtimoiy davlat, avvalo, ishsizlikdan himoyalani, kafolatlangan sifatli ta‘lim, malakali tibbiy yordam, barcha uchun teng imkoniyatlar, oilalar, bolalar, ayollar, qariyalar, nogironligi bor shaxslarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash kabi ko‘plab vazifalarni o‘z zimmasiga oladi. Shuning bilan birga, yashash uchun zarur resurslar – ichimlik suvi, tabiiy gaz, elektr energiyasi, transport va boshqa qulayliklar bilan ta‘minlanish, majburiy mehnatga taqiy qo‘yish ham ijtimoiy davlatda muhim ahamiyat kasb etadi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoev ta‘kidlaganidek: “...ijtimoiy davlatda hech kim e‘tibordan chetda qolmaydi, o‘z muammolari bilan yolg‘iz tashlab qo‘yilmaydi”[10].

XULOSA. Keltirilgan misollar tarixda ham o‘zbek xalqida odamlarga ijtimoiy ko‘mak berish, ularga yordamlar ko‘rsatish an‘anasi majud bo‘lganligini tasdiqlaydi. Ya‘ni, tarixda ham saxovatli insonlar doimo xalq dardini ko‘zlab ish yuritganligiga guvoh bo‘lish mumkin. Bu esa tarixdan zarur xulosalar chiqarib, kelajakda aholini ijtimoiy himoya qilish mexanizmlarini yanada mustahkamlashni, uning maqsadli yo‘nalishlarini belgilab olishni nazarda tutadi. Markaziy Osiyoda joylashgan O‘zbekistonda bugungi kunda tarixiy an‘analarga asoslangan holda, g‘arb mamlakatlaridan farqli ravishda aholini ijtimoiy himoya qilish prinsipiga amal qilinadi. Ya‘ni aholini ijtimoiy himoya qilish tizimi davlat ichiki siyosatining ustuvor yo‘nalishi sanaladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI.

1. Абдурахмонов Қ. Ўзбекистонда инсон омили ва манфаатлари-энг олий кадрият. Иқтисодий, илмий-таҳлилий рисола. –Тошкент.: Ғафур Ғулум номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи. 2017.-Б 189.
2. Одилқориев Х, Раззоқов Д. Сиёсатшунослик / Дасрлик. Т. 2008. –Б 142.
3. Маковелский А.О. Авеста. — Баку, 1960. – С. 89-92; Бойс М. Зароастрийсы: Верования и обычаи. — М.: Наука, 1988. – С. 200-201; Дорошенко Е.А. Зароастрийсы в Иране. — М.: Наука, 1982. – С. 84-99; Махмудов Т. Авесто ҳақида. – Т.: Шарқ, 2000. – Б. 13; Тоҳир Карим. Муқаддас Авесто изидан.– Т., 2000; Ҳомидов Ҳ. Авесто файзлари. – Т., 2001. – Б. 57-61; Авесто яшт китоби / Исҳоқов М. таржимаси.– Т.: Шарқ, 2001; Авесто тарихий бадиий ёдгорлик / Асқар Маҳкам таржимаси. – Т.: Шарқ, 2001.
4. Кутибоев З. Хожа Аҳроп Валий. Т.. «Фан». 1996. 82 бет
5. Чўқай М. Истиклол жаллодлари. -Т.: Ф.Фулум номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти. 1992, 6-бет.; Бехбудий. Танланган асарлар. Сўз боши. Т; Маънавият, 1999, 28-б.; Абдурашидхонов М. Хотираларим. -Т.: Шарқ. 2001.; Авлоний. Танланган асарлар 1, 2 жилдлар. Маънавият. 1998; Бехбудий . Танланган асарлар, Маънавият. 1999, Фитрат. Танланган асарлар 1,2,3 жилдлар, 2000-2003.; Бехбудий М. Туркистон маданият мухторияти лойиҳаси. Жаҳон адабиёти, 2003 йил, авзуст, 146-б.; Дўстқораев Б. Ўзбекистонда янги давлатчилик маърифати.// Жамият ва бошқарув,1997 йил,2-сон,13 бет.
6. Аъзамхўжаев С. Туркистон Мухторияти. -Т.: Маънавият, 2000. Қосимов Б. Миллий уйғониш. -Т.: Маънавият, 2002, 8-бет
7. Ишқуватов В, Толипов Ф. Маҳалла: ўтмишда ва бугун.-Тошкент., 2014.-Б. 54. Толипов Ф. Атамуратов М. Ўзбек оиласи: тарихи ва турмуш тарзи.-Тошкент. 2020.
8. Тараққиётнинг “ўзбек модели” – халқимиз фаровонлигининг муҳим омили //

<https://birinchi-prezident.uz/?p=207>

9. Аҳолини ижтимоий қўллаб-қувватлаш тизимидаги муаммоларни айнан қўлда бошқариш режимида ҳал этишга тўғри келмоқда // <https://kun.uz/news/2020/08/11/aholini-ijtimoiy-qollab-quvvatlash-tizimidagi-muammolarni-aynan-qolda-boshqarish-rejimida-hal-etishga-togri-kelmoqda-obid-hakimov>

Президент Конституцияда «Ўзбекистон — ижтимоий давлат» деган ғояни мустаҳкамлашни таклиф қилди // <https://daryo.uz/k/2022/06/20/prezident-konstitutsiyada-ozbekiston-ijtimoiy-davlat-degan-goyani-mustahkamlashni-taklif-qildi>


IQTISOD

Ruzmetova Gulira'no Atabekovna

Ma'mun universiteti, Iqtisodiyot kafedrası dotsenti, PhD

Sherov Alisher Bakberganovich

Ma'mun universiteti, Iqtisodiyot kafedrası mudiri, DSc, prof.

**MINTAQADA INSON KAPITALINI RIVOJLANISHINI KLASTERLI YONDASHUVLAR
ASOSIDA TAHLILI** <http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.00000000>**ANNOTATSIYA**

Mazkur maqolada mintaqada inson kapitalining rivojlanish darajasini klasterli yondashuvlar asosida tahlil qilish masalalari yoritilgan. Tadqiqotda inson kapitalining asosiy tarkibiy qismlari — ta'lim, sog'liqni saqlash, bandlik va innovatsion faollik ko'rsatkichlari asosida Xorazm viloyati shahar va tumanlari o'rtasidagi o'xshashlik va farqlar aniqlangan. Klaster tahlilining K-means algoritmi qo'llanilib, Evklid masofasining kvadrati asosida hududlar o'rtasida yaqinlik matritsasi shakllantirilgan. Natijada viloyat hududlari inson kapitali rivojlanish darajasiga ko'ra to'rtta klasterga — yuqori, o'rta, o'rtadan past va past darajalarga ajratilgan. Olingan natijalar mintaqaviy ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish strategiyalarini ishlab chiqishda, inson kapitalini rivojlantirishga qaratilgan differensial siyosat va dasturlarni shakllantirishda muhim amaliy ahamiyatga ega.

Kalit so'zlar: inson kapitali, mintaqaviy rivojlanish, klaster tahlili, K-means algoritmi, Evklid masofasi, hududiy farqlar, Xorazm viloyati, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish.

АННОТАЦИЯ

В данной статье рассматриваются вопросы анализа развития человеческого капитала в регионе на основе кластерных подходов. В исследовании на основе ключевых составляющих человеческого капитала — образования, здравоохранения, занятости и инновационной активности — выявлены сходства и различия между городами и районами Хорезмской области. С применением алгоритма K-means кластерного анализа была сформирована матрица близости территорий на основе квадрата евклидова расстояния. В результате территории области были сгруппированы в четыре кластера по уровню развития человеческого капитала: высокий, средний, ниже среднего и низкий. Полученные результаты имеют важное практическое значение для разработки региональных социально-экономических стратегий, а также для формирования дифференцированной политики и программ, направленных на развитие человеческого капитала.

Ключевые слова: человеческий капитал, региональное развитие, кластерный анализ, алгоритм K-means, евклидово расстояние, территориальные различия, Хорезмская область, социально-экономическое развитие.

ABSTRACT

This article examines the development of human capital in a region using cluster-based analytical approaches. Based on the key components of human capital—education, healthcare,

employment, and innovative activity—the study identifies similarities and differences among cities and districts of the Khorezm region. The K-means clustering algorithm is applied, and a proximity matrix is constructed using the squared Euclidean distance. As a result, the territories of the region are classified into four clusters according to the level of human capital development: high, medium, below medium, and low. The findings have significant practical value for designing regional socio-economic development strategies and for formulating differentiated policies and programs aimed at enhancing human capital.

Keywords: human capital, regional development, cluster analysis, K-means algorithm, Euclidean distance, territorial disparities, Khorezm region, socio-economic development.

KIRISH VA DOLZARBLIGI

Inson kapitali zamonaviy iqtisodiyot va jamiyat rivojlanishining asosiy omillaridan biri sifatida keng e'tirof etilmoqda. Ta'lim sifati, sog'liqni saqlash tizimi, aholining kasbiy malakasi va innovatsion faolligi iqtisodiy o'sish, raqobatbardoshlik hamda barqaror rivojlanishni ta'minlovchi muhim determinantlar hisoblanadi. Global miqyosda raqamli transformatsiya, sun'iy intellekt texnologiyalarining jadal rivoji, demografik o'zgarishlar va barqaror rivojlanish maqsadlari inson kapitalini rivojlantirishga nisbatan yangi yondashuvlarni talab qilmoqda.

So'nggi yillarda mintaqaviy rivojlanishni baholashda ko'p o'lchovli statistik usullardan, xususan klaster tahlilidan foydalanish kengaymoqda. Klaster tahlili hududlar o'rtasidagi o'xshashlik va farqlarni aniqlash, resurslarni samarali taqsimlash hamda differensial rivojlanish strategiyalarini ishlab chiqish imkonini beradi. Xorijiy tadqiqotlarda inson kapitali va iqtisodiy o'sish o'rtasidagi bog'liqlik klasterli yondashuvlar asosida keng o'rganilgan bo'lsa-da, O'zbekiston hududlari, xususan Xorazm viloyati kesimida bunday tahlillar yetarli darajada olib borilmagan.

Mazkur maqolaning asosiy maqsadi Xorazm viloyati shahar va tumanlarida inson kapitalining rivojlanish darajasini klasterli yondashuv asosida baholash hamda hududiy farqlarni aniqlashdan iborat.

TADQIQOT METODOLOGIYASI VA O'RGANILGANLIK DARAJASI

Mintaqaviy iqtisodiyotning zamonaviy tadqiqotlarida inson kapitali, iqtisodiy rivojlanish va klaster tahliliga oid muhim yondashuvlarni o'z ichiga oladi. Xususan, Pelinescu va boshqalar [1] o'z tadqiqot ishlarida inson kapitalining iqtisodiy o'sishga ta'sirini klaster tahlili yordamida o'rganadi. OECD mamlakatlari ma'lumotlaridan foydalanib, ta'lim sifati va innovatsiyalar o'rtasidagi bog'liqlik guruhlanadi. Tadqiqot natijalariga ko'ra yuqori ta'lim sifatiga ega mamlakatlar innovatsiyalar va iqtisodiy o'sish bo'yicha alohida klasterlarni shakllantiradi. Ta'lim sarmoyalari uzoq muddatli o'sishni ta'minlaydi.

Wielechowski va boshqalar [2] Chexiya va Polsha mamlakalaridagi 30 ta mintaqalarida inson kapitalining iqtisodiy rivojlanishga ta'sirini klaster tahlili orqali baholashadi. Tadqiqotda iyerarxik klasterlash va k-vaznli usullar qo'llanilgan. Tadqiqot natijalari malakali ishchi kuchi mavjud bo'lgan mintaqalar iqtisodiy jihatdan tezroq rivojlanganini hamda klasterlar mintaqaviy farqlarni aniq ko'rsatadi.

Petrov [3] o'z tadqiqot ishida "Cluster analysis" tahlili usulini qo'llagan holda 35 ta Yevropa mamlakatlarini ilmiy-tadqiqot salohiyati asosida klasterlashni nazarda tutadi, asosiy ko'rsatkichlarni va ularning milliy innovatsion strategiyalar uchun ta'sirini har tomonlama tahlil qilishni ta'minlaydi. Tahlil to'rtta aniqlangan klaster o'rtasidagi farqning eng muhim jihatlari bo'yicha amalga oshirildi.

Angelo va Alberto [4] lar Yevropa Ittifoqining 36 mamlakat uchun Yevropa innovatsiyalar reytingidan foydalangan holda Yevropadagi innovatsiyalar va inson resurslari o'rtasidagi munosabatlarni baholashadi. Shuningdek, mazkur tadqiqot ishida "K-Means" algoritmi metodologiyasidan foydalanishadi. Tadqiqot natijalari klasterlashtirish inson resurslari darajasi yuqori bo'lgan Markaziy va Shimoliy Yevropa mamlakatlari mavjudligini ko'rsatadi, Janubiy va Sharqiy Evropa mamlakatlarida esa inson resurslari darajasi juda past ekanligini qayd etadi.

Alqararah va Alnafrah [6] lar tadqiqot ishida iyerarxik va K-means klaster tahlili usullari turli xil masofaviy matritsalar to'plamidan foydalangan holda turli xil innovatsiya modellarini

ochish va tahlil qilish uchun qo'llashadi. Tadqiqot natijalariga ko'ra, 129 mamlakatni to'rtta klasterga ajratildi: Maxsus, Ilg'or, O'rta va Boshlang'ich. Har bir klaster innovatsion samaradorlik nuqtai nazaridan kuchli va zaif tomonlarini namoyish etadi. Mutaxassislar muassasalar va bilimlarni tijoratlashtirish sohasida ustunlik qildi, Ilg'or klaster esa ta'lim va AKT bilan bog'liq xizmatlarning kuchli tomonlarini namoyish etadi, lekin patentni tijoratlashtirishda zaiflikni ko'rsatdi.

Klaster tahlili inson kapitalini baholashda samarali vosita sifatida o'zini ko'rsatmoqda. Ushbu usul mintaqalarni turli ko'rsatkichlar (masalan, ta'lim darajasi, sog'liqni saqlash sifati, ish bilan ta'minlanganlik darajasi va innovatsion faollik) asosida o'xshash xususiyatlarga ega guruhlariga ajratish imkonini beradi. Klasterlash orqali mintaqalarning inson kapitali rivojlanishidagi o'ziga xos afzalliklari va kamchiliklari aniqlanadi, bu esa maqsadli siyosat va dasturlarni ishlab chiqishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga, klaster tahlili katta hajmdagi ma'lumotlarni tizimli ravishda tahlil qilish imkonini berib, qaror qabul qilish jarayonlarini soddalashtiradi va resurslardan oqilona foydalanishni ta'minlaydi.

Mintaqaviy kontekstda inson kapitalini rivojlantirishni baholashda klaster tahlilidan foydalanish bir qator afzalliklarni taqdim etadi. Birinchidan, bu usul mintaqalararo tengsizlikni aniqlash va uni bartaraf etish uchun yo'naltirilgan choralar ko'rish imkonini beradi. Ikkinchidan, klaster tahlili mintaqalarning iqtisodiy, ijtimoiy va demografik xususiyatlarini hisobga olgan holda moslashtirilgan strategiyalarni ishlab chiqishga yordam beradi. Uchinchidan, ushbu usul davlat boshqaruvi, xususiy sektor va xalqaro tashkilotlar o'rtasidagi hamkorlikni mustahkamlashga xizmat qiladi, chunki aniqlangan klasterlar resurslarni birgalikda boshqarish va investitsiyalarni jalb qilish uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Mazkur tadqiqotda inson kapitalini mintaqaviy darajada baholash va hududlar o'rtasidagi o'xshashlik hamda farqlarni aniqlash maqsadida klaster tahlilining "K-means clustering (K-o'rtacha klasterlash)" usulidan foydalanildi. Tadqiqot obyekti sifatida Xorazm viloyatining shahar va tumanlari tanlab olindi. Inson kapitalini ifodalovchi asosiy ko'rsatkichlar sog'liqni saqlash, ta'lim va bandlik darajasi kabi omillarni o'z ichiga oladi.

Yuqorida ko'rib chiqilgan ilmiy tadqiqotlardagi tahlil va xulosalarga tayangan holda, mazkur tadqiqot ishida klaster tahlilining K-means algoritmi tanlandi. Ushbu algoritmi ma'lumotlarni shunday k ta klasterga ajratishga harakat qiladiki, har bir klaster ichidagi kuzatuvlar o'z klaster markaziga (centroid) imkon qadar yaqin bo'lsin, klasterlar esa bir-biridan maksimal darajada farqlansin. Bu maqsad within-cluster sum of squares (WCSS) ko'rsatkichini minimallashtirish orqali amalga oshiriladi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Yuqorida ko'rib chiqilgan tadqiqotlardagi tahlil va natijalariga hamda fikrlarga tayangan holda biz mazkur tadqiqot ishimizning ushbu paragrafida "Klasterli tahlil (Cluster analysis)" ning "K-means clustering (**K-o'rtacha klasterlash**)" turidan foydalanamiz.

"K-means clustering" algoritmi ma'lumotlarni shunday k ta klasterga bo'lishga harakat qiladiki, har bir klaster ichidagi nuqtalar o'z klaster markaziga (centroid) iloji boricha yaqin bo'lsin, lekin klasterlar bir-biridan imkon qadar farqli bo'lsin. Bu maqsad within-cluster sum of squares (WCSS) ni minimallashtirish orqali amalga oshiriladi. K-means algoritmining bosqichlari quyidagicha amalga oshiriladi:

1. Klasterlar sonini (k) tanlash.

Algoritmni boshlashdan oldin, ma'lumotlarni necha ta klasterga bo'lish kerakligini (k) aniqlash lozim. Bu qiymat foydalanuvchi tomonidan belgilanadi yoki Elbow Method kabi usullar yordamida taxmin qilinadi.

Izoh: k ni noto'g'ri tanlash algoritmnining natijasiga ta'sir qiladi. Odatda, bir nechta k qiymatlari sinab ko'riladi.

2. Boshlang'ich centroidlarni tanlash.

Har bir klaster uchun markaz (centroid) sifatida k ta nuqta tasodifiy tanlanadi. Bu nuqtalar ma'lumotlar to'plamidagi haqiqiy nuqtalar bo'lishi mumkin. Ya'ni agar ma'lumotlar to'plami $X = \{x_1, x_2, \dots, x_n\}$ bo'lsa, har bir centroid $\mu_j (j = 1, 2, \dots, k)$ tasodifiy tanlanadi.

Izoh: Boshlang'ich centroidlarning tanlovi algoritmnining natijasiga ta'sir qilishi mumkin.

3. Nuqtalarni klasterlarga tayinlash.

Har bir ma'lumot nuqtasi x_i eng yaqin centroidga asoslanib klasterga tayinlanadi. Yaqinlik odatda Evklid masofasi orqali hisoblanadi. Har bir nuqta x_i uchun eng yaqin centroid μ_j quyidagicha aniqlanadi:

$$Klaster(x_i) = \operatorname{argmin}_j \|x_i - \mu_j\|^2 \quad (2.3.1)$$

bu yerda $\|x_i - \mu_j\|^2$ – Evkilid masofasining kvadrati:

$$\|x_i - \mu_j\|^2 = \sum_{m=1}^d (x_{i,m} - \mu_{j,m})^2$$

d – ma'lumot nuqtasining o'lchamlari soni, $x_{i,m} - x_i$ ning m – o'lchami,

$\mu_{j,m} - \mu_j$ centroidining m – o'lchami

Izoh: Har bir nuqta faqat bitta klasterga tegishli bo'ladi (hard clustering).

4. Centroidlarni yangilash.

Har bir klasterdagi nuqtalar o'rtacha qiymati hisoblanib, yangi centroidlar aniqlanadi. Ya'ni j – klasterdagi centroid μ_j quyidagicha yangilanadi:

$$\mu_j = \frac{1}{n_j} \sum_{x_i \in C_j} x_i \quad (2.3.2)$$

bu yerda: $C_j - j$ – klasterdagi nuqtalar to'plami, $n_j - C_j$ dagi nuqtalar soni.

Izoh: Bu jarayon klaster ichidagi nuqtalar o'rtacha qiymatini topish orqali centroidni "markazlashtiradi".

5. Konvergenstiyani tekshirish.

Agar centroidlar o'zgarishi ma'lum bir chegaradan kichik bo'lsa (masalan, ϵ) yoki ma'lum bir iteratsiyalar soniga yetilsa, algoritm to'xtaydi. Aks holda, 3-bosqichga qaytib, nuqtalarni qayta tayinlash amalga oshiriladi. Bunda centroidlar o'zgarishi quyidagicha tekshiriladi:

$$\operatorname{Max}_j \|\mu_j^{\text{yangi}} - \mu_j^{\text{eski}}\| < \epsilon \quad (2.3.3)$$

mazkur shart bajarilganda, algoritm optimal yechimga yaqinlashgan deb hisoblanadi.

6. Natijalarni hosil qilish

Algoritm tugagach, har bir nuqta o'z klasteriga tayinlangan bo'ladi va har bir klasterning centroidi aniqlanadi. $WCSS$ qiymati quyidagicha hisoblanadi:

$$WCSS = \sum_{j=1}^k \sum_{x_i \in C_j} \|x_i - \mu_j\|^2 \quad (2.3.4)$$

Izoh: $WCSS$ klasterlash sifatini baholash uchun ishlatiladi; kichik $WCSS$ yaxshi klasterlashni anglatadi.

Yuqoridagi K-means algoritmi asosida Xorazm viloyati shahar va tumanlarining inson kapitali ko'rsatkichlari asosida bir-biriga yaqinlik matritsasi shakllantirildi (1-jadval).

Quyidagi 1-jadvalda Xorazm viloyatidagi shahar va tumanlar o'rtasidagi inson kapitali ko'rsatkichlariga asoslangan "Evkilid masofasi kvadrati"ni ifodalaydi. Bu ko'rsatkichlar, sog'liqni saqlash, ta'lim va bandlik darajasi kabi omillarni o'z ichiga oladi. Kichik masofalar o'xshash inson kapitali darajasini, katta masofalar esa katta farqlarni ko'rsatadi.

Masofalar o'rtacha qiymati taxminan 5.52 bo'lib, umumiy o'xshashlik darajasini ko'rsatadi. Eng kichik masofa, masalan, Gurlan va Xiva o'rtasidagi 0.387, ularning inson kapitali ko'rsatkichlarida juda yaqin ekanligini ko'rsatadi. Shu bilan birga, Tuproqqal'a boshqa joylardan, masalan, Urganch sh. bilan 34.786 masofada, ancha uzoq, bu uning boshqa joylardan sezilarli darajada farq qilishini ko'rsatishi mumkin.

Masofalar matritsasini klasterlash uchun foydalanish orqali, biz o'xshash inson kapitaliga ega joylarni guruhlashimiz mumkin. Masalan, eng kichik masofalar, masalan, Gurlan va Xiva o'rtasidagi 0.387, ularni bitta klasterga birlashtirishi mumkin. Shu bilan birga, Shovot va Xiva o'rtasidagi 0.406 ham ularga yaqin ekanligini ko'rsatadi.

Masofasi 1 dan kichik bo'lgan shahar va tumanlar juftliklariga e'tibor bersak o'xshashlikning yuqori darajasini ko'rsatadi. Masalan, Gurlan va Xiva (0.387), Shovot va Xiva


(0.406), Bog‘ot va Urganch (0.440), Qo‘shko‘pir va Xonqa (0.552), Qo‘shko‘pir va Shovot (0.501), Xonqa va Shovot (0.617). Ushbu masofalarga ko‘ra, Gurlan, Xiva, Shovot, Xonqa va Qo‘shko‘pir kabi tumanlar bitta klasterga kirishi mumkin, chunki ular o‘rtasidagi masofalar kichik. Shu bilan birga, Bog‘ot va Urganch ham yaqin ekanliklari sababli boshqa klasterga kirishi mumkin.

1-jadval

Xorazm viloyati shahar va tumanlarining inson kapitali ko‘rsatkichlari asosida bir-biriga yaqinlik matritsasi (“Evkilid masofasi kvadrati” asosida hisoblangan)

Shahar va tumanlarning nomlari	Urganch sh.	Xiva sh.	Bog‘ot	Gurlan	Qo‘shko‘pir	Urganch	Hazorasp	Tuproqqal‘a	Xonqa	Xiva	Shovot	Yangiariq	Yangibozor
Urganch sh.	0.000												
Xiva sh.	19.055	0.000											
Bog‘ot	4.038	8.535	0.000										
Gurlan	13.852	3.098	3.821	0.000									
Qo‘shko‘pir	8.401	3.699	1.972	1.064	0.000								
Urganch	5.918	7.789	0.440	2.510	1.574	0.000							
Hazorasp	6.791	6.980	1.256	2.154	1.349	1.033	0.000						
Tuproqqal‘a	34.786	2.612	19.841	9.542	11.675	18.629	17.173	0.000					
Xonqa	8.030	6.006	1.629	1.660	0.552	1.065	1.012	15.095	0.000				
Xiva	12.657	2.939	3.134	0.387	0.981	2.147	1.700	9.704	1.248	0.000			
Shovot	9.991	3.932	1.984	0.479	0.501	1.131	1.132	11.734	0.617	0.406	0.000		
Yangiariq	16.461	2.668	4.718	0.962	2.283	3.690	3.609	7.727	2.588	0.590	1.306	0.000	
Yangibozor	19.104	2.577	6.587	2.048	3.559	5.416	5.969	7.070	4.610	1.669	3.019	1.035	0.000

Tuproqqal‘a esa boshqa joylardan ancha uzoq, masalan, Urganch sh. bilan 34.786 masofada, bu uning o‘ziga xos inson kapitali profiliga ega ekanligini ko‘rsatadi. Yuqoridagi holatlardan kelib chiqqan holda Xorazm viloyati shahar va tumanlarining inson kapitali ko‘rsatkichlar asosida qanday shaklda klasterlarga ajralishi tasvirlangan (1-rasm).



1-rasm. Xorazm viloyati shahar va tumanlarining inson kapitali ko‘rsatkichlar asosida dendrogramma tasviri.

Yuqoridagi 1-rasmdagi dendrogramma tasviriga ko‘ra dastlab Gurlan-Xiva klasteri hosil bo‘lgan, so‘ngra Bog‘ot-Urganch klasteri, Qo‘shko‘pir-Xonqa klasteri, Yangiariq-Yangibozor klasteri, Urganch shahri, Tuproqqal’a 6 ta klaster mavjud bo‘lgan. So‘ngra o‘xshashlik darajalari asosida Gurlan-Xiva-Shovot klasteri, Bog‘ot-Urganch-Hazorasp klasteri, Qo‘shko‘pir-Xonqa klasteri, Yangiariq-Yangibozor-Xiva shahri klasteri, Urganch shahri, Tuproqqal’a klasterlari hosil bo‘lgan. Shu tariqa oxirgi bosqichda Xorazm viloyati shahar va tumanlarining to‘rtta klasteri hosil bo‘ldi va quyidagicha tartibda joylashtirildi (2-jadval).

2-jadval

Xorazm viloyati shahar va tumanlarining inson kapitali ko‘rsatkichlar asosida klasterlarga ajratilishi

Klaster tartib raqami	Inson kapitali darajasi	Shahar va tumanlarning nomlari
1	Yuqori daraja	Urganch shahri
2	O‘rta daraja	Xiva shahri, Yangiariq, Yangibozor
3	O‘rta darajadan past	Bog‘ot, Gurlan, Qo‘shko‘pir, Urganch, Hazorasp, Xonqa, Xiva, Shovot
4	Past daraja	Tuproqqa’la

Yuqorida Xorazm viloyatidagi shahar va tumanlar o'rtasidagi inson kapitali ko'rsatkichlariga asoslangan "Evklid masofasi kvadrati" ni tahlil va natijalarga asoslangan holda aytish mumkin inson kapitali iqtisodiy o'sish va rivojlanishning asosiy omillaridan biridir. O'xshash inson kapitaliga ega shahar va tumanlar, masalan, Bog'ot, Gurlan, Qo'shko'pir, Urganch, Hazorasp, Xonqa, Xiva va Shovot o'xshash iqtisodiy imkoniyatlar va muammolarga ega bo'lishi mumkin. Masalan, ular ta'lim sifatini yaxshilash yoki bandlik darajasini oshirish uchun bir xil siyosatlar talab qilishi mumkin. Mazkur iqtisodiy rivojlanishda o'xshash potentsialga ega bo'lishi mumkin, masalan, investitsiyalarni jalb qilish yoki ish o'rinlarini yaratishda.

Tuproqqal'a kabi joylar, agar u boshqa joylardan uzoq masofada bo'lsa, bu uning inson kapitali ko'rsatkichlarida katta farq borligini ko'rsatadi. Klasterlar o'rtasidagi katta masofalar (masalan, 20 dan oshiq) hududlar o'rtasida hamkorlikni rivojlantirish uchun qo'shimcha sa'y-harakatlar zarurligini ko'rsatadi. Ya'ni infratuzilma yoki ta'lim sifatini oshirishga e'tibor qaratish iqtisodiy integratsiyani yaxshilashi mumkin. Yaqin klasterlardagi hududlar o'zaro tajriba almashish orqali iqtisodiy samaradorlikni oshirishi mumkin.

Mazkur klasterlash mintaqani ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishga qaratilgan startegiylarni va dasturlarni ishlab chiqishda foydalanilishi mumkin. Masalan, past va o'rta darajadan past klasterlardagi tumanlarda inson kapitalini rivojlantirish uchun maxsus loyihalar ishlab chiqilishi, ta'lim va tibbiy xizmatlarni yaxshilash, shuningdek, iqtisodiy imkoniyatlarni oshirish mumkin. Yuqori va o'rta darajadagi klasterlar esa mavjud resurslardan foydalanish va ularni yanada rivojlantirish uchun samarali ishlatishga yo'naltirilishi mumkin.

XULOSA

Mazkur tadqiqot Xorazm viloyati shahar va tumanlarida inson kapitali rivojlanish darajasini klasterli yondashuv asosida baholashga qaratilgan. Inson kapitalini ifodalovchi asosiy ko'rsatkichlar sifatida ta'lim, sog'liqni saqlash va bandlik indikatorlari tanlanib, K-means klasterlash algoritmi qo'llanildi. Hududlar o'rtasidagi o'xshashlik va tafovutlar Evklid masofasining kvadrati yordamida aniqlandi. Natijalar inson kapitalining mintaqaviy ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishdagi muhim rolini tasdiqladi.

Klaster tahlili natijasida Xorazm viloyati hududlari inson kapitali rivojlanish darajasiga ko'ra to'rtta guruhga ajratildi. Urganch shahri yuqori darajadagi inson kapitaliga ega hudud sifatida alohida klasterni shakllantirdi. Xiva shahri, Yangiariq va Yangibozor tumanlari o'rta darajali klasterga kiritildi. Bog'ot, Gurlan, Qo'shko'pir, Urganch tumani, Hazorasp, Xonqa, Xiva tumani va Shovot tumanlari o'rta darajadan past klasterni tashkil etdi. Tuproqqal'a tumani esa inson kapitali ko'rsatkichlari bo'yicha eng past darajadagi klasterga mansub bo'ldi.

Evklid masofasi asosida tuzilgan yaqinlik matritsasi va dendrogramma ayrim hududlar o'rtasida inson kapitali rivojlanish darajasi jihatidan yuqori o'xshashlik mavjudligini ko'rsatdi. Xususan, Gurlan–Xiva, Shovot–Xiva va Bog'ot–Urganch juftliklari ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarning o'xshashligini tasdiqlaydi. Aksincha, Tuproqqal'a tumanining boshqa hududlardan sezilarli darajada farqlanishi mazkur hududda inson kapitali rivojlanishida tizimli muammolar mavjudligini ko'rsatadi.

Olingan natijalar mintaqaviy rivojlanish siyosatini ishlab chiqishda klasterli yondashuvdan foydalanish muhimligini asoslab berdi. Inson kapitali darajasi o'xshash hududlar uchun moslashtirilgan rivojlanish strategiyalarini qo'llash, o'rta va past darajali klasterlarda esa ta'lim, sog'liqni saqlash va bandlikni rivojlantirishga qaratilgan maqsadli choralarni kuchaytirish zarur.

ADABIYOTLAR

1. Pelinescu, E., Pauna, C., Saman, C., & Diaconescu, T. (2019). Human capital, innovation and economic growth in the EU countries. *Romanian Journal of Economic Forecasting*, 22(4), 160-173.
2. Wielechowski, M., Cherevyk, D., Czech, K., Kotyza, P., Grzęda, Ł., & Smutka, L. (2021). Interdependence between human capital determinants and economic development: K-means

regional clustering approach for Czechia and Poland. *Entrepreneurial Business and Economics Review*, 9(4), 173-194.

3. Petrov, V. (2025). Cluster analysis of research and development capacity in Europe. *The European Journal of Applied Economics*, 22(1), 86-97. <https://doi.org/10.5937/ejae22-55532>

4. Angelo, L., & Alberto, C. (2021). Human Resources in Europe. Estimation, Clusterization, Machine Learning and Prediction. *Machine Learning and Prediction* (September 29, 2021). *American Journal of Humanities and Social Sciences Research (AJHSSR)*, e-ISSN.

5. Sherov, A. B. (2022). Current issues of financing higher education institutions in the condition of an innovative economy. *Gospodarka i Innowacje*, 21, 127-130.

6. Alqararah, K., & Alnafrah, I. (2024). Innovation-driven clustering for better national innovation benchmarking. *Journal of Entrepreneurship and Public Policy*, 13(2), 234-254. <https://doi.org/10.1108/JEPP-01-2023-0007>

7. Ruzmetova, G. N. (2024). Mamlakatda inson kapitalini rivojlantirishda aholi salomatlik darajasi tahlili. qo ‘qon universiteti xabarnomasi, 10, 69-72.

8. Sherov, A. (2019). Reforms in the system of higher education and their impact on financial stability. *International Finance and Accounting*, 2019(3), 21.

9. Ruzmetova, G.N. (2025). Inson kapitalini rivojlantirishning mintaqaviy rivojlanish asoslarining asosiy omillari tahlili. *Наука и инновация*, 3(13), 100-102.


10. Кучкаров, Ш., & Шеров, А. Б. (2022). Таълим муассасаларини молиялаштиришда натижага йўналтирилган бюджетлаштириш истиқболлари. *Central Asian Academic Journal of Scientific Research*, 2(2), 62-67.

Butanova Dilnoza Rustamovna

Phd, dotsent Ma' mun universiteti

“Buxgalteriya hisobi” kafedراسi v.b prof

butanovadilnoza@gmail.com

AGROTARMOQDA STATISTIK TAHLILNING NAZARIY ASOSLARI <http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.00000000>**ANNOTATSIYA**

Ushbu maqolada qishloq xo'jaligida statistik tahlilning nazariy tamonlari yoritilgan bo'lib, shuningdek bunda asosan statistik usullar yordamida ularning o'zgarish sur'atlarini ifodalash imkoni mavjidliligi keltirilgan. Shuningdek, bunday tahlil qilish evaziga erishish mumkin bo'lgan ijobiy natijalar berilgan.

Kalit so'zlar: statistika, regressiya, normal taqsimot, qishloq xo'jaligi, statistika, gepoteza, korrelyatsiya, tavsiflovchi statistika, xulosalovchi statistika

АННОТАЦИЯ

В данной статье рассматриваются теоретические аспекты статистического анализа в сельском хозяйстве, а также показана возможность выражения темпов их изменения с использованием преимущественно статистических методов. Приводятся также положительные результаты, которые могут быть достигнуты в результате такого анализа.

Ключевые слова: статистика, регрессия, нормальное распределение, сельское хозяйство, статистика, гипотеза, корреляция, описательная статистика, выводная статистика

ANNOTATION

This article discusses the theoretical aspects of statistical analysis in agriculture, and also shows the possibility of expressing their rates of change using mainly statistical methods. Also, the positive results that can be achieved as a result of such analysis are given.

Keywords: statistics, regression, normal distribution, agriculture, statistics, hypothesis, correlation, descriptive statistics, inferential statistics

KIRISH

Jahon iqtisodiyotida qishloq xo'jaligi doim muhim tarmoqlardan bo'lib hisoblangan. Chunki oziq – ovqat va sanoat uchun ham xom ashyo manbai bo'lib hisoblanadi. Shu o'rinda “2050 yilga borib 9,7 milliard aholini to'ydirish loyihasini amalga oshirishda qishloq xo'jaligini rivojlantirish muhim muammolardan biri sifatida qaralmoqda”.

Qishloq xo'jaligi mamlakat iqtisodiy taraqqiyotini ta'minlashda strategik ahamiyatga bo'lgan muhim tarmoqlardan biri hisoblanadi. Qishloq xo'jaligi rivojlangan mamlakatlar iqtisodiy faravonligini ta'minlashga allaqachon katta hissa qo'shgan bo'lsa, rivojlanayotgan va kam rivojlangan davlatlar iqtisodiy taraqqiyotida hayotiy ahamiyat kasb etadi. Ya'ni qishloq xo'jaligi insonning birlamchi ehtiyojlarini qondirish uchun zarur bo'lgan ne'matlarni ishlab chiqargani holda insonlarning sog'ligi va faravonligini ta'minlashda, bugungi kunda tobora dolzrablik kasb etayotgan

to'yib ovqatlanmaslik muammosini bartaraf etishda asosiy vosita bo'lib, jamiyat va butun xalq faravonligini ta'minlashga olib keladigan muhim ahamiyatga ega tarmoq sifatida qaraladi. Shuningdek qishloq xo'jaligi mamlakat iqtisodiyotida yuzaga keluvchi bir qator muamlarni ham yechimi bera olishini ham ta'kidlashimiz mumkin. Xususan, agrotarmoq millionlab ishchi o'rinlarini o'zida mujassamlashtirgan bo'lib, bundan tashqari ta'minot zanjirida ham ko'plab ishchi o'rinlarini yaratish salohiyatiga ega hisoblanadi. Dunyo hamjamiyati doirasidagi "Oziq-ovqat tizimlari 2030" (Foodsystem 2030) strategiyasi doirasida barcha mamlakatlarda sog'lom va barqaror oziq- ovaqat ta'minotini shakllantirishga qaratilgan missiya oldinga surilmoqda. Bu esa agrotarmoq rivojlanishini doimo ilmiy- nazariy jihatdan takomillashtirib borish zaruriyatini oldinga suradi.


ADABIYOTLAR TAHLILI

Ko'plab tadqiqotchilar qishloq xo'jaligining iqtisodiyotning turli ko'rsatkichlari va jarayonlaridagi rolini baholash va aniqlash bo'yicha tadqiqotlar olib borganlar. Masalan, qishloq xo'jaligining iqtisodiy rivojlanishdagi roli [6], iqtisodiy barqarorlik [2], aholi boshiga tushadigan YaIM, qishloq xo'jaligi va ishlab chiqarish tarmoqlari o'rtasidagi munosabatlar [5]. Shuningdek, qishloq xo'jaligining bandlik va aholining daromadini oshirishdagi roli asoslab berilgan [6]. Qishloq xo'jaligi rolini baholash uchun ekonometriya vositalaridan foydalanish zarur, shuning uchun qishloq xo'jaligi yetkazib berish ekonometriyasi [7], qishloq xo'jaligidagi ekonometriya vositalari [8], qishloq xo'jaligi ekinlari hosildorligining dinamikasini tahlil qilish va prognozlash muammolarini yechish uchun ekonometriya usullari [9] ko'rib chiqilgan.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Qishloq xo'jaligi ekinlarni ekish, qishloq xo'jalik hayvonlarini boqish, oziq-ovqat mahsulotlarini yetishtirish, yig'ib olish, tashish va saqlash, qayta ishlash jarayonlarini o'z ichiga oladi yoki ular bilan o'zaro aloqada rivojlanadi. Ushbu jarayonlarni tushunish va ular rivojlanish tendensiyalarini tadqiq qilish sohani istiqbolli yo'nalishlarini ishlab chiqishga yordam beradi. Bu kabi holatlarda statistika zarur bo'lgan ma'lumotlar bilan ta'minlash, ularni qayta ishlash va tahlil qilish uchun uslubiy asosni shakllantirishga xizmat qiladi.

Statistika tushunchasiga qisqacha to'xtalib o'tadigan bo'lsak, tor ma'noda faktlar, raqamlar, grafiklar va diagrammalar to'plamini ya'ni raqamlar bilan berilgan har qanday faktik ma'lumotlarni anglatadi. Ammo, keng ma'noda statistika ma'lumotlarga asoslangan qarorlar qabul qilish bilan shug'ullanadigan amaliy matematikaning bir qismi hisoblanadi. Shu sababli statistikani ikkita asosiy qismdan tashkil topadi (1-rasm).



1-rasm. Statistikaning ikkita asosiy qismi.

Tavsiflovchi statistika ma'lumotlarni yig'ish, tartibga solish, ma'lumotlar bazasini shakllantirishi, taqdim etish, dastlabki tahlilini amalga oshirish, ya'ni guruhlangan ma'lumotlar asosida turli diagrammalarni shakllantirish, o'rtacha, o'rtacha kvadratik chetlanish, moda, mediana, assimetriya, kurtos kabi ko'rsatkichlarni hisoblash bilan shug'ullanadi. Ya'ni, xulosalashga imkon bermaydi, ma'lumot haqidagi umumiy xarakteristikani tavsiflaydi.

Bizga ma'lumki, statistik kuzatuv jarayonida tanlanma kuzatish keng miqyosda qo'llaniladi. Bunday kuzatuv shakli vaqt va mablag'ni tejash imkonini beradi. Agrotarmoqda statistik kuzatuvni amalga oshirishda tanlanma kuzatish shakli ham qo'llaniladi.

Qishloq xo'jaligida tadqiqotni amalga oshirish uchun tanlama kuzatuvni rejalashtirganda asosiy maqsad mavjud obyekt yoki jarayon haqida umumiy tushuncha hamda qaror qabul qilish uchun yetarli ma'lumotlarni to'plashni maqsad qiladi. Ma'lumotlarni yig'ish jarayonidagi o'ziga xos bo'lgan qiyinchiliklar ma'lumotlar to'liqligi va to'g'riligini ta'minlash bilan bog'liq

muammolarni keltirib chiqaradi. Bu kabi qiyinchiliklarni bartaraf etishda tavsiflovchi va xulosalovchi statistik usullardan foydalanish lozim bo'ladi.

Olingan ma'lumotlarni ishonchliligini tekshirish uchun qator o'lchovlar, o'rtacha qiymat, o'rta kvadratik cheklanish, kurtoz va assimetriya kabilardan foydalaniladi. Bu kabi tahlillarda o'zgaruvchilar orasidagi bog'lanishlar tufayli ma'lumotlarning bir qismi yo'qotiladi.

Qishloq xo'jaligini rivojlanishini tadqiq qilishda muhim bo'lgan tajribalar o'tkazish fan taraqqiyotining asosi hisoblanadi. Chunki, aynan tajribalar qonuniyatlar, nazariyalarni ishlab chiqish, tasdiqlash yoki rad etilishining muhim vositasi hisoblanadi. Tajribalar yangi faktlarni tasdiqlash yoki oldingi natijalarni asoslash yoki rad etish uchun amalga oshirilgan tadqiqotlar sifatida ta'riflanadi, bunday tadqiqotlar jarayon yoki pestitsidlarni qo'llash bo'yicha qaror qabul qilishga yordam beradi.

Tadqiqotni amlash oshirishda mos statistik usulni tanlash muhim bosqich hisoblanadi. Bunda quyidagilarni hisobga olish talab qilinadi.

1. Tanlab olingan o'zgaruvchilar erkli o'zgaruvchi yoki erksiz o'zgaruvchi ekanligini aniqlash;

2. O'zgaruvchilar diskret yoki uzluksizligini aniqlash.

Natijada, tajriba yoki tanlama kuzatuv asosida yig'ilgan ma'lumotlarni tahlil qilish uchun mos bo'lgan usulni aniqlash imkoniyati yaratiladi.

Mavjud ma'lumotlarni tahlil qilish ular orasidagi sabab-oqbitni aniqlash va baholashda eng maqbul usullardan sifatida korrelyatsion-regression tahlilni qarash mumkin.

Qishloq xo'jaligini tadqiq qiluvchi barcha tadqiqotchilar natijaviy omil Y hamda ta'sir qiluvchi o'zgaruvchilar $X_1, X_2, X_3, \dots, X_n$ orasidagi bog'liqlikni aniqlashga harakat qilishadi. Ya'ni natijaviy omil hamda ta'sir qiluvchi o'zgaruvchilar orasidagi funksional bog'liqlikni baholashga harakat qilishadi.

Korrelyatsiya usuli bu o'zgaruvchilar o'rtasidagi bog'liqlik mavjudligi va darajasini aniqlash uchun qo'llaniladi. Korrelyatsion usul asosida qator ko'rsatkichlar hisoblanadi. Bular:

1. Oddiy korrelyatsiya: ushbu koeffitsient ikki o'zgaruvchi o'rtasidagi chiziqli munosabatlarning kuchi va yo'nalishini o'lchaydi. Tanlama kuzatuv ma'lumotlari asosida aniqlangan korrelyatsiya koeffitsientini "r" bilan belgilanadi. Bosh to'plam asosida aniqlangan korrelyatsiya koeffitsienti yunoncha ρ harfi bilan belgilanadi. Buning uchun quyidagi formuladan foydalaniladi.

$$r_{XY} = \frac{\frac{1}{n} \sum_{i=1}^n (Y_i - \bar{Y})(X_i - \bar{X})}{\sqrt{\frac{1}{n} \sum_{i=1}^n (Y_i - \bar{Y})^2} \sqrt{\frac{1}{n} \sum_{i=1}^n (X_i - \bar{X})^2}}$$

Ushbu aniqlangan korrelyatsiya koeffitsienti -1 va +1 oralig'idagi qiymatlarini qabul qiladi.

2. Qisman korrelyatsiya ikki o'zgaruvchi o'rtasidagi aniq munosabatni baholaydi. Uchta o'zgaruvchi Y, X_1, X_2 mavjud bo'lgan holatda X_2 konstanta sifatida qarab Y va X_1 , orasidagi munosabatni baholaydi. Aniqlangan koeffitsient -1 dan +1 oraliqda o'zgaradi.

$$r_{YX_1X_2} = \frac{r_{YX_1} - r_{YX_2}r_{X_1X_2}}{\sqrt{(1 - r_{YX_2}^2)}\sqrt{(1 - r_{X_1X_2}^2)}}$$

3. Ko'p omilla korrelyatsiya erksiz o'zgaruvchi Y ikki yoki undan ortiq erkli o'zgaruvchilar bilan bog'liqlik darajasini baholaydi. Boshqacha aytganda erkli o'zgaruvchilardagi tebranishlar, erksiz o'zgaruvchidagi tebranishlarning qanchalik qismini tashkil qilishini aniqlaydi. Ushbu ko'rsatkich 0 dan birgacha bo'lgan oraliqdagi qiymatlarni qabul qiladi.


$$R_{YX_1X_2}^2 = \frac{r_{YX_1}^2 + r_{YX_2}^2 - 2r_{YX_1}r_{YX_2}r_{X_1X_2}}{1 - r_{X_1X_2}^2}$$

Regression tahlil o'zgaruvchilar orasidagi bog'liqlikning funksional ko'rinishini aniqlashga xizmat qiladi. Regression tahlil erkli o'zgaruvchilarning mos yoki berilgan qiymatiga to'g'ri keladigan erksiz o'zgaruvchi qiymatini aniqlash imkonini beradi. Regression tahlil usuli o'zgaruvchilar orasidagi munosabatlarning aniqlaydi. U erkli o'zgaruvchilarni erksiz o'zgaruvchiga

ta'sirini baholaydi. Agar erkli o'zgaruvchilar soni bitta bo'lsa, munosabatlarni to'g'ri chiziq shaklida ifodalash mumkin. Ushbu model oddiy chiziqli yoki bir omilli regressiya deyiladi.

“Regressiya” quyidagicha tushinish mumkin, ya'ni agar erkli o'zgaruvchilarning erksiz o'zgaruvchiga ta'siri mavjud bo'lsa va ularning qiymati ma'lum bo'lganda erksiz o'zgaruvchining qiymatini baholaydigan usuldir. Regressiya so'zining lug'aviy ma'nosi orqaga ketish demakdir. Ushbu tushunchani birinchi bo'lib Fransis Galton o'zining “Irsiy bo'ydagi o'rtamiyonalik tomon regressiya” tadqiqotida ishlatgan.

Agarda o'zgaruvchilar orasidagi korrelyatsiya yuqori darajada bo'lsa, nuqtalar aniqlangan regressiya chizig'iga shunchalik yaqin joylashadi. Regression tahlil bizga haqiqiy nuqtalarga eng yaqin bo'lgan chiziqni aniqlash imkoniyatini beradi. Boshqacha aytganda aniqlangan chiziq va haqiqiy nuqtalar orasidaga xatolik darajasini minimal darajaga mos holatini ta'minlaydi. Mazkur chiziq regressiya chizig'i deb ataladi va ushbu chiziqqa ega bo'lgandan keyin keyingi davr uchun prognoz qilish imkoniyatiga ega bo'linadi. Ya'ni, chiziqni davom ettirgan holda uning mos qiymatlarini aniqlash etarli bo'ladi (2-rasm).



1.1.2-rasm. Regressiya chizig'i

Mazkur regressiya chizig'ini aniqlashda chizmada ko'rsatilgan masofalar, ya'ni tasodifiy miqdorlarni min imallashtirish masalasi qo'yiladi va u eng kichik kvadratlar usuli asosida yechiladi. Ushbu tahlilni amalga oshirishda odatda tanlama kuzatuv ma'lumotlaridan foydalanilishi jarayonni ehtimollik bilan bog'liq bo'lishiga olib keladi. Shu sababli asosiy taqsimot qonunlariga to'xtalib o'tamiz. Ushbu taqsimot qonunlari ishlab chiqilgan model va aniqlangan koeffitsientlarning adekvatligini asoslash uchun zarur bo'lgan mezonlarni ishlab chiqishda qo'llaniladi.

Regression tahlilni amalga oshirishda eng ko'p qo'llaniladigan taqsimotlardan biri bu normal taqsimotdir.

Normal taqsimot xulosalovchi statistikada tanlama kuzatuv asosida aniqlangan to'plamdagi sonlarning taqsimotini mosligini tekshirish uchun foydalaniladigan nazariy funksiya bo'lib, u quyidagi formula asosida aniqlanadi.

$$y = \frac{1}{\sigma\sqrt{2\pi}} e^{-\frac{1}{2}\left(\frac{x-\mu}{\sigma}\right)^2}$$

Statistik tahlilni amalga oshirganda tanlama kuzatuv asosida shakllantirilgan ma'lumotlar ma'lum guruhlardan iborat bo'ladi, mazkur guruhlardagi o'zgarish chastotalarini aniq qonuniyatlar asosidagi chastotalarga qanchalik darajada mos tushushini baholash asosida belgilangan gipotezlarda bo'yicha tekshirishlar amalga oshiriladi. Ya'ni nol gipoteza to'g'ri deb qabul qilinganida kuzatilgan chastotalar kutilgan chastotadan farq qilish va qilmasligini aniqlash talab qilinadi. X-kvadrat taqsimot tanlama asosidagi ma'lumotlar taqsimotining qanchalik darajada nazariy jihatdan mos kelishini aniqlash uchun foydalaniladi.

$$\chi^2 = \sum_{i=1}^n \frac{(O_i - E_i)^2}{E_i}$$

Bu erda: O_i - guruhdagi kuzatilgan chostatani ifodalaydi. E_i – mos keladigan kutilgan chostatani ifodalaydi.

XULOSA

Qishloq xo‘jaligi taraqqiyotida statistikaning o‘rni katta ekanligi boisdan, statistik nazariyaning ahamiyati yuqori hisoblanadi.

Keltirib o‘tilgan mezonlar iqtisodiy statistik tahlilni amalga oshirishda foydalanilayotgan tanlama kuzatuv asosida olingan ma’lumotlarning qanchalik darajada mavjud chastotalarga mos kelishini aniqlash hamda bosh to‘plamni qanchalik darajada ifodalashini ainqlashga xizmat qiladi.

Ushbu keltirib o‘tilgan mezonlar agrotarmoqni rivojlantirishga qaratilgan tadqiqot ishlarini amalga oshirishda foydalanilayotgan ma’lumotlarning ishonchliligini asoslashga hamda ular asosida amalga oshirilgan tahlillarga tayangan holda ishlab chiqilgan xulosa va takliflarning asosliligini ta’minlashga xizmat qiladi. Ayniqsa, nisbatan ko‘plab omillar ta’siri ostida bo‘lgan va nisbatan tavakkalchilik yuqori bo‘lgan qishloq xo‘jaligi rivojlanishini tadqiq qilishda mazkur mezonlardan foydalanishning ahamiyati ancha yuqori hisobalandi.


FOYDALANGAN ADABIYOTLAR

1. Steel, R.G.D. and Torrie, J.H. (1980) Principles and procedures of statistics. A biometrical approach, 2nd Edition, McGraw-Hill Book Company, New York
2. Francis Galton, “Family Likeness in Stature,” Proceedings of Royal Society, London, vol. 40, 1886, pp. 42–72.
3. C. F. Gauss, Theoria Motus Corporum Celestium. Hamburg, Perthes et Besser, 1809. Translated as Theory of Motion of the Heavenly Bodies Moving about the Sun in Conic Sections (trans. C. H. Davis), Boston, Little, Brown 1857. Reprinted: New York, Dover 1963.
4. L. Praturaj. “Role of Agriculture in the Economic Development of a Country.” Shanlax International Journal of Commerce, vol. 6, no. 3, 2018, pp. 1–5.
5. Ataev J.E. Qishloq xo‘jalik mahsulotlarini etishtirish jarayonlarini ekonometrik modellashtirish. Iqt.fan.fal.dok. (PhD) ilm. dar. olish uchun yozilgan dis.avtoref. – T.: 2021 – b.60
6. Butanova D.R. Qishloq xo‘jaligi rivojlanish tendensiyalarini ekonometrik modellashtirish. Iqt.fan.fal.dok. (PhD) ilm. dar. olish uchun yozilgan dis.avtoref. – U.: 2023 – b.60
7. Rustamovna B. D. ASSESSMENT OF AGRICULTURAL DEVELOPMENT IN KHOREZM REGION //ILMIY, AMALIY VA OMMABOP JURNAL. – S. 38.
8. Butanova, D. R. (2023). STATISTICAL ANALYSIS OF AGRICULTURE DEVELOPMENT IN KHOREZM REGION. In Фундаментальная и прикладная наука (pp. 38-41).
9. Butanova D. Mintaqa iqtisodiyotida agrar soha samaradorligini oshirishning ahamiyati //YASHIL IQTISODIYOT VA TARAQQIYOT. – 2024. – T. 1. – №. 1

PSIXOLOGIYA VA PEDAGOGIKA

Ibodullaeva Iroda Nurulla qizi,
Qoraqalpoq davlat universiteti
Email: iiirodaa@gmail.com

**ZAMONAVIY MAKTABDA O'QITUVCHI VA O'QUVCHI O'ZARO
MUNOSABATLARINING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI**

 <http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.00000000>

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada zamonaviy maktab o'qituvchisi va o'quvchilarning o'zaro munosabatlarining psixologik xususiyatlari tahlil qilinadi. Tadqiqotning maqsadi — ta'lim jarayonida o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi samarali muloqot va ijobiy psixologik muhitni shakllantiruvchi omillarni aniqlashdan iborat. Tadqiqotda kuzatish, suhbat, so'rovnoma va psixologik diagnostika metodlaridan foydalanildi. Olingan natijalar shuni ko'rsatdiki, o'qituvchi shaxsining empatiyasi, emotsional barqarorligi va pedagogik muloqot madaniyati o'quvchilarning motivatsiyasi hamda o'ziga ishonchini oshiradi. Xulosa sifatida, zamonaviy o'qituvchi o'z faoliyatida psixologik kompetentlikni shakllantirishi va individual yondashuvni rivojlantirishi zarurligi ta'kidlanadi.

Kalit so'zlar: o'qituvchi shaxsi, o'quvchi, psixologik muhit, pedagogik muloqot, empatiya, motivatsiya, o'zaro ishonch.

Ибодуллаева Ирода Нурулла кызы
Каракалпакский государственный университет

**ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ВЗАИМООТНОШЕНИЙ УЧИТЕЛЯ И
УЧАЩИХСЯ В СОВРЕМЕННОЙ ШКОЛЕ****АННОТАЦИЯ**

В данной статье анализируются психологические особенности взаимоотношений современного школьного учителя и учащихся. Цель исследования — выявить факторы, формирующие эффективную коммуникацию и позитивную психологическую атмосферу в образовательном процессе. В ходе исследования были применены методы наблюдения, беседы, анкетирования и психодиагностики. Полученные результаты показали, что эмпатия, эмоциональная устойчивость и культура педагогического общения учителя способствуют повышению мотивации и уверенности учащихся. В заключение подчеркивается, что современному учителю необходимо развивать психологическую компетентность и индивидуальный подход в своей профессиональной деятельности.

Ключевые слова: личность учителя, ученик, психологическая среда, педагогическая коммуникация, эмпатия, мотивация, взаимное доверие

Ibodullaeva Iroda Nurulla qizi
Karakalpak State University

PSYCHOLOGICAL FEATURES OF TEACHER–STUDENT RELATIONS IN THE MODERN SCHOOL

ANNOTATION

This article analyzes the psychological characteristics of the interaction between modern school teachers and students. The aim of the study is to identify the factors that promote effective communication and a positive psychological environment in the educational process. Observation, interviews, surveys, and psychological diagnostic methods were used in the research. The results show that teachers' empathy, emotional stability, and pedagogical communication culture enhance students' motivation and self-confidence. The conclusion emphasizes that modern teachers should develop psychological competence and strengthen an individualized approach in their professional practice.

Keywords: teacher personality, student, psychological environment, pedagogical communication, empathy, motivation, mutual trust.

Kirish. Bugungi globallashuv jarayonida ta'lim tizimi oldida nafaqat bilim berish, balki shaxsni barkamol inson sifatida tarbiyalash mas'uliyati turibdi. Shu bois, zamonaviy maktablarda o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi o'zaro munosabatlar ta'lim samaradorligini belgilovchi eng muhim psixologik omillardan biridir. O'qituvchi shaxsi o'quvchining emotsional holatiga, o'ziga bo'lgan ishonchiga va ijtimoiy faolligiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Ushbu masala bo'yicha bir qator olimlar — L.S. Vygotskiy, K. Rodjers, A. Maslou, S. Jalolova va boshqalar — o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi insonparvarlikka asoslangan muloqot ta'limda psixologik iqlimni yaxshilashini ta'kidlaganlar. Shu nuqtayi nazardan, mazkur maqola zamonaviy o'qituvchining shaxsiy va kasbiy fazilatlarini, ularning o'quvchilarga psixologik ta'siri, shuningdek, o'zaro munosabatlarning zamonaviy talablari asosida o'rganishga qaratilgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu tadqiqotda zamonaviy maktabda o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi psixologik munosabatlarni o'rganish uchun aralash metodlardan foydalanildi. Tadqiqot materiali sifatida 244 nafar o'quvchidan olingan so'rovnoma, suhbat, kuzatuv va psixologik diagnostika natijalari ishlatildi.

Qo'llangan usullar: Kuzatuv: Dars jarayonidagi muloqot va o'qituvchi xatti-harakatlarini aniqlash; Suhbat: O'quvchilarning o'qituvchi haqidagi tasavvurlarini o'rganish; So'rovnoma: O'quvchilarning kutgan fazilatlarini va munosabatlarini aniqlash; Psixologik diagnostika: Ta'lim muhiti, motivatsiya va o'zaro ishonchni baholash.

Tahlil va natijalar. Zamonaviy o'qituvchi — bu nafaqat bilim manbai, balki o'quvchi shaxsini ruhiy qo'llab-quvvatlovchi mentor hamdir. U o'z faoliyatida empatiya, kommunikativlik, sabr-toqat va refleksiya kabi psixologik kompetensiyalarga ega bo'lishi zarur. O'qituvchining muloqot uslubi, ohangi, kayfiyati va baholash tili o'quvchilarning o'zini baholashiga bevosita ta'sir etadi.

Psixologik adabiyotlarda o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi munosabatlar avtoritar, demokratik va liberal turlarga ajratiladi. Tadqiqot natijalariga ko'ra, demokratik uslubdagi o'qituvchilar dars jarayonida o'quvchilarning tashabbuskorligini rag'batlantiradi, bu esa o'zaro ishonch va samimiylik muhitini yaratadi.

Zamonaviy ta'lim tizimida o'qituvchi shaxsining o'quvchilar ongidagi qiyofasi alohida o'rin tutadi. O'quvchilarning o'qituvchiga bo'lgan munosabati, u haqdagi tasavvurlari nafaqat bilim olish jarayoniga, balki ularning shaxsiy kamoloti va ijtimoiylashuv jarayoniga ham kuchli ta'sir ko'rsatadi. Shuning uchun ham zamonaviy pedagogikaning asosiy vazifalaridan biri — o'qituvchining kasbiy va shaxsiy qiyofasini o'quvchilar nigohida ijobiy shakllantirish, uni ishonchli hamkor sifatida namoyon etishdir.

O'tkazilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, o'quvchilar o'qituvchini, avvalo, adolatli, bilimdon va talabchan inson sifatida idrok etadilar. Ularning fikricha, haqiqiy zamonaviy o'qituvchi dars


jarayonida faqat bilim beruvchi emas, balki o'quvchilarning hayotiy muammolariga befarq bo'lmagan, ularni qo'llab-quvvatlovchi va to'g'ri yo'l ko'rsatuvchi insondir. Bu tasavvurlar o'quvchilarning yosh xususiyatlari va ijtimoiy tajribalariga qarab farqlansa-da, umumiy jihatdan o'qituvchidan nafaqat yuqori darajada bilim, balki insoniy fazilatlar ham talab qilinayotganligini ko'rsatadi.

O'quvchilarning zamonaviy o'qituvchiga nisbatan kutgan asosiy fazilatlarini quyidagilarda namoyon bo'ladi:

- **Bilimdonlik va kasbiy mahorat.** O'qituvchi o'z fanini mukammal bilishi, darslarni qiziqarli va tushunarli tarzda o'tishi kerak. O'quvchilar o'z ustozidan keng dunyoqarash va zamonaviy bilimlarni egallashni kutadilar.
- **Adolat va talabchanlik.** Zamonaviy o'qituvchining eng muhim jihatlaridan biri — barcha o'quvchilarga bir xil munosabatda bo'lishi, baholash jarayonida xolislikni saqlashi va darsda tartibni adolatli ta'minlashi hisoblanadi.
- **Samimiyat va qo'llab-quvvatlash.** O'quvchilar ustozni do'stona, yaqin va samimiy inson sifatida ko'rishni istaydilar. Ular uchun o'qituvchi shaxsiy muammolarni tinglay oladigan, maslahat bera oladigan, zarur hollarda yordam qo'lini cho'zadigan insondir.
- **Innovatsion yondashuv.** Hozirgi kunda o'quvchilar zamonaviy pedagogdan yangi texnologiyalar, interaktiv metodlar va qiziqarli ta'lim shakllarini qo'llashni kutadilar. Bu jihat ustozning zamon bilan hamnafas ekanligini anglatadi.

Shu bilan birga, tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, o'qituvchining shaxsiy xatti-harakati va muloqot uslubi o'quvchilar tasavvurida juda katta ahamiyat kasb etadi. Masalan, o'qituvchining qat'iyatli va ayni paytda hurmatga asoslangan muloqoti o'quvchilarda ishonch uyg'otadi, uning beparvoligi esa salbiy tasavvurlarni shakllantirishi mumkin. Xulosa qilib aytganda, zamonaviy o'qituvchi haqidagi o'quvchilar tasavvurlari ko'p qirrali bo'lib, ular o'qituvchidan nafaqat bilim berishni, balki do'stona qo'llab-quvvatlashni, hayotiy ko'nikmalarni shakllantirishni ham kutadilar. Bu esa, o'z navbatida, pedagog shaxsining o'quvchilar oldidagi ijtimoiy-madaniy mas'uliyatini yanada orttiradi.

Quyida ushbu savollarga o'quvchilar javoblari rasm ko'rinishida havola etiladi.



1-rasm. . O'quvchilarning zamonaviy o'qituvchi haqidagi tasavvurlari (n=244)

O'tkazilgan so'rovnomamiz natijalariga ko'ra, sinaluvchilarimizning "Zamonaviy o'qituvchi deganda xayolingizda qanday shaxs gavdalanadi?" degan savolga bergan javoblari ularning zamonaviy pedagog qiyofasiga oid tasavvurlarini ochib beradi. Natijalar shuni ko'rsatdiki, sinaluvchilarning 17,2 foizi zamonaviy o'qituvchi siymosini tashqi ko'rinishga — ya'ni zamonaviy kiyinishiga qarab baholashlarini bildirgan bo'lsa, 23,4 foizi zamonaviy ustozni axborot texnologiyalarini yaxshi biladigan, 27 foizi muomala madaniyati yuqori darajada shakllangan shaxs sifatida ta'riflagan. Eng katta ko'rsatkich — 32,4 foiz o'quvchilar esa o'z fanini chuqur egallagan ustoz timsolini zamonaviy pedagogning eng muhim belgisi sifatida ko'rsatganlar.

Bu raqamlar juda muhim ilmiy xulosalarni yuzaga chiqaradi. Avvalo, 32,4 foiz o'quvchilarning zamonaviy o'qituvchini, eng avvalo, "o'z fanini chuqur biladigan" shaxs sifatida tasavvur qilishlari ularning ilm-ma'rifatga bo'lgan intilishi ortib borayotganidan dalolat beradi. Bugungi kun o'quvchilari bilimlarni yuzaki emas, balki chuqur o'zlashtirishni ta'minlay oladigan o'qituvchidan umidvor. Bu esa ta'lim jarayonida ilmiylik tamoyilining yanada kuchayib borayotganligini ko'rsatadi.

Shuningdek, 27 foiz sinaluvchilar "muomala madaniyati yaxshi shakllangan" javob variantini tanlaganliklari bugungi kunda o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi shaxslararo munosabatlarning sifati muhim omil sifatida baholanayotganini ko'rsatadi. Hozirgi texnologiyalar va messenjerlar rivojlangan davrda insonlar o'rtasidagi jonli muloqotga bo'lgan ehtiyoj ham ortmoqda. Demak, zamonaviy o'qituvchi nafaqat bilim beruvchi, balki shaxslararo munosabatlarni to'g'ri yo'lga qo'yuvchi, o'quvchilar bilan sog'lom ijtimoiy-psixologik aloqalarni shakllantira oluvchi inson sifatida qadr topmoqda.

Sinaluvchilarning 23,4 foizi zamonaviy pedagog qiyofasida "ITni yaxshi biladigan" ustoz timsolini ko'rganlar. Bu esa zamonaviy o'quvchilarning ilm-fan va texnika taraqqiyoti asrida ulg'ayib borayotganliklarini va ta'lim jarayonidan ham shunday yangiliklarni kutayotganliklarini bildiradi. O'qituvchining axborot texnologiyalarini puxta bilishi, o'quv jarayonini zamonaviy metodlar bilan boyitishi, interaktiv va innovatsion usullarni qo'llashi bugungi avlod uchun muhim talab hisoblanadi.

E'tiborlisi shundaki, "zamonaviy kiyingan o'qituvchi" degan javob variantini atigi 17,2 foiz sinaluvchi tanlagan. Bu holat zamonaviy jamiyatimizda moddiy tashqi ko'rinish masalasi ikkinchi darajaga tushib, asosiy qadriyat sifatida ilm-ma'rifat, muomala madaniyati va axborot texnologiyalaridan samarali foydalanish malakalari ilgari surilayotganidan dalolat beradi.

Xulosa qilib aytganda, zamonaviy o'qituvchining o'quvchilar ongida shakllangan qiyofasi ko'p qirrali va kompleks xarakterga ega. Ularning qarashlariga ko'ra, zamonaviy ustoz:

- o'z fanini chuqur biladigan;
- muomala madaniyatiga ega;
- axborot texnologiyalarini puxta egallagan;

tashqi qiyofasi ham zamon talablariga mos bo'lgan shaxs sifatida idrok etiladi. Hozirgi ta'limda "insonparvar ta'lim", "inklyuziv ta'lim" va "emotsional intellekt" konsepsiyalari asosiy o'ringa chiqmoqda. Bunda o'qituvchining vazifasi — o'quvchining individualligini hurmat qilish, uni tinglash va psixologik xavfsiz o'quv muhitini yaratishdir. Shunday sharoitda o'quvchi o'z fikrini erkin ifoda etadi, ijodiy fikrlaydi va ijtimoiy jihatdan faol shaxsga aylanadi.


Xulosa. Zamonaviy maktab o'qituvchisi bilan o'quvchilar o'rtasidagi ijobiy psixologik munosabatlar ta'lim samaradorligini oshiruvchi eng muhim omillardandir. Bunday munosabatlar o'qituvchining empatiyasi, muloqot madaniyati va psixologik tayyorgarligiga bevosita bog'liqdir. Shu sababli, o'qituvchilarni tayyorlash jarayonida psixologik kompetensiyalarni rivojlantirish, shuningdek, o'quvchilar bilan ijobiy emotsional aloqa o'rnatish ko'nikmalarini mustahkamlash zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ta'lim sifatini oshirish va pedagog kadrlar malakasini rivojlantirish to'g'risida"gi qarori. (2022).
2. G'ulomova, D. (2023). "Zamonaviy o'qituvchi shaxsining psixologik portreti". Ta'lim va fan jurnali, №3, 45–50-betlar.
3. Jalolova, S. (2021). Pedagogik muloqot psixologiyasi. Toshkent: TDPU nashriyoti.
4. Vygotskiy, L.S. (1982). Psixologiya razvitiya rebenka. Moskva: Pedagogika.
5. Rodjers, K. (2004). Stanovlenie lichnosti. Moskva: Eksmo.
6. Maslow, A. (2007). Motivatsiya i lichnost. Sankt-Peterburg: Piter.

Xudayberganov D.
Mustaqil tadqiqotchi

BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINING KOGNITIV KOMPETENTSIYASINI RIVOJLANTIRISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH

 <http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.00000000>

ANNOTATSIYA

Maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarning kognitiv kompetentsiyasini rivojlantirish jarayonining bazi-bir jihatlari hamda kognitiv rivojlanishning idrok, e'tibor, xotira, fikrlash va iroda kabi asosiy jihatlari va ularning maktabda muvaffaqiyatli o'qish va moslashishdagi roli ko'rib chiqiladi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining individual xususiyatlariga va ularning kognitiv kompetentsiyasini rivojlantirish uchun sharoit yaratish zarurligiga alohida e'tibor beriladi. Undan tashqari maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarining kognitiv kompetentsiyasini muvaffaqiyatli rivojlantirish uchun ta'lim muhitini optimallashtirish va o'qitish usullarini qayta ko'rib chiqish muhimligini ta'kidlab o'tilgan.

Kalit so'zlar: rivojlanish, kompetentsiya, boshlang'ich sinf o'quvchilari, o'quv faoliyati, individual xususiyatlar, kognitiv jarayonlar, kognitiv imkoniyatlar, idrok, e'tibor, xotira, fikrlash, iroda, ilmiy g'oyalar, intellektual ko'nikmalar, ta'lim muhiti

СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ МЕТОДИКИ РАЗВИТИЯ КОГНИТИВНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ УЧАЩИХСЯ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ

АННОТАЦИЯ

В статье рассматривается процесс развития познавательной компетентности учеников начальных классов. Обсуждаются основные аспекты познавательного развития, такие как восприятие, внимание, память, мышление и воля, а также их роль в успешном обучении и адаптации в школе. Особое внимание уделяется индивидуальным особенностям учащихся и необходимости создания условий для развития их когнитивных способностей. А также в статье подчеркивается важность оптимизации образовательного пространства и пересмотра методов обучения для успешного развития познавательной компетентности учащихся начальных классов.

Ключевые слова: развитие, компетентность, ученики начальных классов, учебная деятельность, индивидуальные особенности, когнитивные процессы, познавательные возможности, восприятие, внимание, память, мышление, воля, научные представления, интеллектуальные навыки, образовательное пространство.

IMPROVING METHODOLOGY FOR DEVELOPING COGNITIVE COMPETENCE OF PRIMARY STUDENTS

ABSTRACT

The article examines the process of developing the cognitive competence of primary school students. The main aspects of cognitive development, such as perception, attention, memory,

thinking and will, as well as their role in successful learning and adaptation at school, are discussed. Special attention is paid to the individual characteristics of students and the need to create conditions for the development of their cognitive abilities. The article also emphasizes the importance of optimizing the educational space and revising teaching methods for the successful development of cognitive competence of primary school students.

Keywords: development, competence, primary school students, educational activities, individual characteristics, cognitive processes, cognitive capabilities, perception, attention, memory, thinking, will, scientific ideas, intellectual skills, educational space.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining kompetentligini rivojlantirish jarayoni murakkab va ziddiyatli bo'lishi mumkin, chunki har bir bolaning o'ziga xos xususiyatlari, rivojlanish darajasi va o'qish uchun motivatsiyasi mavjud. Biroq, ta'lim faoliyatida va keyingi hayotda muvaffaqiyatga erishish uchun bolalar mustaqil ravishda izlanish, ma'lumotlarni tahlil qilish, muammolarni hal qilish va jamoada ishlash kabi bir qator kompetentliklarni o'zlashtirishlari kerak.

Har bir o'quvchi o'qituvchidan va o'quv manbalardan olingan ma'lumotlarni idrok etish jarayonida o'zining individual kognitiv imkoniyatlaridan foydalanadi. Ushbu imkoniyatlar turli daraja va ko'rinishda bo'ladi hamda ma'lumotlarni qaysi qismi idrok etilishi va qaysi biri e'tiborga olinmasligini aniqlaydi. Ba'zida bu o'quvchining ma'lum bir materialni idrok etish uchun tegishli bilim vositalariga ega emasligi bilan bog'liq. Natijada, o'quv materialining ba'zi qismlari bunday individual xususiyatlar tufayli talaba tomonidan noto'g'ri tushunilishi mumkin.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarning kognitiv kompetentsiyasini rivojlantirish bugungi kunda dolzarb hisoblanadi, chunki bolaning kognitiv kompetentsiyasi uning aqliy fazilatlarini rivojlantirishning asosi bo'lib hizmat qiladi.

Kognitiv jarayonlar stimullarning retseptorlarga ta'siridan tortib, bilim shaklida javob olishgacha bo'lgan hissiy ma'lumotlarni o'zgartirishga imkon beradigan murakkab jarayonlar to'plami sifatida qaralishi kerak.

Boshlang'ich sinf bosqichida bolalar juda ko'p o'zgarishlarni boshdan kechirishadi va bu yoshda kognitiv kompetentsiyani rivojlanishining asosiy xususiyati aqliy kognitiv jarayonlarning yuqori darajalarga o'tishi jarayoni sanaladi.

Boshlang'ich sinf kognitiv kompetentsiyasini psixikaning quyidagi asosiy toifalarini o'z ichiga oladi: idrok, his qilish, diqqat, xotira, fikrlash, iroda.

Idrok-bu his-tuyg'u orqali dunyo haqida ma'lumot olish jarayoni. Bu atrofda obekt va hodisalar haqida tasavvurni shakllantirishga imkon beradi. Boshlang'ich sinf yoshida idrok yanada ongli va maqsadga muvofiq bo'ladi. Bolalar nimani ko'rishlarini, eshitishlarini, his qilishlarini tushuna boshlaydilar va bu jarayonni ongli ravishda boshqarishlari mumkin.

Kuzatish idrokning muhim jihati hisoblanadi. Bu bolaga atrofda dunyoni batafsilroq o'rganishga, ilgari sezilmasligi mumkin bo'lgan tafsilotlarni payqashga imkon beradi. Kuzatuvni takomillashtirish idrokni rivojlantirishga yordam beradi va uni yanada boshqariladigan va maqsadga muvofiq qiladi.

Boshlang'ich sinf bosqichida idrok bir qator xususiyatlarga ega bo'ladi. Bu ongli va boshqariladigan jarayon bo'lib, bolaga atrofda dunyoni yanada sifatli o'rganishga imkon beradi. Kuzatish bu jarayonda asosiy rol o'ynaydi va uni takomillashtirish idrokni rivojlantirishga yordam beradi.

His qilish -bu idrokning asosini tashkil etuvchi idrok etilayotgan ob'ektning individual fazilatlari va xususiyatlarining bevosita hissiy aksidir. Buning sababi shundaki, odam atrofda voqelik haqidagi ma'lumotni sezgi organlari yordamida qabul qilishida. Boshlang'ich sinf o'quvchilarni analizatorlar tizimi tinimsiz rivojlanishini davom ettirishiga qaramay, boshlang'ich sinf davrga kelib uning etarli darajada shakllanmaganligi qayd etilgan [1]

His qilish - bu insonning tashqi dunyo bilan bevosita o'zaro ta'siri sodir bo'ladigan idrok jarayonining birinchi bosqichi. Sezuvcchanlik ko'rish, eshitish, ushlash, hid va ta'm kabi sezgilarga turli xil qo'zg'atuvchi juhlarni ta'siridan keyin paydo bo'ladi.

His qilish idrokning asosi hisoblanadi, chunki ular ob'ekt va hodisalarning xususiyatlari haqida ma'lumot olish imkonini beradi. Masalan, vizual sezgi organlari bizga ob'ektlarning shakli, rangi va hajmini ko'rish imkonini beradi, eshitish organlari esa tovushlarni eshitish va ularning manbasini aniqlash imkonini beradi.

His qilish - bu idrok etish uchun asos bo'lgan idrok etilayotgan ob'ektning individual fazilatlari va xususiyatlarining bevosita hissiy aksidir. Bu odam atrofdagi dunyo haqida his qilish orqali ma'lumot olishi bilan bog'liq. Boshlang'ich sinf bosqichida analizator tizimi etarli darajada shakllangan bo'lsaham ularning rivojlanishi tizimli davom etadi. Biroq, boshlang'ich sinf yoshidagi bolalarda eshitish va vizual hislar ko'proq rivojlangan.

Shuni ta'kidlash kerakki, his qilish nafaqat idrokning asosi, balki bola shaxsini shakllantirishda ham muhim rol o'ynaydi. Ular unga atrofdagi dunyoni tushunishga va unga moslashishga yordam beradi va fikrlash, tasavvurni rivojlantirishga yordam beradi. Shu sababli, boshlang'ich sinf yoshidagi bolalarning muvaffaqiyatli o'qishi va rivojlanishini ta'minlash uchun ularning his qilish qobiliyatini rivojlantirishga e'tibor berish muhim.

Diqqat-bu ma'lum bir faoliyat yoki ob'ektga e'tibor qaratish qobiliyati bo'lib, bu o'quvchini bajarayotgan ishiga diqqatni jamlashga va atrofda sodir bo'layotgan voqea va hodisalarga e'tibor bermaslikka yordam beradi.

Diqqatni bir obektdan ikkinchi diqqat obektiga o'tkazish bu bir faoliyatdan ikkinchisiga tez o'tish qobiliyatini anglatadi. Bu o'zgaruvchan sharoitlarga tez moslashish va bir vaqtning o'zida ko'p vazifalarni samarali bajarish uchun muhim qobiliyat hisoblanadi.

Chalg'ish-bu begona obektlar yoki fikrlarga chalg'isga moyillik. Bunga charchoq, stress, shovqin va boshqalar kabi turli omillar sabab bo'lishi mumkin. Chalg'ishni kamaytirish uchun o'z diqqatini boshqarishni va vazifalarga e'tiborini qaratishni rivojlantirish kerak.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarning vazminligi diqqatni xususiyati sifatida hisobga olish muhimdir. Ushbu davrning boshida yoshga bog'liq tormozlanish xususiyatlari yuqoriligi tufayli barqarorlik kam rivojlangan bo'lishi mumkin. Shunga qaramay, bolaning idrok ob'ekti bilan faol o'zaro aloqasi ushbu vazminlikni sezilarli darajada oshirishga yordam beradi.

S.M.Gorbach o'z tadqiqotlarida 6-7 yoshdagi boshlang'ich sinf o'quvchilari bir vaqtning o'zida 2-3 ta ob'ektni idrok etib, diqqatning yuqori barqarorligini saqlashga qodirligini ko'rsatdi. Ammo, agar idrok etadigan ob'ektlar soni ko'paytirilsa, diqqatning barqarorligi pasayadi, bu idrok sifatiga ta'sir qiladi, ko'proq xatolar paydo bo'ladi. Ko'proq ob'ektlarga etarlicha e'tibor berish uchun o'quv materialini qayta idrok etish talab etiladi [1].

Xotira-bu ma'lumotni saqlash va kelajakda undan foydalanish qobiliyati. Bu o'rgangan ma'lumotlarni eslab qolishga va undan muammolarni hal qilishda foydalanishga yordam beradi.

Xotiraning mnemonik funktsiyasi bu ma'lumotni eslab qolish va saqlash qobiliyati. Boshlang'ich sinf yoshida bu funktsiya etarli darajada rivojlangan bo'lishi kerak, chunki bolalar yangi narsalarni o'rganadilar va ko'p ma'lumotlarni eslab qolishlari kerak bo'ladi.

Mantiqiy xotira-bu ma'lumotni eslab qolish uchun fikrlashdan foydalanadigan xotira turi. Ushbu xotira assotsiatsiyalar, tasvirlar va so'zlar kabi xotira vositalaridan foydalanishga asoslangan. Boshlang'ich sinf yoshida bolalar ma'lumotni yaxshiroq eslab qolish uchun ushbu xotira shaklidan foydalanishni boshlaydilar.

Fikrlash-bu ma'lumotni qayta ishlash va qaror qabul qilish jarayoni hisoblanadi. Fikrlash idrok etish, tahlil qilish, sintez qilish, baholash va qaror qabul qilish kabi jarayonlarni o'z ichiga oladi.

Agad shaxs qaror qabul qilishda mantiqdan foydalansa ushbu fikrlashni mantiqiy fikrlash deb aytish mumkin, lekin to'g'ridan-to'g'ri qabul qilib bo'lmaydigan tushunchalar mavjud bo'lsa bu fikr yuritishni mavhum (abstrakt) fikrlash deb ayliadi. Ijodiy fikrlash yangi g'oyalar va tushunchalarni yaratishga imkon beradi, intuitiv fikrlash esa mantiqiy asoslarsiz tezda qaror qabul qilishga yordam beradi.

Fikrlash atrof-muhitga moslashish uchun ham muhimdir. Bu odamlarga ma'lumotni tushunish va talqin qilish, shuningdek, ushbu ma'lumotlarga asoslangan qarorlar qabul qilish

imkonini beradi. Shuningdek, fikrlash, odamlarga bilimlarni umumlashtirishga va mavjudlaridan yangi bilimlarni yaratishga yordam beradi.

Va nihoyat, fikrlash o'zingizni ijodiy ifoda etishda muhim rol o'ynaydi. Bu jamiyat uchun foydali bo'lishi mumkin bo'lgan yangi g'oyalar, tushunchalar va mahsulotlarni yaratishga imkon beradi.

Iroda-bu ma'lum natijalar yoki maqsadlarga erishish uchun shaxsning o'z fikrlari, his-tuyg'ulari va harakatlarini boshqarish qobiliyatini aks ettiruvchi psixologik fazilat hisblanadi. Bu o'zini keraksiz narsalardan himoya qilish, qaror qabul qilish va tanlangan maqsadlarga sodiq qolish qobiliyatida namoyon bo'ladi.

Iroda o'z-o'zini tarbiyalash, qat'iyatlik, fidoyilik va o'zini tuta bilish kabi jihatlarni o'z ichiga oladi. U hayotning turli sohalarida, jumladan, o'rganish, kasbiy o'sish, sport, shaxsiy munosabatlar va ma'naviy rivojlanishda muvaffaqiyat qozonishda muhim rol o'ynaydi.

Kuchli iroda qiyinchiliklarni hamda to'siqlarni engishga va hatto eng qiyin vaziyatlarda ham rivojlanishga yordam beradi. Biroq, boshqa psixologik fazilatlar singari, iroda ham ta'lim va o'zini takomillashtirish orqali rivojlanish va mustahkamlashni talab qilishi mumkin.

Faqat insonga xos bo'lgan aqliy faoliyatning eng yuqori shakli fikrlash deb ataladi. Ushbu jarayon ongda ob'ektlar va atrofdagi dunyo hodisalari o'rtasidagi aloqalarni, masalan, hal qilinayotgan vazifa tomonidan ilgari surilgan shartlar va talablarni tahlil qilish, sintez qilish va umumlashtirish kabi jarayonlarni aks ettiradi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilari asosan vizual-majoziy fikrlashdan og'zaki-mantiqiy fikrlashga o'tish sodir bo'ladi. Ilmiy tushunchalarning rivojlanishi bu jarayonda asosiy rol o'ynaydi, chunki bu nazariy fikrlashni shakllantirish uchun zarur shart bo'lib xizmat qiladi. Ushbu fikr ilmiy tadqiqotlar natijalari bilan tasdiqlangan.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining kognitiv rivojlanishini baholash uchun tadqiqotchilar tajriba o'tkazdilar, unda bolalarga teng miqdordagi suv bilan to'ldirilgan ikkita bir xil stakan taqdim qilindi. Keyin tadqiqotchi suvni birinchi stakandan ikkinchi stakanga nisbatan cho'zilgan shaklga ega stakanga quydi. Bu ikkinchi stakanda suv sathining oshishiga olib keldi, ammo suvning umumiy miqdori o'zgarishsiz qoldi. Shundan so'ng, bolalarga qaysi stakanda ko'proq suv borligi haqida savol berildi [4].

Hali to'liq shakllangan ilmiy tushunchalarga ega bo'lmagan boshlang'ich sinf o'quvchilari suyuqlik miqdori bir xil bo'lib qolganligini hali tushunishmagan, shuning uchun ular ikkinchi stakan suvda ko'proq deb o'ylashlari mumkin. Ushbu turdagi fikrlash boshlang'ich sinf o'quvchilarga ob'ektlarning tashqi aloqalari va xususiyatlariga emas, balki ularning ichki muhim xususiyatlariga e'tibor qaratib, muammolarni hal qilishga imkon beradi [2].

Kognitiv kompetentsiyani rivojlantirish uchun intellektual ko'nikmalarning asosiy darajasiga, guruhda hamkorlik qilish va ishlash qobiliyatiga ega bo'lish, shuningdek, turli fikrlarga moyillik ko'rsatish kerak. Sherikning nuqtai nazarini tinglash va hurmat qilish, shuningdek, muammo bo'yicha o'z fikrlarini aniq ifoda etish va suhbatdoshning pozitsiyasini tahlil qilish qobiliyati muhim.

Bolalarning umummadaniy, shaxsiy va kognitiv rivojlanishini optimallashtirish, shuningdek, barcha o'quvchilarning muvaffaqiyati uchun sharoit yaratish maqsadida ta'lim makonini takomillashtirish zarur. Bu maktabga o'qitish usullari, shakllari va yondashuvlarini qayta ko'rib chiqishni talab qiladi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining kognitiv kompetentsiyasini rivojlantirish ularning maktabda muvaffaqiyatli bilim olishi va moslashishi uchun muhim shart-sharoitlardan biri sanaladi. Bu ularga bilimlarni yaxshiroq o'zlashtirishga yordam beradi hamda tanqidiy fikrlash va muammolarni hal qilish qobiliyatini rivojlantiradi. Shuningdek, har bir o'quvchining individual xususiyatlarini hisobga olish va ularning kognitiv kompetentsiyasini rivojlantirish uchun sharoit yaratish muhim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘uxati:

1. Горбач С. М. Особенности внимания у детей младшего школьного возраста. В книге А. И. Савенко (Ред.), Психология внимания стр. 139-147. Москва: Институт психологии РАН. 2018 г.
2. Сироткин Л.Ю. Младший школьник, его развитие и воспитание: учебно-методическое пособие /Л.Ю.Сироткин, А.Н.Хузиахметов - Казань, 1999.- 226с.
3. Сластенин В. А., & Исаев, И. Ф. Педагогика: Учеб. пособие для студ. высш. пед. учеб. заведений. – М.: Академия, 2009. – 608 с.
4. Хуторской, А.В. Ключевое понятие компетентности в современном образовании. Знание. Понимание. Умение, 4, 58-64 2011 г.



ISSN 2181-9696

Doi Journal 10.26739/2181-9696

«MAMUN SCIENCE» JURNALI

ЖУРНАЛ «MAMUN SCIENCE»
JOURNAL OF «MAMUN SCIENCE»

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000